

RUSTAM QOSIMOV
ZAMONDOSHLARI
XOTIRASIDA

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2025

UO‘K 323(575.1)(092)
KBK 66.3g(5O‘)
R 92

Rustam Sobirovich Qosimov ilm-ma‘rifatli, millatimizning tom ma‘nodagi yetuk ziyolisi edi. Qayerda, qaysi vazifa va lavozimda bo‘lmasin, u hamisha o‘zining bor bilim va tajribasi, kuch-quvvat-u salohiyatini el-yurtimiz manfaati uchun safarbar etib yashadi.

Ko‘p yillar davomida birgalikda, mashaqqatli va sinovli kunlarda yonma-yon ishlab, bunga qayta-qayta amin bo‘lganman. Hozir ham menga eng katta yordamchi, maslahatgo‘y edi.

Yillar o‘tadi, lekin Rustam Qosimovdek Vatanga sadoqatli va fidoyi, qalbi pok insonlarni xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

R 92 Rustam Qosimov zamondoshlari xotirasida [Matn] — T.:
“O‘zbekiston” nashriyoti, 2025. — 168 b.
ISBN 978-9910-8118-7-6

Yaxshilarning ikkinchi umri bo‘ladi, deganlari rost. Ular dunyodan o‘tsalar-da, bu hayotda amalga oshirgan ezgu va xayrli ishlari, nurli xotiralari odamlar qalbida yashayveradi.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, sharqshunos olim, mohir pedagog va diplomat Rustam Sobirovich Qosimov hayot bo‘lganida bu yil 70 yoshni qarshilar edi.

Qo‘lingizdagi to‘plamdan bu zahmatkash va fidoyi insonning ibratli hayot yo‘li, qizg‘in ijtimoiy-siyosiy faoliyati, betakror fazilatlar haqida zamondoshlari va yaqin do‘stlari, hamkasblari va shogirdlarining samimiy xotiralari o‘rin olgan.

Kitob keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

UO‘K 323(575.1)(092)
KBK 66.3g(5O‘)

Tanzila Norboyeva,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati Raisi

MAKTAB YARATGAN INSON

Hayotingda shunday insonlar uchraydiki, ularning umr mazmunidan odamiylikning chin mohiyatini, bu dunyoga kelishdan asl maqsad-muddao neligini chuqurroq anglab yetasan va shu ezgulik yo'lida ulardan ibrat, saboq olishga intilasan. Mening hayotimda Rustam Sobirovich mana shunday oliy martabaga ega donishmand Ustoz hamda samimiy inson sifatida muhim o'rin tutgan shaxslardan biri edi.

2000-yillarning boshida ham mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy holat to'liq izga tushib ketmagan, ayniqsa, odamlarning kayfiyatiga sezilarli ta'sir qiladigan, davlatga, hukumatga ishonchini belgilaydigan ijtimoiy sohada kundalik muammolar haddan tashqari ko'p edi. Ularni hal qilish uchun hozirgidek keng imkoniyat va shart-sharoit qani deysiz?

Shunday og'ir bir vaziyatda Bosh vazir lavozimida ishlash Shavkat Mirziyoyevning chekiga tushgan edi. Hukumat rahbari o'z faoliyati mazmunini, birinchi o'rinda aholini qiynayotgan muammolarni hal etishga qaratdi. Shu maqsad yo'lida barcha kuch va imkoniyatni safarbar etib, vazirlik va idora rahbarlaridan juda katta mas'uliyat bilan ishlashni talab qilardi. Ta'bir joiz bo'lsa, kecha-yu kunduz 25 milliondan ortiq aholining dard-u tashvishi bilan ya-shardi.

Rustam Sobirovich ana shunday murakkab bir sharoitda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza va madaniyat sohalariga javobgar Bosh vazir o'rinbosari sifatida ish boshladi. Men ham u kishi rahbarligidagi jamoada ishlash jarayonida shunday mas'uliyatli vazifa bejiz Rustam Qosimov zimmasiga yuklatilmaganiga amin bo'ldim.

Nega deganda, "bu yog'ini tortsang, u yog'iga yetmaydigan" sohalarning uzluksiz faoliyatini ta'minlash uchun yo'qni yo'ndiradigan, tadbirli, irodali, matonatli hamda fidoyi rahbarga ehtiyoj bor edi. Shavkat Miromonovich Rustam Qosimov shaxsiyatidagi shunday chin insoniy xislat va fazilatlarni anglagan bo'lsa, ajab emas.

Rustam Sobirovich tegishli sohalarda ishni samarali tashkil etishning muhim omili sifatida qattiq tartib-intizomni ta'minlash, rahbarlarning mas'uliyatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratdi. U kishi o'ziga qanchalik talabchan bo'lsa, boshqalarga ham shunday talab qo'yardi.

O'sha paytlardayoq bizni ham, vazirlik va idoralar mutasaddilarini ham muammo yoki masalani joyida, quyidan o'rganishga undar, o'zi bu borada barchamizga ibrat bo'lar edi.

U kishi chuqur bilim va tajriba, yuksak madaniyat va insoniylikni o'zida mujassam etgan tom ma'nodagi katta shaxs edi. Bu uning nainki ishlarida, balki odamlar bilan muomala-muloqotida ham ko'rinib turardi.

Rustam Sobirovich, xalqona ibora bilan aytganda, ishning ko'zini biladigan rahbar edi. Qo'l ostidagi biror xodim yoki mutasaddiga topshiriq berar ekan, uning behuda kuch-quvvat sarflashiga o'rin qoldirmas, ishni qanday tez va oson bajarish mumkinligi borasida yo'l-yo'riq ko'rsatar edi. Bu, birinchidan, ishning natijadorligini kafolatlasa, ikkinchidan, har birimizga qaysi muammo yoki

masalaga qanday yondashish zarurligini o'rganishimizda o'ziga xos "mahorat maktabi" vazifasini o'tardi. Buni bilganimiz uchun fursat topdik deguncha, Ustozdan maslahat olishga, nimanidir o'rganishga intilardik.

Rustam aka ish kabinetida kam o'tirardi. U kishini goh tizimdagi vazirliklarda, goh oliygoh-u maktablarda, goh tibbiyot muassasalarida ko'rishimiz mumkin edi. O'sha davrda Bosh vazirimiz topshirig'iga binoan, respublika darajasidagi rahbarlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosini ta'minlash, barcha sohalar bo'yicha ishlar holatini o'rganish uchun har bir hududga mas'ul etib yuborilar edi.

Ushbu vazifani sifatli bajarishga kirishar ekan, Rustam Sobirovich hududlarga yo'l olayotgan respublika guruhi a'zolariga *"Sizlar begona yurtga bormayapsiz, zinhora o'zingizni "inspektor" sifatida tutmang, missiyamiz muammo va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga ko'maklashishdan iborat bo'lishi kerak"*, deb qattiq tayinlar edi. Men bu gapning ma'nosini o'zlaridan bildim: o'rganishga borgan ayrim kimsalar biror-bir kamchilikni topib olib, mas'ullarni qiynab, hattoki tamagirlik qilgan holatlar ham uchrab turishini afsus bilan aytgandi o'shanda.

Shu o'rinda aytish mumkinki, qaysi hududga Rustam Qosimov mas'ul bo'lgan bo'lsa, o'zini bilgan rahbar uchun bu katta imkoniyat edi. Nega deganda, u kishi qanday topshiriq yoki vazifa bo'lmasin, unga juda jiddiy kirishar, qolganlarni ham safarbar etib, ishni oxiriga yetkazmaguncha tinib-tinchimasdi. Hudud rahbarlaridan *"Qosimovni aldab bo'lmaydi"*, degan gapni ko'p eshitganmiz.

Rustam aka ruhiyat bilimdoni edi. Mamlakatimizning eng chekka qishloq va ovullarida ham bo'lgan, el ichida

ko'p yurgani bois xalqning "tomir urishini", tabiatiga xos eng nozik jihatlarni nozik ilg'ar, har bir hududga xos urf-odat, an'ana va qadriyatlarni juda yaxshi bilar edi.

Rustam Sobirovich yurtimizning turli go'shalarida joylashgan, ma'lum sabablarga ko'ra unutilgan yoki xarobaga aylangan tarixiy obidalarni qayta tiklash, obodonlashtirish ishlariga ham katta hissa qo'shgan fidoyi, chinakam vatanparvar inson edi. O'zi ham shunday xislatga ega odamlarni qattiq hurmat qilar, yuragida o'ti bor, ko'zlari elim-yurtim deb yonib turgan yoshlarni ko'rsa, quvonib ketar edi.

Rustam aka tug'ma murabbiy edi. Faoliyati davomida ko'plab yoshlarni yoniga olib, ularga bor bilim va tajribasini o'rgatgani, ularni shu yurt uchun fidoyilik bilan xizmat qilishga tayyorlagani ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Ustozdan bevosita ta'lim olgan shogirdlari qancha ko'p bo'lsa, hayotiy tutumlari, kasbiy mahoratidan o'rnak va namuna olganlar ham ulardan kam emas, deb o'ylayman.

Ma'lumki, til o'rganish kishidan o'zgacha qobiliyat talab etadi. Rustam Sobirovich, avvalambor, ona tilimizning puxta bilimdoni, jonkuyari edi. Shu bilan birga, uch-to'rtta xorijiy tilda ham erkin so'zlasha olar, bunga bizning havasimiz kelar edi. Keyingi yillarda ko'plab xorijiy tillarni biladigan yangi avlod kadrlari safimizga kirib keldi. Biroq bundan 15–20 yillar oldin chet tillarini biladigan rahbarlar kamchilikni tashkil etar edi. Ana shunday bir sharoitda Rustam Sobirovichning Hukumat darajasidagi rasmiy qabullarda chet ellik rahbar va diplomatlar bilan xorijiy tillarda biyron suhbatlashishi o'rtada o'ziga xos do'stona muhit, ishchan bir kayfiyatni yuzaga keltirganiga ko'p marta guvoh bo'lganman.

Taqdir taqozosi bilan Rustam Sobirovich bir muddat Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika ken-

gashi raisi o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Men bu paytda Kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi edim. To'g'risini aytsam, bundan biroz o'ng'aysiz holatga tushganman: kechagina senga rahbar bo'lgan inson, bugun...

Xayolimdan kechgan bu xijolatomuz o'y-fikrlarni Rustam Sobirovich birinchi ish kunidayoq tarqatib yuborgan. Kabinetimga kirib, "Hech xijolat bo'lmang, bu sohada ham sizning rahbarligingizda ko'p ishlarni amalga oshiramiz", degan jilmayib.

Ustasiga farqi yo'q, deyishadi-ku, bu lavozimda qisqa muddat ishlagan bo'lsa-da, Rustam Qosimov sohada ko'p yangiliklar qilishga ulgurdi. Boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining rolini oshirishga alohida e'tibor qaratdi. Ko'p yillar ta'lim tizimida ishlab, soha xodimlarining muammolari, ehtiyojlarini yaxshi bilgani uchun ularning haq-huquqlarini himoya qilish, sog'ligini tiklash hamda munosib dam olishlarini samarali tashkil etish borasida ko'plab yangi tashabbuslarni ilgari surdi va ularni amalga oshirishda o'zi bosh-qosh bo'ldi.

Muhtaram Prezidentimiz, o'sha yillari Bosh vazir bo'lib ishlagan Shavkat Miromonovich, Rustam Qosimovni o'zining yillar davomida sinashta bo'lgan ishonchli yordamchisi, maslahatgo'yi sifatida e'tibordan chetda qoldirmadi, doimo qo'llab-quvvatlab turdi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga faol safarbar etib, o'zidagi shijoat, tajriba hamda mahoratni ishga solishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Rustam Sobirovich ko'proq hududlarda bo'lib, zimmasidagi vazifalarni xuddi avvalgidek mas'uliyat, jonkuyarlik bilan, butun tajriba va bilimni ishga solib, ko'ngildagidek ado etdi.

2016-yilda, Prezidentimiz o'z lavozimini bajarishga kirishgan ilk kunlardayoq Rustam Qosimovni Bosh vazir o'rinbosari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri lavozimiga

tayinladi. Chunki, mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida boshlanayotgan keng ko'lamli islohotlar, yaqin kelajak uchun tuzilayotgan katta-katta rejalar hamda strategik dasturlar ijrosini ta'minlashda fidoyi, bilimdon va tashabbuskor kadrlar hal qiluvchi rol o'ynashi kundek ayon edi.

Rustam Qosimov davlatimiz rahbarining qat'iy irodasi, xalqchil siyosati hamda tashabbuskorligi bilan odamlarni rozi qilish, inson qadrini ulug'lash maqsadida barcha sohalarida jadal tus olgan tub islohotlardan ruhlanib, qaynoq jarayonlarda hamisha ilg'orlar safida bo'ldi.

O'zining so'nggi besh yillik faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat maslahatchisining birinchi o'rinbosari, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori, Prezidentning davlat maslahatchisi, Prezidentning jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchisi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori kabi mas'uliyatli lavozimlarda sidqidildan mehnat qildi.

Shu orada Bosh vazir o'rinbosari, so'ngra Senat raisi sifatidagi faoliyatim davomida ham Rustam Sobirovich bilan yaqin hamkorlikda ish olib bordik. Ayniqsa, oilada, mahallada, xotin-qizlar o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish borasidagi qimmatli takliflari, fikr-mulohazalari bu boradagi ishlarimizni samarali yo'lga qo'yishimizda juda asqotgan.

Umuman olganda, butun faoliyatim davomida Rustam Sobirovich bilan birga, yonma-yon ishlab, u kishining qaysi lavozimda, qanday vaziyatda bo'lishidan qat'i nazar, o'z hayotiy prinsiplariga, insoniyligiga hamisha sodiq qolganiga guvoh bo'lganman.

U kishining oilaparvarligi, turmush o'rtog'i, farzandlariga, qolaversa, yaqinlariga e'tibori har qanday

inson uchun ibrat bo'ladigan darajada edi. Rustam Sobirovichning mana shunday sertashvish, shu bilan birga, sermazmun umri davomida yelkadosh bo'lib, otasidek el-u yurt xizmatiga kamarbasta bo'layotgan o'g'lonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan rafiqasi Dilbarxonning xizmatlarini ham alohida ta'kidlab o'tish o'rinli. Ularga farzandlarining, shirindan shakar nabiralarining kamolini ko'rib, uzoq umr ko'rib yurish nasib etsin.

Biz — hamkasblari, shogirdlari hamda do'st-u birodarlari o'zaro suhbatlarimizda Ustozni ko'p eslaymiz, hayotimizda u kishi bilan bog'liq kechgan ibratli voqealarni bir-birimizga maroq bilan so'zlab beramiz.

Albatta, o'lim haq. Lekin o'zining ibratli umri davomida chinakam fidoyilik maktabini yaratgan, o'zidan yaxshi nom, ezgu amallar, solih farzandlar, yetuk shogirdlar qoldirib ketgan Rustam Sobirovichning yorqin xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanadi.



Abdulla Aripov,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh vaziri

SADOQATLI VA FIDOYI

Inson qancha yashagani bilan emas, qanday yashagani bilan qadrlanadi. Shu ma'noda, sadoqatli, fidoyi insonlar haqida gap ketga, beixtiyor ko'z oldimga Rustam aka Qosimov keladi.

Men Rustam Sobirovich Qosimovni yaqinroqdan, asosan, 2000-yillar boshlarida taniganman. O'shanda u kishi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari bo'lib ishlar edi. Men esa Pochta va telekommunikatsiyalar agentligi Bosh direktorining birinchi o'rinbosari edim. Tabiiyki, mamlakat Prezidenti Devoni va Respublika Hukumati rahbarlari o'tkazadigan turli yig'ilish va tadbirlarda ko'rishib qoldirik.

Rustam Sobirovich menda hamisha jiddiy, mas'uliyatli, hozirjavob rahbarlardan biri sifatida taassurot uyg'otar edi. O'z ishini yaxshi biladigan, sohaning muammolarini ichidan tushunadigan rahbarlardan edi. Shu bois u ko'p o'tmay Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri lavozimiga tayinlandi. Uch-to'rt oy chamasi o'tib, Bosh vazirning fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi ham u kishining zimmasiga yuklandi. Men esa Aloqa va axborot telekommunikatsiyalari masalalari bo'yicha Bosh vazir o'rinbosari lavozimiga o'tib, Rustam Sobirovich bilan endi tez-tez, deyarli har kuni, 5 yil davomida ko'rishadigan bo'ldik (2004–2009-yillar).

Bu paytda hurmatli Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Bosh vazir edilar. Ularning ikkovimizga katta ishonch bilan beradigan topshiriqlari, nafaqat rahbar, ayni chog'da hammaslak, yelkadosh og'a sifatidagi insoniy munosabatlari bizlarni har bir masalada sergak turishga, muammolarni chuqur o'rganib, oqilona xulosa chiqarishga undardi. Deyarli barcha qamrovdor, miqyosli vazifalarda hurmatli Shavkat Miromonovichning maslahatlari, yo'l-yo'riqlari bilan ish ko'radik.

Hayot sinovlardan iborat. Taqdir shunday bo'ldiki, 2011–2012-yillarga kelib, har ikkimizning faoliyatimizda ma'lum bir murakkabliklar kechdi. Biz ko'p emas, oz emas, qariyb besh yilga yaqin taqdiridosh bo'lib yurdik. Biroq shunga qaramay, hurmatli Bosh vazir Shavkat Miromonovich Mirziyoyev chinakam insoniy fazilatlarini namoyon etdilar. Salohiyatimizga ishonib, norasmiy ravishda Davlat va Hukumat miqyosidagi g'oyat muhim va dolzarb vazifalar ijrosiga jalb etib turdilar. Garchi rasman lavozimda bo'lmasak-da, amalda Bosh vazir belgilagan maxsus vakolat bilan davlat miqyosidagi turli topshiriqlarni bajarib yurdik.

Bu vazifalar xoh Navro'z, Mustaqillik singari davlat miqyosidagi tadbirlar bo'ladimi, xoh Birinchi Prezidentning saylovoldi uchrashuvlari, viloyatlarga tashriflarini tayyorlashmi, yoki viloyatlar hokimlarini lavozimiga tayinlash bo'yicha o'tkaziladigan sessiyalar bo'ladimi, umuman, ko'p-ko'p ishlarni tashkil etish bo'yicha "ko'zga ko'rinmas" guruhlarining faol ishtirokchisi edik.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish shular jumlasidan. Esimda, 2016-yilning may oyida Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish haqida Prezident

farmoni qabul qilindi va Vazirlar Mahkamasi qarori e'lon qilindi.

Yangi oliy o'quv dargohini tashkil etish — bu shunchaki navbatdagi ochilayotgan universitet emas, balki mamlakatimizning mafkuraviy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ustuvor siyosatini ko'rsatadigan juda jiddiy, o'ta muhim bilim dargohi edi. Hurmatli Shavkat Miromonovich buni teran anglab, Rustam aka bilan kaminani shu ishlarga mas'ul etib belgiladilar. Ishni barcha zarur yo'nalishlarda tezkorlik bilan juda qisqa — to'rt oy muddatda to'la sifatli asosda bajarish lozim edi.

2016-yil sentabridan har ikkimizni hurmatli Shavkat Mirziyoyev (o'sha vaqtda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Prezident vazifasini bajaruvchi edilar) rasman Davlat boshqaruvi xizmatiga qaytarganlaridan so'ng Rustam aka bilan baqamti, yanada yaqinroq, hammaslak, hamjihat bo'lib ishladik.

Rustam Sobirovichning o'zi iqtisodiyot fanlari doktori bo'lgani bilan, bazaviy ilmi sharqshunosligi va talabalikdan keyin arab davlatlarida tarjimonlik qilgani uchun katta hayotiy tajribaga ega edi. Arab, ingliz, rus tillarini yaxshi bilardi. Mana shu bilimlari va tajribasi Rustam Sobirovichga, ayniqsa, u O'zbekiston Prezidentining Jamoatchilik va diniy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish masalalari bo'yicha Davlat maslahatchisi lavozimiga o'tgach, yanada ish berdi.

Shu kezlarda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Toshkentning Eski shahar qismidagi Xasti Imom mavzeyida Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy-ma'rifiy majmuasini qurish ishlari boshlangan edi. Bu favqulodda katta ahamiyatga molik madaniy-ma'rifiy obyekt bo'lib, O'zbekiston tom ma'noda Islom madaniyatining VIII–IX asrlardan boshlab to shu kunlargaacha taraqqiy etib

kelayotgan jahondagi eng asosiy markazlaridan ekanini ifoda etuvchi har jihatdan mahobatli, ulugʻvor majmua edi. Bu majmuaning ilmiy-maʼrifiy konsepsiyasi, yoʻnalishlari, tarixiy qamrovlari kabi gʻoyat muhim masalalar boʻyicha masʼullik Rustam Sobirovich zimmasiga yuklandi va bu ishlarni u Respublikamiz hamda xorijdagi nufuzli tashkilotlar, obroʻli mutaxassislarni jalb etib, amalga oshira boshladi.

U olim hamda amaliyotchi mutaxassis sifatidagi katta tajribasini Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasida tashkil etilgan ilmiy markaz faoliyatini rivojlantirishda, Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish ishlarida va undan keyin davlat arbobi sifatida — Prezident maslahatchisi, Oʻzbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va Xalqaro islom akademiyasi rektori vazifalaridagi oʻta masʼuliyatli lavozimlarda ham toʻla namoyon etdi.

Rustam Sobirovich 2020-yil boshlangan koronavirus pandemiyasi davrida mamlakat miqyosidagi rahbar sifatida tashkilotchilik salohiyatini, masʼuliyatini yanada yaqqol koʻrsatib, oʻzi masʼul boʻlgan sohalarning ogʻir sinov damlarida tinch, moʻtadil bir sharoitlarda faoliyat olib borishini taʼminladi. Oʻzini ayamadi, jonbozlik koʻrsatdi...

Taassufki, kasallik Rustam akani ham oʻz domiga tortdi. Ogʻir betob paytlarida hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich barcha imkoniyatlarni yaratib, bizlarni ham u kishining holidan muntazam xabar olib turishga undadilar, Rustam Sobirovichni asrab qolishga harakat qildilar, hatto Moskvadagi nufuzli klinikaga yuborib davolatish choralari koʻrdilar. Biroq shafqatsiz kasallik oʻz ishini qildi... Shunda yana hurmatli Shavkat Miromonovich dafn marosimini alohida nazoratga olishni

tayinladilar. Oʻzlari borib, oila aʼzolari, farzandlari, yaqinlariga taʼziya bildirdilar.

Rustam Sobirovich Qosimov yelkadosh, hammaslak boʻlib, halol, fidoyi, sadoqatli inson boʻlib xotiramizda qoldi. Uning qizgʻin, samarali faoliyati bugungi Yangi Oʻzbekistonimizning ulugʻvor bunyodkorlik ishlariga munosib hissa boʻlib qoʻshildi.



Shayx Abdulaziz Mansur,
O'zbekiston musulmonlari idorasi
faxriylar kengashi raisi,
Islom sivilizatsiyasi markazi
yetakchi ilmiy xodimi

HAMISHA YAXSHILIK BILAN ESLAYMIZ

Bismillahir Rohmanir Rohim.

Kamina bu aziz inson Prezidentning din ishlari bo'yicha davlat maslahatchisi lavozimida xizmat qilgan kezlari ish yuzasidan ko'p marotaba muloqotda bo'lganman, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisining o'rinbosari sifatida yig'ilishlarda birga ishtirok etib, suhbat va ma'ruzalarini tinglaganman.

Shu o'rinda xotiramda saqlanib qolgan bir holatni zikr etib o'tishni lozim topdim.

Rustam Sobirovich ahyon-ahyonda diniy xodimlar, asosan, imom-xatiblar yig'ilishida qatnashib, ma'ruza o'qir edi. Ma'ruzasida din xodimlari hozirgi sharoitda o'zlarini qanday tutishlari lozimligi, xalqaro miqyosda ro'y berayotgan voqea va hodisalarga qanday yondashish kerakligi, diniy sohada muammolarni qaysi yo'l bilan ijobiy hal etish mumkinligi borasida o'rinli fikrlarni o'rtaga tashlar, maslahat va tavsiyalarini berar edi.

Din ishlari bo'yicha davlat maslahatchisi bo'lish qanchalik mas'uliyatli vazifa ekanligi kamina hayotida ham tajribadan o'tgan. Ya'ni diniy sohada qanday muammolar bor, ularni bartaraf etish uchun nima qilish, qanday chora-tadbirlarni qo'llash kerak — bu borada davlat rahbariga kerakli maslahat va takliflarni o'z vaqtida yetka-

zib turish uchun qanchalik bilim, tajriba va kuch-g'ayrat talab etilishini boshiga tushganlar yaxshi biladi, albatta. Xususan, din bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, diniy tashkilotlarning muammolarini ijobiy hal qilishda davlat rahbariyati bilan hamkorlikda ishlash kabi vazifalarni ado etishda bu lavozimda xizmat qilayotgan inson tinimsiz izlanishi, o'zining bor bilimi va hayotiy tajribasini ishga solishiga to'g'ri keladi.

Rustam Sobirovich bu vazifalarni ko'ngildagidek ado etish uchun qanchalik ter to'kkani, fidoyilik namunasini ko'rsatganiga ko'p bor guvoh bo'lganmiz.

Ish o'z yo'liga, Rustam Sobirovich hayotda ham talabchan, ezgulik yo'lida sobit, yaxshi odam edi. U kishini yaqindan tanigan-bilgan insonlar shogirdparvarligi, yosh tolibi ilmlarga g'amxo'r va mehribon inson bo'lganini yaxshi eslaydilar. Darhaqiqat, Rustam aka ilm ahlini nihoyatda qadrlar, hurmatini joyiga qo'yar edi.

Bir kuni juda keksayib qolgan onayi mehribonlari betob ekanligini aytib, kaminani birga ziyorat qilib kelishga taklif qildi. Men rozi bo'ldim, xonadonlariga borib onaxon ziyoratiga kirdik. Ziyorat asnosida volidayi muhtaramalariga meni tanishtirib, so'ngra mendan onaxonga Qur'on oyatlaridan o'qib dam solib qo'yishimni iltimos qildi. Men iltimosni bajarib, ahli xonadon duosini oldim. Ana o'sha ziyorat va ularning menga bo'lgan izzat-hurmati, samimiy muomalalarini eslaganda hanuz ko'nglim yorishib ketadi.

Rustam Sobirovichning mo'tabar onasiga qilgan tavoze va xushmuomalasi har qanday farzand uchun o'rnak va namunadir.

Mana shunday ezgu fazilatlar bilan davlat va jamoat arbobi, yetuk olim, ustoz Rustam Qosimov xotirasi doimo qalbimizda yashaydi, deb ishonaman.

Muftiy Shayx Nuriddin Xoliqnazar,
O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi,
Xalqaro musulmon ulamolari kengashi,
Musulmon donishmandlar kengashi,
Islom olami uyushmasi Oliy Kengashi
va Islomiy fiqh akademiyasi a'zosi

VATAN VA DIN XIZMATIDA

Bismillahir Rohmanir Rohim.

Alloh taologa bitmas-tuganmas hamd-u sanolar bo'lsin.

Payg'ambarimizga mukammal salavot-u salomlar bo'lsin.

Har bir qalbi uyg'oq ziyoli inson o'zi e'tiqod qiladigan dini va o'sha xalqning urf-odatlarini keng yoyishga, tug'ilib o'sgan ona Vatani rivoji va millatdoshlarini ilm-u ma'rifatli qilishga bor kuch-g'ayrati, bilim-malakasi va butun umrini baxshida etadi.

Shu ma'noda, xalqimizning yetuk farzandi, taniqli davlat va jamoat arbobi, yoshlarning mehribon ustози Rustam Sobirovich Qosimov ana shunday fazilatlarni o'zida jamlagan inson edi. U kishi salkam 50 yillik mehnat faoliyati davomida doimo elimiz va Vatanimiz manfaatini ko'zlab mehnat qildi.

Yaxshi inson qanday bo'lishi haqidagi savolga Hazrati Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: **“Umri uzun va amallari chiroyli bo'lgan kishidir”**, deb javob bergan edilar (*Imom Termiziy rivoyati*). Rustam akaning ham uzoq yillik samarali faoliyati davomida qancha-qancha xayrli ishlarga bosh bo'lgani u kishining asl insoniy fazilatlaridan darak beradi.

Rustam Qosimov katta tashkilotchilik qobiliyatiga ega edi. Xususan, mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillarida mas'uliyatli vazifalarda sidqidildan samarali faoliyat yuritdi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasini zamon talablari asosida rivojlantirishga bor kuch va imkoniyatini safarbar etib, malakali kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo'shdi.

U kishining mazkur mas'uliyatli vazifalarda qanchalab insonlar mushkulini oson qilgani, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlagani, hamkasb va shogirdlariga maslahat va nasihatlarini ayamagani e'tiborga molik. Bunday sifat egasi haqida hazrati Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: **“Kim bir mo'minning dunyo g'amlaridan birini yengillatsa, Alloh taolo uning dunyo va oxirat g'amlarini yengillatadi. Kim bir mo'minning qiyinchiligini osonlashtirsa, Alloh taolo o'sha insonning dunyo va oxiratta mushkulini oson qiladi”**, deya marhamat qilganlar (*Imom Muslim rivoyati*).

Butun hayotini el-yurtga xizmat qilishga bag'ishlagan fidoyi rahbar jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonlarida faol ishtirok etdi. Shu ma'noda Rustam akaning jonkuyarligi, ko'pchilikka ma'lum va mashhur bo'lgan fazilati, ya'ni kunni tunga ulab, hatto dam olish kunlari va ta'til paytlarini ham o'z xizmat vazifasiga baxshida etgani, bo'sh vaqtdan unumli foydalangan holda, zimmasidagi mas'uliyatli yumushlarni sidqidildan bajarish va o'z ustida ishlashga doimo intilgani bunga yorqin misol bo'la oladi.

Umrining so'nggi yillarida Prezidentimiz yonlarida maslahatchi va bir vaqtning o'zida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori lavozimlarida samarali ishlab, yurtimizda millatlararo do'stlik va hamjihatlikni

mustahkamlash, diniy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, rivojlantirish va yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda o'zining boy bilim va tajribasi, yuksak salohiyatini safarbar etdi.

Mazkur davrda yurtimizda diniy-ma'rifiy sohada ulkan islohotlar amalga oshirildi. Bir qator qaror va farmoyishlar e'lon qilindi, "Vaqf" xayriya jamoat fondi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabi singari muassasalar tashkil etildi. Hozirgi kunda mazkur dargohlar yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga buyuk ajdodlar merosini o'rganish va ularni yosh avlodga yetkazish hamda musulmon dunyosiga tarannum etishda jadal faoliyat olib bormoqda.

Mazkur ishlarning qanchalik ahamiyatli ekani, uning ajr-u mukofoti haqida xushxabar beruvchi hadisi shariflar bor. Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: **"Kim musulmon birodari bilan sulton o'rtasida vosita bo'lib, unga biror yaxshilik yetishi yoki mashaqqati oson bo'lishiga sababchi bo'lsa, Alloh taolo qadamlar toyiladigan kunda uning sirot ko'prigidan o'tishiga yordamchi bo'ladi"**, — dedilar" (*Abu Tohir Maqdisiy rivoyati*).

Yarim asr Vatan va din xizmatida bo'lish — katta sharaf, ulkan baxt va saodatdir. Ana shunday baxt va saodatni qo'lga kiritgan taniqli olim, davlat va jamoat arbobi, mohir pedagog Rustam Qosimovning ortda qoldirgan sadaqayi joriyalari va xayrli ishlarining ajr-u mukofoti esa u kishining amal daftariga qo'shilishda davom etmoqda, inshoalloh.

Alloh taolo ustoz-murabbiy, rahbar va jamoat arbobining bu dunyoda qilgan barcha xayrli ishlariga ajr-u savoblarni ko'paytirib bersin. Oxiratlarini obod qilib, o'z mag'firatiga olsin, iymonlarini salomat qilsin, solih amallarini o'zlariga hamroh etsin.



Mamatqul Hazratqulov,
yozuvchi

JON DO‘ST

Aslida hayot inson uchun sinov. Boz ustiga, gohida muayyan shahar yoki qishloq, mamlakat, hatto butun olam ahli boshiga turli darajadagi sinovlar tushib turadi. Men shunday ofatlardan ikkitasining guvohi bo‘lganman. Birinchisi — 1966-yil 26-aprelda Toshkentda ro‘y bergan kuchli zilzila. Erta tongda sodir bo‘lgan bu tabiiy ofat oqibatida yuzlab odamlar halok bo‘ldi, jarohat olganlar, nogiron bo‘lib qolganlarning hisobi yo‘q. Xalqimizning atoqli shoiri G‘afur G‘ulom, sal keyinroq shoir Maqsud Shayxzoda, undan so‘ng buyuk adib Oybek ham shu ofat ta‘sirida hayotdan erta ko‘z yumdilar. Eng dahshatlisi, o‘sha dastlabki zilziladan keyin bir necha kun mobaynida har kuni turli darajadagi o‘nlab yer qimirlashlari davom etdi. Odamlar uyiga kirishga qo‘rqib qoldi.

Ikkinchisi — “Covid-19” balosidir. 2019-yil Xitoyda tarqalgan bu kasallik Yer yuzining deyarli barcha qit‘a va mamlakatlarini qamrab oldi. Afsuski, bu ofat yurtimizni ham chetlab o‘tmadi. Katta-yu kichik, ayol-u erkak — barchani uyga qamadi. Uyga qamabgina qo‘ymadi, o‘z domiga tortdi. Koronavirusdan xalqimizning yuzlab farzandlari vafot etdi. Ular orasida yurtimizning taniqli kishilari ham bor edi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi Musa Yerniyazov, Buxoro viloyati hokimi O‘ktam Barnoyev, Buxoro shahri hokimi Karim Kamolov, Moliya vazirining o‘rinbosari Yorqin Tursunov singari davlat arboblari, O‘zbekiston xalq

artisti Mirza Azizov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Fathulla Mas‘udov kabi iste‘dodli san‘atkorlar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, “O‘zbekiston ovozi” gazetasi bosh muharriri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Safar Ostons, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoir, O‘zbekiston jurnalistlari uyushmasi raisi Sa‘dulla Hakimov, O‘zbekiston Musulmonlari idorasi raisi, muftiy Usmonxon Alimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Yoqubjon Xo‘jamberdiyev singari el ardog‘idagi kishilar ham ana shu ofat qurboni bo‘ldilar. Bular biz bilganlarimiz va yodimizga kelganlari.

Bo‘lmasa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shaxsan rahbarligi va nazorati ostida pandemiyadan xalqimizni betalafot olib chiqish, bu kasallikni iloji boricha tezroq bartaraf etish uchun nima ishlar qilinmadi deysiz. O‘nlab shifoxonalar bu mudhish dardni davolashga moslashtirildi, ba‘zi ijtimoiy obyektlar shifoxonaga aylantirildi, yangi kasalxonalar qurildi, turli davlatlardan vaksinalar keltirilib, aholining asosiy qismi emlandi, aksariyat ishxonalar onlayn rejimga o‘tkazildi, ommaviy ko‘ngilochar tadbirlar, konsert-tomoshalar, kino va spektakllar namoyishi, to‘ylar, hatto juma namozlari to‘xtatildi... Xullas, barcha zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi. Afsuski, shularga qaramasdan, pandemiya qurbonlarsiz o‘tmadi.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Rustam Qosimov ham shu kasallik ortidan hayotni erta tark etdi.

Rustam Sobirovich vafot etganini eshitib ko‘pchilik, jumladan, kamina ham hang-mang bo‘lib qoldik. Sog‘lom, orasta, yigitlarday epchil, chaqqon, doimo o‘ziga qarab yuradigan bu insonning vafoti u kishini yaqindan bilgan,

taniganlar uchun saratonda momaqaldiroq gulduraganday tuyuldi. To'g'ri, kimning qachon, nimadan vafot etishini hech kim bilmaydi. Ajal yosh ham, vaqt ham tanlamaydi. O'limning sir-sinoati faqat Allohga ayon, xolos. Biroq yoshi bir joyga borgan yoxud surunkali kasallikdan aziyat chekib yurgan bo'lsa, ha, endi, deysiz... Odam o'ziga taskin qidiradi-da...

Insonning kimligini, asl qiyofasini, ichki dunyosini bilish uchun mansab yoki boylik berish kerak, degan gap to'g'ri aytilgan. Ba'zi kishilar kichkina bir lavozimga o'tirsa yoki cho'ntagiga ozgina pul tushsa bosar-tusarini bilmay qoladi, begonalar u yoqda tursin, o'zining yaqinlarini ham oyoq uchida ko'rsata boshlaydi. Tom ma'nodagi madaniyatli, ilmi, farosatli insonlar har qanday holatda ham o'zligini, odamgarchiligini yo'qotmaydi, sodda qilib aytganda, o'zgarmaydi. Rustam Qosimov ana shu toifaga mansub edi. U kishi turli lavozimlarda ishladi: vazir o'rinbosari, vazir, Bosh vazir o'rinbosari, Prezident maslahatchisi kabi juda mas'uliyatli vazifalarda faoliyat olib bordi. Ana shu yillarda xizmat yuzasidan tez-tez uchrashar, suhbatlashar edik. Ayniqsa, Rustam aka Bosh vazir o'rinbosari lavozimida ishlagan kezlari kunda-kunora muloqotda bo'lardik. Sababi, u kishi ijtimoiy soha bilan shug'ullanar, kamina O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori edim. Ijtimoiy sohaning tarmoqlari keng, muammolari undan-da ko'p. Shularning barchasini vazminlik, aql-idrok bilan boshqarar edi. Yig'ilishlarni nihoyatda madaniyat va odob bilan olib borar edi. Biron-bir rahbarga, vazirlik yoki idora xodimiga, katta-kichikligi, mavqeyidan qat'i nazar, qo'pol muomala, baqir-chaqir qilganini ko'rmaganman. Har qanday og'ir, murakkab masalani ham bosiqlik bilan hal etishga intilar edi. Qaysi soha haqida so'z ketmasin, aniq misollar, faktlar bilan

qisqa, lo'nda gapirar va shu soha mutasaddilaridan aniq javob talab qilar edi. Shu bois u kishining so'zlariga, tanbeh va tanqidlariga hech kim e'tiroz bildirmas, ularni malol olmas edi.

Yana bir xislati yodimda qolgan: sof adabiy tilda gapirardi, deyarli sheva ishlatmas edi. O'ylaymanki, bu rahbarlar uchun, ayniqsa, yuqori lavozimda o'tirgan shaxslar uchun juda muhim va ahamiyati katta. U kishi kibrdan, manmanlikdan xoli, xo'jako'rsinga ish qilmas, tabiatan kamtar inson edi. Men falonchiman, sen kim bo'libsan, degan qarash Rustam akaga mutlaqo yot edi. O'zidan yoshi kattalarga ham, kichiklarga ham aksariyat hollarda "aka", deb murojaat qilardi. Hazil-huzulga moyil, quvnoq, dilkash tabiatli inson edi.

Odamzodning hayotida turli holatlar bo'ladi: lavozim zinalaridan goh ko'tariladi, goho tushadi. Dunyo bamisoli charxpalak. Rustam Qosimov ham bu charxpalak "marhamatidan" bebahra qolmadi. Ma'lum muddat "ko'zdan nariroqda" bo'lishiga to'g'ri keldi. O'shanda ham nolimadi, zorlanmadi, kayfiyatini buzib, tushkunlikka tushmadi, indamay ishini qilib yurdi, hazil-huzulini kanda qilmadi. O'sha kezlari biz yonma-yon binolarda ishlardik. Bir gal suhbatlashib qolganimizda kulib hazillashgani yodimda: "Toshkent gullari"ning bu yonida men, u yonida siz... O'rtamizda, har holda, gul-ku, chaqir tikan bo'lishidan Xudo asrasin".

Rustam Qosimovning iste'dodini, tashkilotchilik qobiliyatini, ko'ngli toza ekanini bilganlar u kishini chetga surib qo'ymadi. Va bu ish to'g'ri bo'lganini vaqt ko'rsatdi. Vaholanki, birovning oyog'i sal toysa nafaqat aloqani uzadigan, orqasidan loy chaplaydigan, tuhmat toshini otadiganlar ko'payib qoladi. Bunday yaramas ishlarni o'sha odamning oyog'i uzangida paytida uning soyasiga

salom berib yurganlar qiladi ko'proq. Shu ma'noda charxpalak dunyo "marhamatidan" bahramand bo'lishda ham o'ziga xos hikmat bor. Bu — kim haqiqiy do'st-u kim yuzaki do'st ekanini bilishning eng sinalgan va ishonarli usulidir. Zero, donishmandlar aytganidek, uch xil do'st bo'ladi: do'sti noni, do'sti zaboni, do'sti joni. Rustam Qosimov ham o'sha kezlari do'stlarining qaysi biri qaysi toifaga mansub ekanini yanada aniqroq bilib oldi, desak, xato bo'lmas... Mening bilishimcha, Rustam Qosimovning jon do'stlari ko'p edi. Zotan, o'zi ham do'stlaridan, ustozlari va shogirdlaridan jonini ham ayamaydigan fidoyi, sadoqatli inson edi-da...

Rustam Qosimov umrining oxirgi yillarida Prezident maslahatchisi lavozimida faoliyat olib bordi. Juda murakkab soha — jamoatchilik bilan aloqalar va din ishlariga mas'ul edi.

Ushbu xotiralarni yozyapman-u, Rustam aka vafot etgan kun ko'z o'ngimda namoyon bo'layotir. Ramazon oyi, juma kuni edi. Ikki do'stimiz bilan juma namozini o'qib, u kishining janozasiga bordik. Janoza uylarida o'qildi. O'sha vaqtdagi muftiy Usmonxon Alimov o'qidilar janozani. Qaytar ekanmiz, o'yladim: "Ramazon oyining juma kunida vafot etganlarida ham bir hikmat bormikan... Alloh bilguchidir. Joylarini firdavs jannatlaridan qilsin..."

Rustam Qosimov beg'ubor, hammaga yaxshilik istaydigan, nainki istaydigan, iloji boricha, yaxshilik qiladigan marhamatli, saxovatli inson, bag'rikeng rahbar sifatida barchamizning qalbimizda o'chmas iz qoldirdi.



Xayriddin Sulton,
yozuvchi

ESLASAM, KO'NGLIM YORISHUR

Mashhur adib va tarjimon, ustozimiz Nosir Fozilovning umr shomida yaratgan xotiralar kitobi "Eslasang, ko'ngling yorishur" deb atalar edi. Adabiyot va san'atimizning nurli siymolarini yod etishga bag'ishlangan ushbu to'plamni men ham katta e'tibor va qiziqish bilan mutolaa qilgan, ayniqsa, uning o'ziga xos ta'sirli nomi qalbimda o'chmas iz qoldirgan edi.

Bugun taniqli davlat arbobi, sharqshunos olim, mohir pedagog va diplomat Rustam Sobirovich Qosimov haqidagi xotira so'zlarini bitar ekanman, yuqorida eslangan kitob nomidan ilhomlanib, yodnomaga shunday sarlavha qo'yishni joiz deb bildim.

Darhaqiqat, rahmatli Rustam aka el-yurt tinchligi va ravnaqi yo'lida o'zini ayamaskan, fidokorona xizmat qilgan samimiy va kamtarin inson, sadoqatli do'st, mehribon ustoz sifatida u kishini tanigan-bilgan barcha odamlarning yuragidan chuqur o'rin egallagan edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat boshqaruviga bu sohada muayyan tajribaga ega eski partiya va sovet xodimlari bilan birga ilmiy va ijodiy ziyolilarning ko'plab yosh namoyandalari ham jalb etildi. Kasb-kori, millati va tili, bilim va qobiliyat darajasida ma'lum bir tafovutlar bo'lsa-da, bu yosh kadrlarning barchasini milliy istiqloлга sadoqat, dunyo xaritasida yangi paydo bo'lgan mustaqil va suveren O'zbekiston Respublikasiga sidqidildan xizmat

qilishdek yuksak orzu-intilish birlashtirib turardi. Ana shunday insonlar orasida o'sha paytda Toshkent davlat universitetining sharqshunoslik fakultetida o'qituvchi, dotsent va dekan, keyinchalik esa Toshkent davlat texnika universitetida biznesni boshqarish fakulteti dekani lavozimlarida ishlagan Rustam Qosimov ham bor edi.

Garchi biz u kishi bilan universitetda bir davrda (1973–78-yillarda) tahsil olgan bo'lsak ham, fakultetlarimiz boshqa-boshqa bo'lgani uchun o'zaro tanish emas edik. Men Rustam Sobirovichni o'zim davlat xizmatiga kelgan 1993-yildan taniy boshladim.

Mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti uchun yangi avlod kadrlari — mustaqil fikrlaydigan, xorijiy tillar va zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan xodimlarga katta ehtiyoj mavjud edi. Shu sababli ikkinchi mutaxassisligiga ko'ra iqtisodchi olim bo'lgan Rustam Qosimov 1997–2000-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida yangi tashkil etilgan Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasini mudiri, fakultet dekani lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Bunda u kishining 1976–1981-yillar mobaynida Iroq va Suriya kabi xorijiy mamlakatlarda xizmat qilib, tajriba orttirgani ham inobatga olingani tabiiy.

2000-yillarga kelib, Rustam Qosimovning faoliyatida yangi davr boshlandi. Bu paytda u Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari, Bank-moliya akademiyasi rektori, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori, Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, Bosh vazir o'rinbosari lavozimlarida qizg'in va samarali mehnat qildi. Bir so'z bilan aytganda, yangitdan oyoqqa qo'yish, tartibga solish lozim bo'lgan eng og'ir sohalarga "tashlandi".

Mening u kishi to'g'risidagi ko'plab xotiralarim ayni shu davrga to'g'ri keladi. Xizmat taqozosi tufayli bu ajoyib inson bilan juda dolzarb va qaynoq jarayonlar, loyihalarda birga ishtirok etish nasib etdi. Milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, madaniyat va san'at, ta'lim va tarbiya sohalarini rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, Mustaqillik, Konstitutsiya, Navro'z bayramlari va boshqa ommaviy davlat tadbirlarini, "Umid nihollari", "Barkamol avlod", Universiada kabi respublika sport musobaqalarini, "Sharq taronalari" singari xalqaro festivallarni yuqori saviyada o'tkazish borasida yelkama-yelka mehnat qildik.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ish jarayonida goho o'ta murakkab masalalar, ziddiyatli holatlar ham vujudga kelishi sir emas. Shunday vaziyatlarda Rustam Sobirovich ularning barchasini tabiatiga xos bo'lgan yuksak madaniyat, vazminlik va bosiqlik, xush muomala bilan hal etishga intilar edi. U kishining kimgadir baland tovush bilan qo'pol munosabatda bo'lgani, qo'l ostidagi xodimlarning sha'nini yerga uradigan xatti-harakatlarga yo'l qo'rganini ko'rgan emasman. Har qanday keskin bahs-munozarada ham hamsuhbatlari va muxoliflariga qarab murojaat qilganida — ular talaba yoki akademikmi, yuqori martabali amaldor yoki oddiy odammi — "agar ijozat etsangiz", deb so'z boshlar va shu fazilati bilan ko'ngillarni o'ziga rom qilar edi.

Ayni vaqtda u xalq va davlat manfaatiga daxldor bo'lgan eng muhim masalalarda hamisha adolat va qonun tarafida, prinsipial pozitsiyada turar edi.

Men bu insonning intellektual va ma'naviy salohiyati nihoyatda keng ekaniga, nafaqat milliy, balki jahon madaniyati va tarixini, falsafa va estetika, dinlar va millatlararo munosabatlar masalalarini chuqur bilishiga tan berardim.

Rustam aka mamlakatimiz va xorijda boʻlib oʻtadigan turli uchrashuv va anjumanlar, xalqaro konferensiya va festivallarda ingliz, arab va rus tillarida erkin muloqot qilish, maʼruzalar oʻqish iqtidoriga ega, muxtasar aytganda, har tomonlama yetuk oʻzbek ziyolisining yorqin timsoli edi.

Shu oʻrinda bir misol keltirmoqchiman. Maʼlumki, mumtoz sheʼriyatimizda aruz vazni yetakchi oʻrin egallaydi. Bu adabiy janr dastlab Arabiston yarimorolida paydo boʻlib, yurtimizga islom dini bilan birga kirib kelganini bilsak-da, uning yaratilish tarixi koʻpchilikka qorongʻi. Aruzning turli vazn oʻlchovlari karvonda odimlab borayotgan tuyalarning qadam tashlashiga hamohang ekani, aynan shu holat qadimgi sahro shoirlariga ilhom berib, ijodiga kuchli taʼsir oʻtkazgani toʻgʻrisida men birinchi marta Rustam akadan eshitgan edim.

Oʻrni kelganida bu fidoyi inson bilan koʻp yillar hamkorlikda ishlab, uning tavallud ayyomini biror marta birgalikda nishonlash nasib qilmaganini bugun afsuslanib eslayman. Chunki u kishining tugʻilgan kuni 30-avgust sanasida edi. Bu paytda davlat xizmatchilari, ayniqsa, yuqori lavozimdagi masʼul xodimlar uchun eng dolzarb palla boshlanar — barchamiz Mustaqillik bayramiga qizgʻin tayyorgarlik ishlari bilan band boʻlardik. Shu bois Rustam Qosimovning tugʻilgan kuni, koʻpincha, bayram boʻladigan maydonda yoki viloyatlarda birov bilib, birov bilmay oʻtib ketar edi. Mana shu fakt ham bu shaxsning hayot yoʻli istiqbolimiz tarixi bilan chambarchas bogʻliq holda kechganini koʻrsatadi.

Albatta, Rustam akaning hayotda munosib oʻrin topishi, mashaqqatli va samarali mehnati bilan el-yurt hurmatini qozonishida u tugʻilib voyaga yetgan ziyoli oilaning, xonadondagi maʼnaviy muhitning katta oʻrni bor. Otasi — uzoq yillar Toshkent xalq xoʻjaligi institutida

domlalik qilgan taniqli olim Sobir Qosimov oʻz davridagi qiyinchiliklarga qaramasdan, besh nafar farzandining barchasiga toʻgʻri taʼlim va tarbiya bergan moʻtabar zot edi. Bolalarining oliy maʼlumot olishi, ilmiy faoliyat bilan shugʻullanib, yetuk mutaxassis boʻlib yetishishida padari buzrukvorining oʻrni beqiyos. Rustam akaning oqila onasi Muhabbat Qosimova esa bu borada oila boshligʻiga hamisha tayanch boʻlib kelganini koʻpchilik yaxshi biladi.

Rustam Qosimovning ogʻa-inilari, opa-singillari ham yurtimiz ilm-fani va pedagogikasini ravnaq toptirish borasida jonbozlik koʻrsatib, xizmat qilgan insonlardir.

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, madaniy-gumanitar sohalarni taraqqiy ettirishga butun borligʻini bagʻishlagan Rustam Qosimov taniqli ilm-fan, madaniyat va adabiyot vakillari bilan yaqin doʻst edi. Ularning isteʼdodi va ijodini hamisha qadrlar, qoʻlidan kelganicha qoʻllab-quvvatlar edi. U kishining Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Bahodir Yoʻldoshev, Tursunali Qoʻziyev, Shoazim Minovarov, Abduhoshim Ismoilov, Ahmadjon Meliboyev singari koʻplab ijodkorlar bilan doʻstona munosabatda boʻlgani hammamizga yaxshi maʼlum.

Ayniqsa, Shoislom Shomuhamedov, Alibek Rustamov, Aziz Qayumov kabi ustozlarining nomlarini doimo hurmat-ehtirom bilan tilga olar edi. Rustam akaning bevosita tashabbusi bilan Oʻzbekiston Qahramoni, navoiyshunos olimi Suyima Gʻaniyevaning hayoti va ijodiy faoliyatiga bagʻishlangan “Yoʻl” nomli mazmundor, taʼsirchan hujjatli film yaratilganini yaxshi eslayman. Taniqli shoir va publitsist Eshqobil Shukur boshchiligidagi ijodiy guruh tomonidan suratga olingan, qahramonning bedor qalb dunyosi teran ochib berilgan ushbu film ham olimi opamizdan, ham Rustam Sobirovichdan goʻzal bir esdalik boʻlib qoldi.

Suyima opaning keksalik va bemorlik chog'larida Rustam Qosimov u kishining holidan doimo xabar olib, yordam va ko'mak ko'rsatib turdi. Dafn marosimi va ma'rakalariga bosh-qosh bo'ldi.

Do'stimizning ilm va ijod ahliga, madadga muhtoj turli insonlarga e'tibor va g'amxo'rliqi haqida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Hammamizga ma'lumki, insonning hayot yo'li doim ham ravon va silliq kechmaydi, unda har xil kutilmagan, past-baland holatlar ham uchrab turadi. Rustam Qosimov ham faoliyati davomida shu kabi sinovlarga duch keldi. U 2011-yildan kasaba uyushmalari tizimida faoliyat ko'rsatdi. Lekin o'zining mustahkam irodasi, insoniy fazilatlarini sababli tushkunlikka tushmadi, avvalgidek g'ayrat-shijoat bilan xizmat qilishda davom etdi.

Mana shunday murakkab davrda muhtaram Prezidentimiz, o'sha paytda Bosh vazir lavozimida ishlagan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Rustam Qosimovni hamisha qo'llab-quvvatlab turdi. Ijtimoiy jarayonlardan chetda qolishiga yo'l qo'ymadi. Hukumat rahbarining vakili sifatida markazda va joylarda turli topshiriqlarni bajarish, jumladan, ommaviy tadbirlarni o'tkazish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirishga safarbar qilib, fikr-mulohazalari, tajribasini namoyon etishi uchun imkoniyat yaratib berdi.

2016-yil oxirida Rustam Sobirovich yana qizg'in ijtimoiy faoliyatga qaytdi. Mamlakatimizda boshlangan keng ko'lamli islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Zero, Yangi O'zbekistonni barpo etish bilan bog'liq ezgu va ulug'vor maqsadlar u kabi fidoyi, bilimdon va tashabbuskor kadrlar salohiyatidan unumli foydalanish, ularga keng yo'l ochib berishni taqozo etardi. Shu bois Rustam Qosimov Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri etib

tayinlangani to'g'risidagi xabar ko'pchilikni quvontirdi. Keyingi yillarda esa Rustam aka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat maslahatchisining birinchi o'rinbosari, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori, Prezidentning davlat maslahatchisi, Prezidentning jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchisi — O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori kabi mas'uliyatli lavozimlarda hormay-tolmay, jo'shqin mehnat qildi.

Afsuski, 2021-yilda "Covid-19" pandemiyasi avjiga chiqqan payt u kishi ham shu mudhish kasallik bilan og'rib, ko'rilgan barcha chora-tadbirlar, tibbiy muolajalarga qaramay, 66 yoshida olamdan o'tdi. Rustam Sobirovichning vafoti barcha qavm-u qarindoshlari, do'st-u birodarlar, hamkasblari, yuzlab shogirdlari, mamlakatimiz jamoatchiligini chuqur qayg'uga soldi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev barchamizga bosh bo'lib ta'ziya marosimida ishtirok etib, Rustam akaning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik va taskin bildirar ekan, jumladan, shunday deb ta'kidladi:

"Rustam Sobirovich Qosimov timsolida biz Vatanga sadoqatli, fidoyi, aqlli, millatimizning yetuk ziyolisidan judo bo'ldik. Biz juda ko'p yillar birga ishlaganmiz, og'ir kunlarni ham boshimizdan o'tkazganmiz. Hozir ham menga eng katta yordamchi, maslahatgo'y edi. Ilohim, joylari jannatda bo'lsin. Ishlarini farzandlari davom ettirsin".

Albatta, o'lim haq. Vaqt-soati kelganida hammamiz ham bu yorug' dunyoni tark etamiz. Lekin odamning ortidan yaxshi nom, ezgu amallar, solih farzandlar, yetuk shogirdlar qoladigan bo'lsa, vafotidan keyin uning ikkinchi umri boshlanishi ham barchamizga ayon. Chunki minglab qalblarda ilm-ma'rifat va oliyjanoblik chirog'ini yoqib

ketgan Rustam akadek, eslasang ko'ngil yorishadigan insonlar xotirasi hech qachon o'chmaydi.

Shu ma'noda, xalqimizning yetuk farzandi Rustam Sobirovich Qosimovning sharaflı umr yo'li bugun ham davom etmoqda, desak, o'ylaymanki, adashmagan bo'lamiz.



Shoazim Minovarov,
tarjimon, diplomat

INSON QALBINI ANGLAR EDI

Toshkent davlat universiteti sharqshunoslik fakultetida yomon o'qiydiganlar deyarli bo'lmas edi. Aniqrog'i, u yerda yomon o'qishning iloji yo'q edi, desam, balki mubolag'a qilmasman. Negaki, fakultetda ajoyib ilmiy muhit hukm surar, talabalardan ustozlar etagini tutib, faqat va faqat yaxshi o'qish, qunt bilan o'rganish talab etilardi. Tolibi ilmlarning aksariyati uchinchi, kechi bilan to'rtinchi kursdan keyin Hindistondan tortib Marokashgacha bo'lgan hududlardagi mamlakatlarga tarjimonlikka yuborilar, bu ularning xorijiy tilni, shuningdek, o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning madaniyatini yanada puxta va chuqurroq o'zlashtirishlariga xizmat qilar edi.

Umuman, mazkur fakultetda yo'lga qo'yilgan tarjimonlik maktabi tajribasi o'rganilishga loyiq alohida mavzu bo'lib, bu haqda juda uzoq gapirish mumkin. Rustam Qosimov ana shu maktabning eng yorqin, iste'dodli va nomdor vakillaridan biri edi.

Qizig'i shundaki, dunyoda yigirmadan ziyod arab mamlakati bo'lsa, ularning har birida arab tilining o'z lahjalari mavjud. Tarjimonlikka borganlarda olti oygacha muayyan lahjaga moslashuv jarayoni kechadi. Bu, albatta, oz muddat emas, lekin boshqa iloj ham yo'q: modomiki, shu yo'lni tanlagan ekansan, sabr va matonat bilan chidashga majbursan. Bu auditoriyadagi dars va mashg'ulotlardan sezilarli darajada farq qiladi, bir tarafdan qiyin, boshqa tarafdan qiziqarli...

Aslida, biror xorijiy tilni o'rganish — agar unga chin dildan kirishgan bo'lsangiz, benihoya rohatbaxsh jarayondir.

Rustam Qosimov arab tilini ana shunday zavq-u shavq, hayajon bilan puxta o'rgangan edi.

U biror ishga kirishar ekan, uni chiroyli bajarishga intilar, o'z burchi va vazifasiga hamisha mas'uliyat bilan yondashardi. Bu holatni qalamkash do'stlarimiz "o'z ishiga ijodiy yondashish" deb baholaydilar.

Esimda, bir gal u kishidan, siz Iroqda ishlagansiz, u yerning lahjasini o'zlashtirish qanday bo'lgan edi, deb so'raganimda buning uchun badaviylar chodirida ikki hafta yashaganini, shu bois mahalliy lahjaga moslashish jarayoni o'zi uchun nisbatan tezroq va osonroq kechganini aytgan edi.

Bizning roman-german filologiyasi fakultetimiz sharqshunoslik bilan bir binoda joylashgan edi. Men o'qishni bitirib, o'zim o'qigan fakultetda o'qituvchilik qila boshlaganman, qo'shni bo'lganimiz tufayli sharqshunos talabalar bilan ham har kuni ko'rishib turardik.

Ular orasida Rustam Qosimov bilimi va iqtidori, shuningdek, ajoyib insoniy fazilatlari bilan tengdoshlari orasida alohida hurmat qozongan edi.

Keyinchalik, oradan ancha yillar o'tib, yo'llarimiz yana tutashdi. 90-yillarning ikkinchi yarmidan Vazirlar Mahkamasi tizimida ishlay boshladik. Boshqa-boshqa yo'nalishlarda bo'lsak ham, tez-tez gaplashib turardik, bir-birimizdan maslahat so'rardik.

Rustam Sobirovich vazir o'rinbosari, Bosh vazir o'rinbosari yoxud Prezident maslahatchisi bo'ladimi, rektor yo kafedra mudirimi, qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, hamisha fidoyilik namunasini ko'rsatdi, el-yurt manfaati yo'lida kuch-g'ayratini ayamadi.

To'g'ri, u talabchan, kezi kelganda qattiqqo'l ham edi. Ammo ishda talablarni u, avvalo, o'ziga nisbatan qo'yar, kezi kelsa, o'z kamchiliklarini ham tan olishni bilardi.

Yaratgan egam har bir bandasiga o'ziga xos fazilat va qobiliyat ato etadi. Rustam Sobirovichda tug'ma rahbarlik salohiyati bor edi. Bu qobiliyatga yaxshi insoniy fazilatlar qo'shib, shaxsini bezab turardi. U kishining inson qalbini anglashi, ziyrakligiga ko'p marta guvoh bo'lganman.

Mana bir misol. Bosh vazir o'rinbosari bo'lib ishlab yurgan damlari bir kuni kabinetidagi kichik yig'ilishdan keyin: "Shoazim aka, siz qoling", dedi. Boshqalar chiqib ketgach: "Menga aytadigan biror gapingiz yo'qmi?" — deb so'radi kutilmaganda. "Yo'q, hammasi joyida, tinchlik...", dedim-u, lekin to'g'risini aytganda, o'sha kezlari rahmatli akam og'ir dardga chalingan, nima qilishni, bu haqda kimga aytishni bilmay siqilib yurgan edim. U ko'zimga sinovchan tikildi.

— Yo'q, aka, sezib turibman, ichingizda aytolmayotgan bir gapingiz borga o'xshaydi, — dedi. — Ayting, nima gap, nimadan tashvishlanyapsiz?

"Yo, tavba, — dedim ichimda, — bu odam bunchalar ziyrak bo'lmasa yoki dardimni o'zim ham bilmasdan, sezdirib qo'ydimmikan. Yo'q, bu haqda birovga churq etmagan edim...". Noiloj, dilimni yordim. Meni diqqat bilan eshitdi, keyin: "Hech kuyinmang, aka, hammasi yaxshi bo'ladi", deya ancha ko'nglimni ko'tardi, yordam berishga va'da berdi. So'zining ustidan chiqib, oilamizga, akamga ko'p yordam ko'rsatdi...

Bugun, oradan ko'p yillar o'tgan bo'lsa-da, o'sha suhbatimiz, Rustam Qosimovning oilamizga qilgan yaxshiligini biz, qarindoshlar haligacha minnatdorlik bilan eslaymiz.

Vafotidan oldinroq, negadir, bir odat chiqargandi. Deyarli har kuni, o'zining hisobiga ko'ra, ishimni tugatib, uyga qaytadigan vaqtim bo'lganda qo'ng'iroq qilardi. "Qalaysiz, salomatmisiz, ishlaringiz yaxshimi? Xo'p, ishdamisiz, yo'ldamisiz?" derdi rahmatli.

"Yo'ldaman" yoki "ishdaman", desam, "Ha, yaxshi, yaxshi. Bo'lmasa, eshiting", deya albatta yangi bir g'oya yoki foydali ma'lumotdan xabardor qilardi. Sezardimki, asosiysi bu emas, asosiysi — bir yaqin birodari bilan hol-ahvol so'rashish, g'oyibona bo'lsa-da, diydorlashish edi.

Rustam Sobirovich xotiramda talabchan, lekin adolatli, ayni paytda har tomonlama bilimdon, inson qalbini, ruhiyatini yaxshi anglaydigan ziyrak, tom ma'nodagi ziyoli inson sifatida saqlanib qoladi.

Alloh rahmatiga olsin!



Rustam Kalonov,
*Toshkent shahar nuroniylar
kengashi raisi, senator*

YURAKLARNI ZABT ETISH BAXTI

Ba'zi insonlarni bilish uchun ular bilan yuzma-yuz ko'rishib, suhbatlashish shart emas. Qalblar o'zi bir-birini taniydi.

Rahmatli Rustam Sobirovich Qosimov bilan munosabatlarimiz dastlab shunday bo'lgan. Aniqrog'i, biz 2000-yillarning boshida tanishgan bo'lsak-da, ancha avval u kishi to'g'risida ko'p yaxshi gaplarni eshitgan, qolaversa, akasi — texnika fanlari doktori, professor Sodiq Sobirovichni yaqindan bilar edim.

Aka-ukalar timsolida Qosimovlar oilasiga hurmatim baland edi. Axir, madaniyatli, ziyoli, ilmi insonlarga kim havas qilmaydi, deysiz.

Rustam Sobirovich yetuk olim, o'z kasbining ustasi edi. Buning ustiga, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, yetakchilik xususiyatlari ham bo'lib, bu omil ko'p yillar davomida mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat ko'rsatishida muhim ahamiyat kasb etgan edi.

U kishi o'ziga berilgan vazifa va topshiriqlarni shunchaki bajarib ketmas, avvalambor, masalaning mohiyatini chuqur o'rganib, muammoning tagiga yetib, keyin ishga kirishardi. Shoshilmasdi, lekin ishni orqaga ham surib qo'ymas, barchasini o'z vaqtida, puxta ado etardi.

Istiqlol yillari O'zbekiston oliy ta'lim tizimini shakllantirish, sohada islohotlarni amalga oshirishda ko'p xizmatlari singgan edi.

Rustam Qosimov sharqshunoslik va dinshunoslik ilmlarini puxta bilgani bois jamiyatda vijdon erkinligini ta'minlash, islom dinining insonparvarlik fazilatlarini keng targ'ib etish yo'lida jonbozlik ko'rsatar, zararli oqimlar ta'siriga tushib qolgan yoshlarni sog'lom hayotga qaytarish uchun doimo qayg'urardi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan diniy-ma'rifiy sohada katta ishlar qilindi, xususan, kishilarni muqaddas islom dinining asl mohiyatidan xabardor etish, jaholatga qarshi ma'rifat asosida kurash olib borishga alohida e'tibor qaratildi. Rustam Sobirovich tajribali diniy ulamolar, ilm ahli, nuroniylar, mahalla faollari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari bilan birgalikda davlat rahbarining bu boradagi har bir topshirig'ini sidqidildan bajardi.

Natijada qisqa muddat ichida yuzlab adashgan yurtdoshlarimiz to'g'ri yo'lga qaytdi.

Rustam Sobirovich xalq bilan muloqotda hamisha davlat siyosatining ma'no-mazmunini hayotiy misollar bilan uqtirib borar, bu suhbatdan so'ng katta-yu kichik barcha-barchaning — nuroniylar, mahalliy rahbarlar, mahalla, xotin-qizlar va yoshlar faollarining dunyoqarashi sezilarli darajada kengayar edi.

Ha, har kim ham ilmli bo'lishi, notiq bo'lishi, chiroyli gaplar bilan ommaning ko'nglini olishi mumkin, lekin o'zining go'zal ichki olami, madaniyati, ma'naviyati, insonlarga bo'lgan mehr-muhabbati bilan qalblarni zabt etishi oson emas. Rustam Sobirovich ana shunday baxtga erishgan benazir inson, ajoyib suhbatdosh edi. Chin ma'nodagi ziyoli bu shaxs bilan bir marta suhbatlashgan kishi unga o'zini yaqin olar, ko'nglini ochar edi. Negaki, u odamlarning tashvish-u muammolarini e'tibor bilan tinglar, ularning dardiga malham bo'lishga intilar edi.

Bugun rahmatli birodarimizning juda ko'p ibratli xislatlari, go'zal fazilatlarini xayolimdan birma-bir o'tmoqda. Yaxshi do'st, pokdil va mehribon inson, el-yurtimizning haqiqiy vatanparvar, sadoqatli farzandi edi. Alloh taolo rahmatiga olgan bo'lsin.



Zohidullo Munavvarov,
siyosiy fanlar doktori, professor

CHIN INSONLIK FAZILATI

Taniqli davlat arbobi va sharqshunos, mohir ustoz-murabbiy Rustam Qosimov bilan 1970-yillarda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning sharqshunoslik fakultetida o'qib yurgan paytlarimda tanishganman.

Hayot shunday, ba'zan bir kunda o'nlab odam bilan tanishasiz, biroq hammasi bilan ham qadrdon bo'lib ketmaysiz. Negaki, do'stlik, oshnolikning o'z shartlari bor. Avvalo, ko'ngillar yaqin bo'lmog'i kerak. Dunyoqarashi, fe'l-atvori, hayotiy tutumlari butunlay boshqa-boshqa insonlarning inoqlashib ketishi qiyin.

Ilk tanishuvimizdayoq Rustam Qosimovning samimiy va dilkash yigit ekaniga amin bo'ldim. Ikkimizning ham mutaxassisligimiz arab dunyosi bilan bog'liq bo'lgani uchun o'qish jarayonida tez-tez ko'rishib, suhbatlashib turadigan bo'ldik. Bu muloqotlar bizni yanada yaqinlashtirdi va keyinchalik, qariyb yarim asr davom etgan do'stona munosabatlarimizga zamin bo'lib xizmat qildi.

Universitetni bitirgach, ikkalamiz ham nomzodlik dissertatsiyalarimizni tayyorlashga kirishdik. Mavzularimiz ikki qo'shni arab mamlakati — Iroq va Suriya bilan bog'liq bo'lgani bois, endigi muloqotlarimiz ilmiy-ijodiy ruhda ham davom etdi. Ilmiy izlanishlarimiz yuzasidan uzoq suhbatlashar, bir-birimizdan yordamimizni ayamas edik.

Ish jarayonida do'stligimiz mustahkamlandi, bir-birimizning dunyoqarashimiz, orzu-o'ylarimizdan yanada ko'proq voqif bo'ldik. Buni qarangki, ikkalamiz ham arab dunyosi istiqbollari, uning O'zbekiston bilan (garchi o'sha mahallar Vatanimiz hali ozodlikka erishmagan bo'lsa-da) aloqalarini rivojlantirish haqida orzu qilar ekanmiz. Qarang, yoshlik — beg'uborlik, deb bejiz aytishmaydi-da. Niyatlar naqadar pok bo'ladi! Oradan yillar o'tib, yurtimiz mustaqil bo'lgach, o'sha yoshlik orzularimizni eslashib, Yaratganga behisob shukurlar aytganmiz.

Men dissertatsiyani avvalroq boshlaganim uchun uni ilgariroq yoqladim. Tez orada do'stim ham ilmiy ishini yakunlab, muvaffaqiyatli himoya qildi.

Tabiiyki, hayot faqat ish yoki ilmiy izlanishdan iborat emas. Men viloyatdan kelganim uchun oldimda bir muammo turar — uy-joy masalasini hal qilishim kerak edi.

Shu orada chet elda ishlab kelib, jamlagan mablag'imga shahar chekkarog'idan qurilishi chalaroq, bugungi til bilan aytganda, "korobka" holidagi bir uyni sotib oldim.

O'sha kunlari Rustam Sobirovichning haqiqiy inson va oqibatli do'st ekanini ko'rsatadigan yana bir fazilatini kashf etdim.

Uyni epaqaga keltirib, oilam bilan unga kirib olgunimcha do'stim muntazam xabar olib, yordam berib turdi. Yeng shimarib, men bilan teppe-teng ishladi. Ikkovlashib oshxona poydevorini quyganimiz, ish orasida chaqchaqlashib, hangomalashib, hatto charchoqni ham unutib qo'rganlarimizni eslasam, bugun ham sog'inch-u hayajondan titrab ketaman.

* * *

1991-yil boshlarida biz Toshkent davlat sharqshunoslik instituti (bugungi universitet)da ishlar edik. Bir kun rek-

torimiz akademik Ne'matullo Ibrohimov men bilan Rustam Qosimovni huzuriga chaqirib, "yangi tashkil etilgan institutimizga oliy toifali kadrlar — fan doktorlari kerak, binobarin, Ilmiy kengash ikkovingizni Rossiya FA Sharqshunoslik instituti doktoranturasiga yuborishga tavsiya qildi, borasizlarmi?" dedilar. Biz taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, Moskvaga yo'l oldik. U yerdagi O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli Ryazan ko'chasidagi mehmonxonaga joylashdik. "Musulmon uchun beshikdan qabrigacha ilm o'rganish farzdir" degan hadisga amal qilib, yana ilmiy izlanishlar ummoniga sho'ng'idik.

Tahsilimizning yangi bosqichida yana omadimiz chopdi. Ikkimizga ham xalqaro miqyosdagi taniqli arabshunos va sharqshunos — akademik Vitaliy Naumkin ilmiy rahbar etib belgilandi. Garchi yarim yildan keyin sobiq Ittifoq parchalanishi bilan Toshkentga qaytib kelgan bo'lsak-da, yurtimiz mustaqillikka erishgani, uning tarixida yangi, yorqin bir sahifa ochilgani bizga qanot bag'ishladi. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatning mustaqil subyekti sifatidagi maqomini mustahkamlash, jumladan, arab mamlakatlari bilan aloqalarni rivojlantirish haqidagi orzularimiz ijobat bo'layotgani qalbimizda ajib tuyg'ular uyg'otar edi.

Qisqa muddatli doktorantura tahsili izziz ketmadi — musofirlik tufayli do'stligimiz yana bir sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi — yurtdan uzoqda, begona bir o'lkada bir-birimizga suyanch bo'ldik, yelkama-yelka turib o'qidik, izlandik.

Rustam Qosimov tom ma'nodagi vatanparvar inson edi. Peshanasiga yozilgan ekan, yillar davomida u davlat xizmati pillapoyasidan yuqorilab bordi: oliy o'quv yurti rektori, vazir o'rinbosari, vazir, Bosh vazir o'rinbosari, Prezident maslahatchisi sifatida samarali faoliyat ko'rsatdi.

2017-yilning yoz kunlaridan birida do'stim meni huzuriga taklif qildi. O'sha paytda u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi lavozimida xizmat qilar edi. Xonaga kirishim bilan u salom-alikdan so'ng davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev benihoya savobli, nafaqat mamlakatimiz, balki musulmon dunyosi uchun nihoyatda muhim bo'lgan ulkan bir loyihani boshlashga qaror qilganlari haqida to'liqlanib gapira boshladi. So'z bugungi kunda qurilishi yakunlanayotgan "O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi" deb nomlangan, xalqimiz va xalqaro jamoatchilik tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgan, barchamizning ong-u shuurimizga tobora chuqurroq o'rnanib borayotgan, zamonaviy istilohda aytganda, ilmiy-ma'rifiy megaloyihaga aylanayotgan muassasa haqida ketar edi.

Men uchun tarixiy bo'lib qolgan o'sha suhbat davomida Rustam Qosimov Prezidentimizning mazkur ulkan loyiha bilan bog'liq fikr va g'oyalari haqida so'zladi, "Bugun mamlakatimiz yetakchi olimlari, din arboblari, jamoatchilik vakillari bilan ushbu tashabbusga bag'ishlangan muhim yig'ilish bo'ladi, siz ham taklif etilgansiz, Xudo xohlasa, muhtaram Prezidentimizning ishonchini oqlash, ulug' tashabbuslarini hayotga tatbiq qilishda birga bo'lamiz", dedi. Bugun o'zim xizmat qilayotgan, xalqimizning tom ma'nodagi o'zligi, o'tmishi, shon-sharafi, orzu-umidlarini uyg'unlashtirish yo'lidan borayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ostonasiga qadam qo'yar ekanman, do'stimning so'zlari qulog'im ostida yangragandek bo'ladi...

* * *

Kovid balosi hayotimizga qanday tashvishlar olib kelgani hali xotiramizdan ko'tarilgani yo'q. U bilan

bogʻliq qattiq cheklovlar oʻrnatilganda eng yaqin insonlar ham bir-birining holidan xabar ololmay qolgani rost. Koʻcha-koʻyda emin-erkin yurish qiyin, eng xavfsiz yoʻli — uyda qolish edi. Soha mutaxassislari shuni tavsiya etishardi. Lekin mana shunday ogʻir vaziyatda ham Rustam Sobirovich doʻstlari, yaqin kishilari holidan xabar olishga imkon topdi. Jumladan, meni ham tez-tez yoʻqlab, tansiq yeguliklar bilan siylab turganini minnatdorlik bilan eslayman. Bilishimcha, bunday iltifotga noil boʻlgan faqat men emas, doʻstimning yaqinlari va boshqa ogʻaynilari ham bundan benasib qolmagan edi oʻshanda.

Umuman, koronavirus pandemiyasidan xotiramda ikki narsa muhrlanib qolgan. Biri Rustam Qosimovning yaqin doʻstlaridan biri bilan bogʻliq, odob nuqtayi nazaridan uning ismini aytib oʻtirmayman. Gapning indallosi shuki, oʻsha inson kovidga chalinib qoldi. Bundan Rustam qattiq tashvishlandi. Yaratganning qudrati bilan u butunlay sogʻayib ketdi. Ammo taqdirni qarangki, bir muddatdan soʻng Rustamning oʻzi bu xastalik qurboniga aylandi... Shularni oʻylar ekanman, Allohning: “Inna lillah va inna ilayhi roji’un”, ya’ni: “Biz Allohnikimiz va albatta unga qaytamiz”, — degan kalomi yodimga tushadi. Darhaqiqat, inson har doim omonatini topshirishga tayyor turishi kerak.

Kovid davri bilan bogʻliq keyingi voqea haqida ham ikki ogʻiz. Rustamning kechki soat oʻn-oʻn birlarda menga qoʻngʻiroq qiladigan odati bor edi. Koʻpincha, bunga qaysidir muhim tadbirga tayyorgarlik koʻrish sabab boʻlardi, u yoki bu masalada mening fikrim bilan qiziqar edi. Baʼzan faqat hol-ahvol soʻrash bilan ham cheklanardi. Armonga aylangan joyi shuki, doʻstimning menga qilgan oxirgi qoʻngʻirogʻini eshitmay qolganman.

Bu voqea 2021-yil aprel oyida boʻlgan. Rustam qattiq xastalanib yotgan kunlarning birida kechki soat oʻn

birlarda menga qoʻngʻiroq qilgan ekan, buni men ertasiga bildim. Qattiq charchaganim bois uxlab qolgan ekanman oʻshanda. Ertalab soat sakkizlarda qaytib qoʻngʻiroq qilsam, javob boʻlmadi, xavotirlanib, telegramdan yozdim, jimjitlik...

Doʻstimning oxirgi qoʻngʻirogʻi haqidagi oʻylar meni hamon tark etmaydi. Balki, bu vidolashuv istagi boʻlganmikan...

* * *

“Insonning javharini bilmoqchi boʻlsang, unga mansab yoki boylik berib koʻr” degan hikmat bor. Salkam yarim asr davomida Rustam Qosimovning hayot yoʻlini kuzatishga muyassar boʻldim. Uning talabalik yillaridagi qiyofasi va feʼl-atvori ham, davlat arbobi sifatidagi surati va siyrati ham mazkur davrda menga yaqindan tanish boʻlib kelgan. Qayerda, qanday vazifada ishlamasin, Rustam Qosimov goʻzal insoniy fazilatlariga sodiq qoldi. Takabburlik, kalondimogʻlik kabi illatlarni oʻziga yuqtirmadi. Mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida oʻziga xos iz qoldirdi, qoʻlidan kelgancha odamlarga yaxshilik qilib yashadi.

Darhaqiqat, ulugʻ bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur aytganidek:

*Bori elga yaxshiligʻ qilgʻilki, mundin yaxshi yoʻq —
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshiligʻ...*



Tursunali Qo'ziyev,
O'zbekiston Respublikasi
san'at arbobi, professor

DO'ST HAQIDA SO'Z

“Ba’zan botinimizdagi otash o’chadi-yu, kimnidir uchratganda otilgan uchqundan qayta alanga oladi”, deyishadi. Men Rustam Sobirovich Qosimovga ilk bor duch kelganimda ayni shunday holatni boshimdan kechirdim. Bizni mustahkam do’stlik rishtalari bog’lagan edi. Deyarli tengdosh bo’lsak-da, meni “oka” deb atar, bu meni ham xijolat qilar, ham ko’nglimga xush yoqar edi. Xalqona aytganda: “Og’ang do’sting bo’lmas, illo do’sting — har qachon og’angdir”. U menga ruhan do’stdan-da yaqinroq edi...

Rustam Qosimov — asl o’zbek ziyolisining yorqin tajassumi; atoqli olimlar, rektor, diplomat va elchilar shajarasi vakili; serqirra talant sohibi — psixolog, poliglot, qomusiy bilimlar egasi bo’lgan olim; binobarin, ajoyib tashkilotchi va Xudo yorlaqagan rahbar.

Yangi O’zbekistondagi ko’pgina ezgu ishlarga u o’zining bilimi va kuch-g’ayrati bilan munosib hissa qo’shdi. Bilgan odamlarning bari uni hurmat qilar, ayrim johil amaldorlar esa ko’p-da yoqtirmas edi. Kitoblar va ilm-u fan — Rustam Sobirovichning jon-u dili edi, u hamisha bir qadam ilgari yurganiga aksariyat zamondoshlar guvohimiz.

Bir necha tillarni a’lo darajada bilar, bimalol gaplashish, bahslashishdan tashqari, guvohi bo’lmaganman-u, biroq aminmanki, shu tillarda ravon yoza olardi ham.

Suhbatlar, bahs-u munozaralarda turli ellar buyuk mutafakkirlarining so’zlaridan zargarona injalik bilan, ularning o’z tilida misol keltirganiga o’zim shohidman.

Marg’ilon shahrining 2000 yilligini nishonlash uchun hukumat tomonidan tuzilgan ishchi guruh tarkibida birga ishlaganmiz. Bizga atoqli shoira Uvaysiy yashagan oddiygina me’moriy uyda muzey tashkil qilish topshirildi. O’shanda Bosh vazir o’rinbosari bo’lgan Rustam Sobirovich Marg’ilonda o’tkaziladigan tadbirlarga tayyorgarlik ko’rish uchun tuzilgan tashkiliy qo’mita rahbarlaridan biri edi.

Qurilishlar asnosida shoiraaning hovlisidagi mo’jaz maydonchadan bir necha qabr topildi: ularda jasad qoldiqlari emas, qadim qo’lyozma kitoblar joylangan kanop qoplar bor ekan. Shoira buvilarining bitiklarini dahriy bolshavoylar bosqinidan asrash uchun avlodlari shu taxlit yo’l tutmoqqa majbur bo’lgan, qabr qazib, noyob qo’lyozmalarni ko’mgan ekan. Tus sodda odamlar... xayol qilganlarki, bu jaholat, kitoblarga, ilm-u ma’rifatga qarshi bu harb-u zarb hademay tugaydi. O’shanda qoplar qayta yer ustiga olib chiqiladi, bu nazmiy va falsafiy bitiklarni o’quvchilar o’z tillarida o’qib, bahra oladilar...

Ammo tarix o’zani boshqa yoqqa burildi. Gerostratcha vayronkorlik “ijodkor”lari hech yoqqa ketmadilar; yetmaganiga, savodi chiqqan alifbosidan millatimizni mahrum qildilar. Qo’lida arab imlosidagi bitiklar saqlanib qolgan odamlarni esa shafqatsizlarcha qatliom etdilar. Yillar bo’yi butunlay unutilgan qo’lyozmalar yerosti zulmati va zax asoratidan yaroqsiz holga keldi. Samarqandi va qo’qoni ipak qog’ozning noyob hafif varaqlari bir-biriga yopishib, chirib ketdi...

O’shanda qadim bitiklar “xilxonasi”ga tegishli organlardan vakillar keldi, qoplar chiqarib olindi. Qo’lyozmalar

ehtiyotkorlik bilan changdan tozalandi va ro'yxatga olish uchun tuman hokimiyatiga olib ketildi. Bitiklarning bari arab imlosida; fors, arab va eski o'zbek tillarida edi.

Hokimiyat binosida epchilgina yosh xodim kitoblarni shartta-shartta ajratib, ularga tavsif bera ketdi. Rustam Sobirovich yigitni diqqat va qiziqish bilan, gapini bo'lmay tingladi; bilganlarini aytishiga qo'yib berdi, hatto ma'qullab ham turdi. Yigitning xos "ma'ruza"si tugagach, qayerda o'qigani, ustoz kimligini so'radi.

Keyin... keyin esa hammani hayratda qoldirib, kitoblarni butunlay boshqacha — yozilgan tiliga ko'ra, fors, arab va o'zbekcha qilib ajratdi; u yoki bu qo'lyozmaning nima haqdaligini aniq-ravshan tushuntirdi. Shu tariqa ahli majlisga ham, haligi yigitchaga ham bilimni namoyish qilish emas, til va tarixni bilish muhimroq ekanini uqtirib qo'ydi.

U kishi muloyim va bariton ovoz sohibi, o'ta bilimdonlik ila va diplomatlarcha so'zlar, fikrini o'zbek va rus tillarida yorqin ifoda eta olardi. Men uning YUNESKO vakillari bilan ingliz tilida, fransuzcha iqtiboslarni joyjoyiga qo'yib gaplashganiga shaxsan guvoh bo'lganman.

Uning ajoyib sulukatlari bor, hatto sigaretni ham zodagonlarcha bir nazokat bilan chekar edi. Harakatlari, gap-so'zlaridan sahnada rol o'ynayotgandek tuyulardi-yu, lekin hech bir artistonalik yo'q, barchasi tabiiy, uni kuzatish nihoyatda maroqli edi.

Biz Rustam Sobirovich bilan juda ko'p muzey ekspozitsiyalarini tayyorladik. Men undan noyob rahbarlik tajribasini o'rgandim — doimo o'zgalar fikrini hurmat qilar, odamlarni tinglashni bilar, tanbeh bersa halimlik bilan, ko'ngilga tegmaydigan qilib berar edi. Har qanday fikrni, hatto g'oyat keskin g'oyalarni ham eshita olar edi. Xulosa qilishga shoshmas, obdan o'ylar-fikrlar, keyin esa

hammasini yana qaytadan muhokama qilar edi. Basharti, biron taklif ma'qul kelmaganda ham, mutaxassis olimlar, dizaynerlar, rassom va hunarmandlar fikrini rahbariyatga yetkazishga va'da berar edi.

Biz o'nlab obyektlarni xuddi yo'q joydan barpo etgandekmiz. Shulardan biri Qarshidagi VIII asrda qurilgan va Chingizxon qo'shinlari tomonidan vayron etilgan Odina masjididir. Qarshini mo'g'ul bosqinchilaridan himoya qilgan mardlarning eng oxirgilari shu yerdan panohtopgan. Sho'ro davrida masjid qayta tiklandi, lekin charxning kajraftorligini qarangki, madaniy osori atiq o'rnida o'ta xavfli "jinoyatchi"lar — Buxoroning mashhuri jahon ruhoniylarini hibsdan saqlash uchun turma barpo etildi. Hatto istiqloldan keyingi 2000-yillarda ham bu yer mudhishligi bilan dong'i ketgan qamoqxona edi.

Masjid qoshidagi madrasa mullavachchalari yashaydigan hujralar kaftday derazali bir kishilik kameralarga aylantirilgan edi. Bu "hujra"larga din arboblari tashlangan — buni ta'mirlash mahali topilgan yozuvlar ham tasdiqlaydi. Kameralardagi cho'yan quvurlar esa eng mudhish "topilma" bo'ldi — ular o'tgan vaqt sababli emas, qondan zanglab ketgan. Hammamiz dahshatga tushdik: bu quvurlarda gunohsiz qatl etilgan ajdodlarimizning qoni oqqan...

Masjid hovlisida sardoba — yomg'ir suvlari jamlab qo'yiladigan usti yopiq inshoot bor ekan. Sardobada ham qiynoq kameralari bo'lib, ularda mahbuslar suvxona gumbaziga osib qo'yilgan.

Mohiyat e'tibori bilan qaraganda, biz u yerda O'zbekistondagi qatag'on qurbonlarining bo'lajak muzeyi analogini barpo etgan edik.

Ta'kidlash joizki, Rustam Sobirovich jonkuyar rahbar, qo'l ostidagilarga otalarcha e'tiborli edi. Esimda,

Qarshidagi Odina masjidida biror oycha ishlaganimizdan keyin muzeyshunoslardan biri sariq kasalga yo'liqib, yotib qoldi. Yaqin kunlarda Qarshiga mamlakat rahbari kelishi kutilayotgan edi, shunga qaramay, Rustam Sobirovich bemorni zudlik bilan Toshkentga jo'natdi, kasalxonaga joylashishini ham o'zi nazorat qilib turdi. Toshkentga qaytgach, bemorni shaxsan so'rab bordi.

Qarshidagi ishlardan keyin Rustam Sobirovich poytaxtimizdagi mintaqada qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan ilk muzeyning barpo qilinishida o'sha muzeyshunos olimni arxiv masalalari bo'yicha bosh mutaxassis qilib oldi. Bosh vazir o'rinbosarining yordami bilan men ham ikkita ekspeditsiyani Sibirning tashlandiq GULAGlariga yuborishga muvaffaq bo'ldim. Har ikkala ekspeditsiya ko'ngilli metsenatlar tomonidan ta'minlandi va ular qatag'on qilingan, jasaki Sibirning ovloq yerlaridagi umumiy qabristonlarda abadulabad qolib ketgan o'n minglab o'zbekistonliklarning taqdiridan hikoya qilguvchi nodir materiallarni olib qaytdi.

Rustam Qosimovning qo'llovi bilan Moskvaga ("Memorial") va Sankt Peterburgga ham ekspeditsiyalar uyushtirildi. Yana bir ilmiy guruh esa quloq qilingan o'zbeklar badarg'a etilgan Ukrainaga yo'l oldi. Guruh a'zolari Ukrainadagi katta bir qabristonda qatag'onga uchragan Karimov familiyali kishining avlodlariga duch keladilar; taassufki, ular endi o'zbek tilida gapirmas ekan.

Skeptik kimsalarning shubha-yu ehtimollariga qaramay, Qosimovning qattiq turishi bilan qatag'onning sovuq timsollaridan biri bo'lgan "qora quzg'un" eksponati ham izlab topilib, muzeyga qo'yildi. Bu — o'sha mash'um yillarda tuni bilan odamlarni qamoqxona-yu otuv ijrosiga tashigan mudhish avto ekanini bilasiz.

Rustam Qosimov boshchilik qilgan yana bir muhim loyiha Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasiga oid. Ekspozitsiyalar ishlanayotgan kunlarning birida mening oldimga bir odam keldi — Ulug'bekning ikki shogirdiga tegishli qo'lyozmani sotmoqchi ekan. Bu haqda men Rustam Sobirovichga, u kishi o'z navbatida o'sha paytdagi Bosh vazir Shavkat Miromonovich Mirziyoyevga xabar berdi. Bosh vazir qo'lyozmani sotib olish va zudlik bilan Ulug'bek rasadxonasi muzeyiga qo'yish to'g'risida ko'rsatma berdi.

Rasadxonadagi tarixiy fotosuratlarda muhrlangan toshni ko'tarishga ruxsat olgan ham aynan Rustam Sobirovichdir — bu muzeyni yangi ko'rgazma bilan boyitishga yordam berdi. Mamlakatimizdagi ko'pgina haykal va monumentlar shu insonning san'atni chuqur tushunganligi tufayli yaratildi.

U O'zbekistonda oliy va o'rta ta'limning isloh etilishiga ham katta hissa qo'shdi, ta'lim muassasalari rahbarlarini testdan o'tkazish komissiyasi a'zosi sifatida faol ish olib bordi. Ta'lim va madaniyat o'rtasidagi aloqani mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. Oliy ta'limdagi korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashdi. Uning fikricha, sohada burch va vazifalarining ahamiyatini anglagan malakali va mas'uliyatli odamlargina ishlashi shart.

Albatta, hamma narsa faqat unga bog'liq emas edi. Lekin Rustam Sobirovich o'z prinsiplari va idealiga har qachon sodiq qola bilgan shaxsdir. Aynan shu fazilatlar tufayli Birinchi prezidentning ham, mamlakatimizning amaldagi rahbarining ham hurmatiga sazovor bo'ldi.

Hamisha adolat va ijtimoiy tenglik uchun kurashgan R. Qosimov yurtimizda bir xil me'moriy uslubdagi qishloqlar barpo etilishining ham tarafdorlaridan bo'lib,

bundan yagona turmush madaniyatini shakllantirish nazarda tutilgan edi.

Shunday qishloqlardan birida Rustam Sobirovich xo'jako'rsinchilik bo'lib qolmasin, deb har bitta kottejni kechasi, shaxsan o'zi borib tekshirdi. Bir xonadonda o'g'il bolalar xonasidagi karavotga Merilin Monroning cho'milish kiyimidagi surati tushirilgan adyol yopilgan ekan. Mahalliy amaldorlarning xonani bu taxlit "bezagani"dan Rustam Sobirovich hang-mang bo'ldi. Darhol yig'ilish chaqirdi, bu ishni qilganlar bola tarbiyasi uchun ham mas'ul ekani, ularning kaltabinlik va loqaydligi noto'g'ri ekani haqida kuyunib, uzoq gapirdi.

Surxondaryoda — Termiz yaqinida sho'ro davrida mevalarining o'ziga xosligi bilan mashhur limonxona bo'lar, bu tansiq ne'mat faqat partiya arboblarning dasturxoniga tortilar edi. Mustaqillik yillari "Obod qishloq" dasturi doirasida o'sha limonxona o'rnida o'zining maktab, tibbiyot punkti, kutubxonasi bo'lgan 60 kottejdan iborat qishloq barpo etildi. Bir gal o'sha qishloqni tekshirgani bordik. Pollar qo'porilib ketgan, isitish quvurlari yo'q, cho'yan batareyalar pol ostiga ko'milgan... Javob beradigan odam yo'q — pudratchi pulni olib juftakni rostlagan.

Bu taxlit o'lda-jo'lda ishlar Rustam Sobirovichni qattiq ranjitar, u o'ziga nihoyatda talabchan, boshqalardan ham shuni talab qilar edi. Hamma amaldorlar ham u kishidek kuyunchak emas edi. Domla mutafakkirlardan biri aytgan gapni ko'p takrorlar edi: "Og'riqni his etsang — tiriksan, o'zganing og'rig'ini his etsang — insonsan".

Kuyunchaklik, mas'uliyatni haddan ortiq his etish uning sog'lig'iga putur yetkazdi. O'zgalarning ishini, tashvishini hadeb ko'ngilga olavermaslik kerakligini ko'p bora uqtirdim; odam shunday tarbiyalangan bo'lsa, iloji yo'q ekan — nachora.

O'z vaqtida Amudaryo sohilidagi Hakim Termiziy maqbarasi yonida joylashgan bir yarim asrlik chegara postini modernizatsiya qilish ham Rustam Sobirovich bilan menga yuklatilgan edi. Bu shaharcha hozir ham O'zbekiston — Afg'oniston chegarasidagi o'ta muhim janubiy savdo nuqtasi hisoblanadi.

Rustam Sobirovich shaharchada yashaydigan chegarachilar, ularning oilalaridagi shart-sharoit uchun mas'ul edi. U odamlar bilan batafsil suhbatlashdi, ularni shoyon e'tibor bilan tingladi, ovloq bir joyda ayollar va bolalarning yashash sharoitiga oid har bitta tafsilotni o'rganib chiqdi. Menga esa loyihalash va bezash, binolar hamda xizmat xonalarini obodonlashtirish, ko'rgazmali va boshqa materiallar vositasida harbiy-siyosiy tayyorgarlikni takomillashtirish vazifasi yuklangan edi.

O'shanda Rustam Sobirovichning qurolni bemalol ishlata olishi, harbiyotni ham bilishi va chegarachilarning texnik tayyorgarligini shu ishning ustasiday tekshirgani meni lol qoldirgan. Bu sohani qanday qilib bu qadar chuqur bilishini so'raganimda, aytdiki, ilgari arab mamlakatlarida tarjimonlik qilgan va ish yuzasidan harbiyotni ham o'rgangan ekan.

Rustam aka asl ziyoli oilada ulg'aygan insonning mukammal timsoli, bir-biriga butunlay zid sohalarga oid turli bilimlar va turli nuqtayi nazarlarni o'zlashtirgan bo'lsa-da, xolis estet va intelligent bo'lib qola olgan shaxs edi.

Chunonchi, u O'zbekistonning xalqaro madaniy-gumanitar hamkorligi va "xalq diplomatiya"sini rivojlantirishni kuchaytirish lozim, deb hisoblar, ammo bu xil yondashuvga siyosiy va iqtisodiy munosabatlarga O'zbekiston uchun manfaatli deb hisoblaydigan ayrim hamkasblari ishonchsizlik va beparvolik bilan qarar edilar.

Biroq Rustam Sobirovich siyosiy va iqtisodiy aloqalar hamisha siyosiy konyunkturaga, logistika va boshqa omillarga bog‘liq degan nuqtayi nazarida sobit edi. Zotan, madaniy-gumanitar aloqalar, ayniqsa, “xalq diplomatiya”si mamlakatlar o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga imkon beradigan mustahkam ko‘prik o‘rnatadi.

Rustam Sobirovich ma’lum muddat diniy munosabatlar sohasini boshqardi. U kishining fikricha, islom O‘zbekistonda har doim ilg‘or din bo‘lgan.

Ayni vaqtda bilim va madaniyat turli mojarolardan, jaholatparastlikdan xalos bo‘lishga yordam beradi, deb hisoblardi. U ayrim diniy mulozimlarning savod va saviya darajasiga tanqidiy qarar edi. Yoshlar bir necha xorijiy tillarni, eng avvalo, ona tilini yaxshi bilishlari lozim, til bilish — hayotda yangi-yangi imkoniyatlarni ochish manbaidir, derdi. Ayni chog‘da, domlanning fikricha, davlat va din o‘rtasida muvozanat bo‘lishi lozim. U kishi diniy aqidalarning chetdan tiqishtirilishiga ham, dinning jamiyat hayotidan ihtotalab qo‘yilishiga ham qarshi; din va davlatning, o‘zaro raqobatchilik qilmay, hamkor va uyg‘un faoliyat yuritishi tarafdori edi.

Rustam Sobirovich odamlarni biror-bir belgiga ko‘ra — shaharlik yoki qishloqlik ekani, poytaxt yoki viloyatda yashashiga qarab ajratish, tabaqalashtirishga hamisha qarshi edi. Der ediki, “Yurtimizning barcha fuqarolari, avvalo, O‘zbekiston farzandlari bo‘lishlari zarur”. Buning uchun u shahar va qishloqlarda yashash sharoitlari bir xil bo‘lishini orzu qilardi.

Rustam Sobirovichning kamdan kam rahbarlarda uchraydigan yana bir odati bor — u badiiy ko‘rgazmalarga, kino va spektakllar premyeralariga muntazam borar edi.

Olim sifatida ahli ilm orasida katta hurmat-e’tiborga ega bo‘lsa-da, davlat xizmati uning uchun muhimroq edi. Qaysi lavozimda ishlamasin, shu sohada uzoq yillar, halol va samarali mehnat qilganlarga o‘zgacha e’tibor bilan qarashi g‘oyat ibratlidir. Esimda, Islom akademiyasi rektori ekanida atoqli sharqshunos olim, kamtarin inson Ubaydulla Uvatovning 80 yillik yubileyini katta tantana bilan o‘tkazishga bosh-qosh bo‘ldi. Bunday munosabatni — rahbar bo‘lib ishlayotgan zamondoshlarimiz uchun o‘ziga xos mahorat darsi, deyish mumkin.

Uning yuksak insoniy fazilatlarini nafaqat shogirdlari, balki hamkasblari va do‘stlari, hatto g‘animlari ham e’tirof etadilar. Qisqa umri davomida qayerda ishlagan bo‘lsa, hamisha shunday bo‘lgan. Kimki inson, kimki o‘z ishining fidoyisi va ustasi — uning izzatida edi.

U O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, Bosh vazir o‘rinbosari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi rektori va boshqa nufuzli lavozimlarda ishladi. O‘ta mehnatsevar odam edi, hatto xastalanib qolganida ham hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etish g‘oyasini ro‘yobga chiqarishga bag‘ishlangan yig‘ilishlarni izchil va talabchanlik bilan o‘tkazib keldi. Ba’zi bir diniy ulamolar, olim va hamkasblari har doim ham uning qat’iy talablariga javob bera olmas edi. Ayrim safdoshlarining Islom sivilizatsiyasi markazining ahamiyatini tushunmasligi, uni yetarli baholay olmasligi unga og‘ir botar edi. O‘limidan birmuncha vaqt ilgari markazning hozir qad rostlayotgan mahobatli binosi asosini shakllantirishga ulgurdiki, mazkur ish tiriklik dunyosini oldinma-ketin tark etgan Rustam Sobirovich va

sobiq muftiy Usmonxon Alimovning unutilmas xizmatlaridan bo'lib qoldi.

Oliyjanob insonlar, ular amalga oshirgan ishlar el-yurt xotirasida qiyomatga qadar saqlanib qoladi. Rustam Sobirovichning ortidan ajoyib ziyoli farzandlar, minglab iste'dodli shogirdlar va undan butun umr minnatdor do'stlar qoldi; shular safida men ham borligimdan faxrlanaman.

Uning vafoti hammamizni qayg'uga soldi. Mening esa qaddimni, ko'nglimni cho'ktirib ketdi...

Rustam Qosimovning madaniy-tarixiy ildizlari bag'oyat qadim navqiron davlatimizning shakllanishi va taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissi, insoniylik fazilatlarini munosib baholash biz — O'zbekiston ahlining burchimizdir.



Abdujabbor Abduvohidov,
*Toshkentdagi Moskva davlat xalqaro
munosabatlar instituti rektori*

KOMILLIK SAODATI

Komil inson kim, tom ma'nodagi shaxs qanday qilib kamolotga yetadi, degan savollar atrofida soatlab gapirish mumkin. Bu borada olimlar, faylasuflar, qilni qirq yoradigan aql-idrok sohiblari ko'plab o'rinli, to'g'ri va mantiqiy mulohazalar bildirishgan. Kamina ana shunday jo'yali fikrlarning barchasini qo'llab-quvvatlagan holda, bir xulosaga kelganman: komil inson — bu har tomonlama yetuk, aql-zakovatli, hayoti davomida turli sinov va mashaqqatlarga duch kelganida ortga chekinmasdan, aksincha, ularni mardona yengib o'ta oladigan insondir.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, mohir diplomat va sharqshunos, jonkuyar pedagog olim Rustam Sobirovich Qosimov ana shunday yorqin shaxslardan biri edi.

U ziyolilar oilasida tug'ilgan. Padari buzrukvori, ko'p yillar davomida Toshkent xalq xo'jaligi institutida talabalarga saboq bergan Sobirjon Qosimov hamda volidayi muhtaramalari Muhabbatxon aya farzandlarini yoshlikdan ilm-ma'rifatga oshno, esli-hushli, xushxulq va xushmuomala insonlar etib tarbiyalaganlar. Xonadondagi ma'rifiy muhit, qolaversa, o'zlaridagi intiluvchanlik, g'ayrat-shijoat va iqtidor tufayli Qosimovlar sulolasiga mansub aka-uka, opa-singillarning barchasi o'qimishli, ziyoli insonlar bo'lib kamol topganlar.

Rustam Sobirovich 1972–1978-yillarda Toshkent davlat universitetining sharqshunoslik fakultetida o'qigan. O'rni

kelganda ta'kidlab o'tish joizki, mazkur fakultetning o'z davrida nufuzi anchagina baland edi. Negaki, talabalar bu dargohda nafaqat xorijiy tillarni puxta o'rganar, shu bilan birga, iqtisodiyot, siyosat, tarix, madaniyat, antropologiya bo'yicha tizimli bilimlarni egallashar edi. Sharqshunos bitiruvchilarga xalq xo'jaligining keng jabhalarida talab juda yuqori bo'lib, shuningdek, bir qator Sharq mamlakatlarida ishlab kelish imkoniyati ham bor edi.

Albatta, yana bir haqiqatni e'tirof etmasak bo'lmaydi. O'sha paytlarda yurtimizda shakllangan sharqshunoslik maktabining o'zi kuchli bo'lgan, sohada bir qancha atoqli olimlar, ko'zga ko'ringan akademiklar, professor va fan doktorlari faoliyat ko'rsatar, yoshlarga saboq berar edi. Rustam Sobirovich o'zining yuksak salohiyati bilan bu maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilardan biri bo'ldi.

Universitetni tugatgach, u kishi arab mamlakatlarida tarjimon bo'lib ishladi, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanib, avvaliga tarix fanidan nomzodlik, keyinchalik iqtisodiyot va menejment bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi.

R. Qosimov qizg'in mehnat faoliyati davomida turli yuqori lavozimlarda ishlab, mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat sohalari rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Shunisi e'tiborliki, u hamisha ilg'or xorijiy tajribalarni yurtimizda ham joriy etishga intilar, mamlakatimizning xalqaro nufuzi, obro'-e'tiborini oshirishda bu kabi omillarning ahamiyatini yuqori baholar edi. Istiqlolning ilk yillaridanoq Toshkent davlat texnika universiteti qoshida mamlakatimizda xorijiy ta'limning birinchi tarkibiy qismi bo'lgan noyob loyiha — Malayziya biznes va menejment fakultetini ochishda alohida jonbozlik

ko'rsatgan, 1994–1997-yillarda ushbu fakultetga rahbarlik qilgan edi.

Sohada birinchi qaldirg'och bo'lgan mazkur fakultetning ochilishi yana shunisi bilan ahamiyatli ediki, keyinchalik dunyoning eng nufuzli oliygohlari ham bizga ishonch bildirib, yurtimizda o'z filiallarini ochdilar. Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda hurmatli Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi asosida chet ellar bilan hamkorlikda qator universitetlar, institutlar tashkil etildi va bu jarayon davom etmoqda.

Rustam Sobirovich, ta'kidlanganidek, ko'p yillar davomida yuqori vazifalarda samarali mehnat qilgan, biroq u kishining Yangi O'zbekiston davrida, Prezident maslahatchisi lavozimidagi so'nggi faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir.

Xarizma, yuksak aql-zakovat, keng bilim va tafakkur, chuqur ichki madaniyat va bag'rikenglik Rustam Sobirovich Qosimov shaxsiyatiga xos eng asosiy fazilatlar edi. Ko'p yillar davomida men u kishi bilan kasbdosh, hamkor sifatida ishlab, bunga chin qalbdan ishonch hosil qilganman.

Domla mana shunday ajoyib xislatlari bilan hamisha oddiy odamlar, shogirdlari, ilm-fan va madaniyat ahli vakillarining hurmat-e'tiborida bo'ldi. Do'stlari, yaqinlari, hamkasblari, tanigan-bilgan barcha insonlar Rustam Sobirovichning mehr-oqibati, ezgu insoniy fazilatlarini va yorqin xotirasini hamisha qadrlashadi.



Bahrom Abduhalimov,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
Sharqshunoslik instituti direktori,
tarix fanlari doktori, professor

OLTINDAN QIMMAT LAHZALAR

Taniqli davlat arbobi, mohir diplomat, yoshlarning suyukli murabbiysi, olim Rustam Qosimov haqida so'z borsa, bizni tanishtirib, qadrdonlik rishtalarini bog'lashimizga sababchi bo'lgan qutlug' maskan — Toshkent davlat universitetining sharqshunoslik fakulteti ko'z o'ngimda namoyon bo'ladi.

E'tibor bersak, har bir ta'lim dargohining o'z yetakchilari, ta'bir joiz bo'lsa, yorqin yulduzlari bo'ladi. Gap faqat a'lo o'qishda emas, ular tengdoshlari orasida o'zini tutishi, yurish-turishi, muomalasi, yuksak madaniyati, faolligi, tashabbuskorligi bilan alohida ajralib turadilar.

Shuni ishonch bilan ayta olamanki, Rustam Qosimov fakultetimizning ana shunday yorqin yulduzi, faxri edi.

Biz tengi, bizdan to'rt-besh ko'ylakni avvalroq to'zitgan aka-opalarimiz yaxshi biladilar: o'z davrida sharqshunoslik fakulteti ko'pchilikning e'tiborida edi.

Bu dargohda ta'lim olganlarning qariyb barchasi o'qishning oxirgi bosqichlarida xorijiy mamlakatlarga bir yilga maxsus o'qish, gohida tarjimonlik qilish uchun ishga jo'natilardi. Bu holat yosh talabalarni yanada ko'proq o'qish va o'rganishga undar, bugungi til bilan aytganda, motivatsiya — rag'bat berar edi.

Bugun chet elga o'qish yoki ishga borish hayratlanarli voqea hisoblanmaydi, lekin u paytlar holat butkul

boshqacha edi. Shu bois xorijga borib kelgan aka-opalarimiz bilan uchrashuv va suhbatlarni biz — yosh talabalar intiqlik bilan kutardik.

Chet el havosidan nafas olib, universitetimizga o'zi ham yangicha nafas olib kirgan akalarimizdan biri Rustam Qosimov edi. U kishi Iroqqa borib, tarjimonlik qilgan, bu yurt xalqi tarixi, madaniyati, milliy xarakter xususiyatlarini yaxshi o'rganib kelgan edi. Biz arab sahrolarida yashovchi ko'chmanchi badaviylar haqida darslarda tinglagan, kitoblarda o'qigan bo'lsak, Rustam aka ularni o'z ko'zi bilan ko'rgan, binobarin, turmush tarzi, urf-odatlarini yaqindan tanishgan emasmi, taassurotlarini nihoyatda jonli, qiziqarli tarzda hikoya qilib berardi. Bunday paytlarda hammamiz o'zimizni Toshkentning yamayashil dov-daraxtlarga chulg'angan so'lim bir go'shasida emas, cheksiz ufqlarga tutashib ketgan qumliklar orasida o'tirgandek his etardik. Afsonaviy Bobil, bir zamonlar dunyo poytaxti bo'lgan mashhur Bag'dodni u kishi bilan birga aylangandek bo'lardik.

Rustam akaning bir ajoyib xislati bor edi. Gurung orasida ba'zan kutilmaganda bir savol bilan murojaat qilib qolardi. Aytaylik, suhbat qizigandan-qiziyapti. Dunyo kezgan akamiz berilib so'zlar, biz maroq bilan tinglar edik. U kishi to'satdan "Abu Nuvasni bilasizmi?" deb qolardi.

Tabiiyki, tinglovchilarning aksariyati Abu Nuvasni bilmas, bilganlar ham u haqda qandaydir yangi bir gap, ma'lumot eshitish ilinjida butun vujudi quloqqa aylanib, notiqni tinglashga muntazir bo'lib turardi.

— U badaviy xonadoni eshigining halqasi, ichkariga kirmoqchi bo'lgan odam uni shu halqa bilan taqillatadi, — deya davom etardi Rustam aka. — Abu Nuvas islomning ilk davrlarida yashagan mashhur arab shoiri edi. Alisher

Navoiyni tanimagan o'zbek bo'lmaganiday, Abu Nuvasni bilmaydigan badaviy ham yo'q...

Rustam Qosimov talabalik davrlaridayoq bizni shunday dunyolar bilan tanishtirgan edi.

Inson hayoti manzarasi katta-kichik minglab lavhalar, turli voqealar silsilasida shakllanadi. Umr davomida ularning ko'pchiligi xotiradan o'chib ham boradi. Biroq ba'zilarini unutish ilojisizdir. Ular qadimiy turk tug'idagi tamg'a, nodir qo'lyozmadagi nafis satrlar tepasiga chekilgan unvon, tug'ro kabidir. Rustam Qosimov bilan o'rtamizda bir qancha xuddi shunday unutib bo'lmas voqealar kechgan. Ulardan ba'zilar Xorazmda "Ma'mun akademiyasi" ilmiy markazining tashkil etilishi bilan bog'liq ish jarayonlarida sodir bo'lgan.

O'tgan asrning to'qsoninchi yillari oxirlarida taqdir taqozosi bilan o'sha olamga dovrug'i yoyilgan Bag'doddagi "Ma'mun akademiyasi" faoliyati tarixi tadqiqi mening chekimga tushgan edi. Shu tariqa Rustam Qosimov bilan yo'llarimiz yana tutashdi. Bu paytda u kishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida kafedra mudiri edi. Xorazmda "Ma'mun akademiyasi"ni tashkil etish bo'yicha ishlar endigina boshlangan kezlar. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy jamoasi ham ushbu ma'rifiy jarayonga jalb etilgan. Institut direktori, ustoz akademik Muzaffar Xayrullayev ko'pincha meni yoniga chaqirib, Bag'doddagi xalifa Ma'mun va Xorazmshoh Ma'mun akademiyalariga oid birlamchi manbalardan, iloji boricha, ko'proq ma'lumotlar to'plashimni tayinlardi. Men yurtimizda bir muhim tarixiy voqeani amalga oshirishga bevosita hissa qo'shayotganimdan ich-ichimdan xursand edim. Ba'zan Rustam Qosimov qo'ng'iroq qilib qolar, hol-ahvol so'rashgach: "Faolroq bo'ling, sharqshunoslar

ishtirokisiz "Ma'mun akademiyasi" ilmiy markazini tashkil etishni tasavvur ham qilolmayman. Ilmiy mavzungiz aynan shu ma'rifiy dargoh faoliyatiga taalluqli ekan, g'ayrat qilavering", deb dalda berardi.

Bu insonning ana shu xususiyatini alohida ta'kidlab o'tmasam bo'lmaydi. Ha, Rustam aka o'zidagi g'ayrat, shijoatni boshqalarga ham yuqtira olardi. Bu odat uni so'nggi nafasiga qadar tark etmadi.

Xorazmga mehri bo'lakcha edi. "Roppa-rosa ming yil oldin shu yerda, Xorazm tuprog'ida dunyoda tengsiz "Ma'mun akademiyasi" faoliyat yuritgan. Dunyo olimlari guras-guras shu yerga kelgan.

Ming yil o'tib, u bizning zamonimizda tiklanishi, yana faoliyatini davom ettirishini tasavvur qilib ko'ring. Bizdan oldingilar buni orzu ham qilmagan bo'lsa kerak", der edi o'zgacha faxr bilan.

"Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Chag'iniy, Najmiddin Kubro, Ogahiy-u Feruzlar shu ma'rifat dargohiga yig'iladi endi. Hozir faqat Xorazm farzandlarini aytyapman, ehhe, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Toshkent, Farg'ona kabi shahar va o'lkalarimizda yana qanchadan qancha ma'rifat darg'alari bo'lgan. Bu dargohga ularning hammasi tashrif buyuradi. Barcha sa'y-harakatlarimiz shu ulug'lar davrasiga munosib bo'lishi shart", degan gaplari hamon qulog'im ostida jaranglab turgandek...

Bu insonning orzusi ushaldi. Tez orada "Ma'mun akademiyasi" uzoq shonli o'tmish va bugungi zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zida mujassam etgan ilm-fan va ma'rifat maskaniga aylandi.

Rahmatli akamiz umrining oxirigacha shu ma'rifat dargohi faoliyatiga alohida e'tibor qaratib yashadi. Men

ham shu ilmiy markaz bilan doimiy hamkorlik qilib kelyapman.

Davlat miqyosidagi muhim ishlar bilan doimiy band ekaniga qaramay, men kabi ukalari bilan suhbatlashishga vaqt topardi. Shunday paytlari gohida: “Abu Nuvasni bilasizmi?” deb hazillashib qo‘yardim. Kulardi. Endi o‘ylasam, bu bizning hayotimizdagi oltindan ham qimmat lahzalar ekan.

Rustam Qosimov bilan Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Imom Abul Muin Nasafiy kabi yurtimizdagi yana bir qancha ma‘rifiy maskanlar faoliyatini shakllantirish ishlarida birga ishtirok etdik. Ularning har biri haqida uzoq gapirish mumkin.

Ha, Rustam Qosimov hamisha ilm-fan, ma‘rifat uchun yashagan, el-yurt ravnaqi yo‘lida o‘z bilimi, kuch-g‘ayratini ayamagan jonkuyar inson edi. Xalqimiz bunday farzandlarini hech qachon unutmaydi.



O‘tkir Rahmat,
“Xalq so‘zi” va “Народное слово”
gazetalari bosh muharriri

EZGU SO‘Z VA EZGU AMAL ODAMI

Inson umrini bezaydigan, agar ta‘bir joiz bo‘lsa, uning barhayotligini ta‘minlaydigan omillardan biri, shubhasiz, ezgu so‘z va ezgu amaldir. Ammo bu baxt, bu inoyat har kimga ham nasib etavermaydi. Xudo yuqtirmasa, sira foydasi yo‘q.

Oramizda hayoti va faoliyatini ezgu amalga, el-yurtga beminnat xizmat qilishga bag‘ishlagan, yod etishga arzirli fidoyi insonlar borki, ularning qilgan xayrli ishlari bois yurtimiz taraqqiyotda davom etmoqda. Bugun yangi O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lib borayotgani, yangi marralarni egallayotgani mohiyatida ham yaxshi amallar sohiblarining sa‘y-harakatlari mujassam, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, ezgulik ezgulikni yaratadi. Bir yaxshilik boshqalarni ham ilhomlantiradi, xayrli ishlarga undaydi.

Ezgulikni o‘zining hayotiy qoidasi deb bilgan rahmatli Rustam Sobirovich Qosimov umrini ilm-ma‘rifatga, el-yurt xizmatiga bag‘ishlagan inson edi.

Bilasiz, istiqlolning dastlabki yillari xalqimiz uchun ham, davlatimiz uchun ham oson kechmadi. Chunki endigina sobiq ittifoqdan ajralib chiqib, tetapoya bo‘layotgan O‘zbekistonda muammolar ko‘p edi. Birini hal qilsang, ortidan boshqasi bo‘y ko‘rsatardi. Tabiiyki, bu sinovlarga o‘sha payt hukumat tarkibida bo‘lgan har

qanday kadr ham dosh berolmagan. Kimdir “boshqa iloji yo‘q ekan, nimayam qilardik”, qabilida yo‘l tutib, hammasini o‘z izmiga tashlab qo‘ygan bo‘lsa, yana biri yuqori bosim, muammolarning haddan tashqari ko‘pligidan sog‘lig‘ini yo‘qotib, jizzaki bo‘lib qolganini yaxshi eslaymiz. Biroq bu gaplarning Rustam akaga aloqasi yo‘q, negaki, u kishi bor tashvish-u muammolarni boricha qabul qilar, asabiylashmas, balki ularni yechish, bartaraf etish haqida o‘ylardi.

Darhaqiqat, u har qanday vaziyatda ham o‘zini yo‘qotib qo‘ymas, o‘sha-o‘sha vazmin, eng qiyin damlarda ham o‘ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan ado etishga intilardi.

Albatta, ish degani — oromgoh yoki hamma bir-biriga nuqul tabassum qiladigan bazmgoh emas. Unda “qozonda bori cho‘michga chiqadi” — kim nimaga qodir bo‘lsa, shuni ko‘rsatadi. Odamzodning joni temirdan emas, professional ish jarayonida kishi turli holatga tushishi mumkin. Biroq zimmasida qanchalik og‘ir va mas‘uliyatli vazifalar bo‘lmasin, men Rustam akaning ish ustida biron kishiga ovozini balandlatgani yoki jahl qilganini ko‘rmaganman. Ziyoli va ichki madaniyati kuchli inson emasmi, har qanday holatda ham vazminlik bilan ish tutar, hamkasblari va shogirdlaridan shirin so‘zlarini ayamasdi.

Rustam Qosimov mehnat faoliyatini Toshkent suv xo‘jaligi institutida boshlagan bo‘lsa, keyin bir necha yil mobaynida qator Sharq davlatlarida tarjimon sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

Toshkent davlat (hozirgi O‘zbekiston Milliy) universitetida tadqiqotchi, o‘qituvchi, katta o‘qituvchi va fakultet dekani lavozimlarida samarali mehnat qildi. Yoshligidanoq ilm-fanga mehr qo‘ygani bois pedagogik faoliyatni ilmiy izlanishlar bilan uyg‘un holda olib borib, iqtisodiyot

fanlari doktori ilmiy darajasi va dotsent unvoniga sazovor bo‘ldi.

Rustam akaning qaynoq hayot yo‘li haqida gap ketganda, uning Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri o‘rinbosari va vazir lavozimidagi faoliyatini hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi topshirig‘i bilan yurtimizning turli hududlaridagi ta‘lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, yangi va zamon talablariga to‘la javob beradigan ta‘lim muassasalarini bunyod etish jarayonlariga bosh-qosh bo‘lganini alohida ta‘kidlab o‘tish zarur.

Gapning ochig‘i, hozirga qadar ko‘plab yurtdoshlarimiz Rustam akaning o‘sha xizmatlarini mamnuniyat bilan eslaydi.

Bu insonning oliy ta‘lim tizimiga ilg‘or xorij tajribasini olib kirish borasidagi sa‘y-harakatlari ham tahsinga loyiq. Masalan, biz u kishining O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda Malayziyaning qator yetakchi universitetlari va ilmiy tadqiqot markazlari bilan amaliy hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolanishida faol ishtirok etgani, ayni chog‘da yurtimizda Malayziya xalqaro menejment va tadbirkorlik universiteti filialining ochilishida jonbozlik ko‘rsatganini yaxshi eslaymiz.

Rustam Qosimov O‘zbekistonda oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilab olish va hayotga joriy etish jarayonlarida faol qatnashdi. Erkin fikrlaydigan, chuqur bilim va yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish va ilg‘or o‘qitish texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga olib kirish bo‘yicha ko‘plab tashabbuslarni ilgari surgani, ularning aksariyati amalga oshganidan ko‘pchilikning yaxshi xabari bor.

Shu o‘rinda Rustam akadagi yana bir fazilatni alohida eslatib o‘tishni joiz, deb hisoblaymiz. U kishi xoh tanish,

xoh notanish bo'lsin, har qanday inson bilan chiroyli muomala qila olardi. Ayniqsa, yoshlar, nuroniylar, bolalar yoki ayollar bilan shunday gaplashar ediki, buni ko'rgan ba'zi kalondimog' insonlar taajjubga tushgan bo'lsalar, ajab emas.

Aslida, bu Yaratguvchi tomonidan ato etilgan noyob qobiliyat hamda oilada olgan tarbiya va ilm-ma'rifat mahsulidir. Ammo shunday vaziyatlar bo'ladiki, bu fazilatlarining o'zi kamlik qiladi. Bunday holatlarda matonat ko'makka keladi. Rustam akada esa matonat ham yetarlicha edi. Undan ta'lim-tarbiya olgan yoki qo'lida ishlagan qaysi yurtdoshimizdan so'ramang, ularning barchasi yakdillik bilan Rustam akadagi ushbu fazilatni bot-bot tilga oladi.

Yaxshi insonlar xotirasi ham yaxshi bo'ladi, deganlari shu bo'lsa kerak-da...

Yaqinda Rustam Qosimovning ta'lim va tarbiyasini olgan bir kishi bilan shu haqda suhbatlashib qoldik. "O'ta samimiy va kamtarin inson bo'lishidan tashqari, Rustam aka yoshlarning mehribon va jonkuyar ustozlari edi. Katta-yu kichik, erkag-u ayolga, ilm ahli, ayniqsa, yosh olimlarga o'zgacha mehr ko'rsatardi. Hammaga birdek munosabatda bo'lishidan, ko'pincha, hayratga tushganmiz. Axir, inson har qancha kamtar va har qancha oqil bo'lmasin, turli fe'l-atvordagi odamlar bilan bir xil gaplashish, hammasiga birdek yaxshi munosabatda bo'lish oson emas", dedi u.

Shunday qilib, Rustam Qosimov salkam 50 yillik mehnat faoliyati davomida qaysi lavozimda ishlamasin, doimo xalq va Vatanimiz manfaatini ko'zlab, fidokorona ter to'kdi. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya sohasidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, yurtimizning xalqaro maydondagi

obro'-e'tiborini oshirish yo'lida zahmat chekdi. Uning rahbarligida bir qator olimlar, fan nomzodlari va fan doktorlari yetishib chiqdi va ular ustozlari boshlab bergan ezgu amallarni davom ettirgan holda, O'zbekistonimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Biz bu insonning nurli hayot yo'lini, o'ziga xos fazilat-lari va amalga oshirgan ezgu ishlarini bejiz yod etmadik. Bularni eslash orqali boshqalar, jumladan, yurtimizning ertangi kelajagini ta'minlab beradigan yoshlarimiz qalbiga ezgulik urug'larini qadashdan iboratdir. Negaki, qayer-da ezgulik bo'lsa, o'sha joyda tinchlik-xotirjamlik hukm suradi va taraqqiyot bo'ladi.

Rustam akadek ezgu so'z va ezgu amal odamining porloq yodi xalqimiz qalbida doimo yashaydi.



Nurislom To‘xliyev,

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
professori, akademik*

OLIM, YETUK ARBOB

Rustam Sobirovich Qosimov bilan mening yaqindan tanishuvim mustaqillikning ilk yillariga to‘g‘ri keldi. O‘sha kezlarda u kishi Toshkent davlat texnika universiteti qoshida ochilgan Malayziya universiteti filialining rahbari edi. Kamina filial talabalariga O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining dolzarb muammolari bo‘yicha ma‘ruza o‘qib berishga taklif etildim. “Haqiqat bahslarda tug‘iladi”, deydi alloma Suqrot. “Bizning yo‘limiz suhbatdir”, deydi hazrat Bahouddin Naqshband. Ikki olim diydorlashib qolsa, turmush tashvishlari, dunyoning tashvishlarini unutib, ilmiy mavzularda suhbatlar qurishi sir emas. Biz ham ma‘ruzalardan keyin Rustam Sobirovichning xizmat xonasida qizg‘in suhbatlashganlarimiz, munozaralarga kirishganimiz kechagidek esimda.

Rustam Sobirovich ixtisosligi bo‘yicha sharqshunos bo‘lib, nomzodlik dissertatsiyasini tarix fanidan, doktorlik ishini esa iqtisodiyot bo‘yicha himoya qilgan edi. Kezi kelganda ilmiy tadqiqotlar yuzasidan ham bahslashar edik. Agar bildirilgan fikr-mulohaza asosli bo‘lsa, uni og‘rinmay qabul qilar edi. Yarim asrdan ziyod ilmiy faoliyatim davomida ko‘rgan-kuzatganlarimga tayanib aytsam, bu e‘tiborga molik fazilatdir. Zero, biror-bir ilmiy masalada keskin e‘tiroz u yoqda tursin, hatto andak farqli fikr aytsangiz ham, uni qabul qilmaydigan, o‘zining yanglish xulosasidan qaytmay oyoq tirab oladigan olimlar ham kam emas...

Sirasini aytganda, Rustam Sobirovich bilan o‘rtamizda o‘sha davrda kurtak otgan samimiy munosabat yillar mobaynida mustahkamlanib bordi, ikkimiz qayerda, qanday vazifada ishlashimizdan qat‘i nazar, o‘rtamizdagi o‘zaro hurmat va xayrixohlikka hech ham zarar yetmadi.

R. Qosimov 2001-yildan keyingi davrda ta‘lim tizimida mas‘ul lavozimlarda jonbozlik ko‘rsatdi. U Bosh vazir o‘rinbosari sifatida maktab va oliy ta‘lim muassasalari darsliklarini tayyorlash, chop etish va yetkazishdek mas‘uliyatli ishning boshida turdi.

Katta avlodning yodida, sovet davrida darsliklarning aksari, ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarga oidlari sobiq Markazda tayyorlanar, keyin o‘zimizda tarjima va tahrir qilinib, juz‘iy qo‘shimchalar bilan chop etilar edi. Nazarimda, o‘sha davr darsliklari saviya, sifat jihatidan yomon bo‘lmagan, chunki ular mutaxassis mualliflar tomonidan tayyorlangan, yillar mobaynida qo‘llangan, ilmiy lahjada aytsak, aprobatsiyadan o‘tgan edi. Mustaqillikdan keyin bu borada ham vaziyat o‘zgardi, barcha darsliklar o‘zimizda yaratilib, nashr qilinadigan bo‘ldi.

O‘sha yillari men “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti rahbari lavozimida ishlar edim. Besh-oltita maktab darsligi tender orqali bizning nashriyotga ham ajratilardi. Bu vaqtda hali mualliflar guruhi to‘liq shakllanmagan, o‘quv fanlarining mazmun-mundariyasi, hatto poligrafiya sifat-saviyasi ko‘pchilikni, hatto o‘zimizni ham unchalik qoniqtirmas edi. Nashriyotlar mualliflar jamoasi bilan darslik yoki o‘quv qo‘llanmasini yakunlab bosmaga uzatish vaqtida albatta aylanma mablag‘ muammosiga duch kelardi. Vaziyat zudlik bilan o‘nglanmasa, kitoblarni chop etib, o‘quv yili

boshlangunga qadar respublikaning chekka hududlaridagi maktablarga yetkazib berish kechikishi tayin edi. Shu munosabat bilan Rustam Qosimov o'tkazadigan tezkor majlislarda bot-bot yig'ilib turardik. Mashvaratda ikki-uch mas'ulning muammo yuzasidan axboroti tinglanib, Moliya vazirligi, Oliy hamda Xalq ta'limi vazirliklari, boshqa mutasaddi idoralar rahbarlariga shu yerning o'zida murojaat etilar, masalani hal qilish yo'llari axtarilar edi. Shu tariqa, ta'bir joiz bo'lsa, majlisga yelkamizda og'ir yuk bilan kirib, ancha yengil tortib, mamnun holda chiqar edik.

Xalqimizda "Vaqt aqchadir, g'ofil bo'lma, qochadir" degan maqol bor (ha, "Vaqt bu — pul" degan g'arbona qoida o'zimizga ham begona emas). Boshqalarning vaqtini o'g'irlamaslik, daqiqalarning qadriga yetish har bir inson, alalxusus, rahbarlar uchun ustuvor xislat bo'lmog'i kerak.

Rustam Sobirovich har qanday majlis-yig'inni belgilangan vaqtda kechikmay boshlar, ortiqcha rasmiyatchilik, behuda gap-so'zlarga berilmasdan, muddaoga — masalaning amaliy jihatiga o'tar edi. Ma'lumki, har qanday majlisning natijadorligi uni o'tkazishga tayyorgarlik va qo'yiladigan masalaning mohiyatiga yetib borishga bog'liq. Tadbirdan aniq maqsad belgilanmasa, u shunchaki xo'jako'rsin uchun o'tkazilsa, masala mavhum qolaveradi. Boz ustiga, muhim yumushlarini bir chetga surib azza-bazza yig'ilishga kelgan insonlarning ham qimmatli vaqti behuda ketadi. E'tiborga molik jihati, Rustam Sobirovich o'tkazadigan majlislar albatta natija bilan yakunlanardi.

U kishi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasiga rektor bo'lib kelgach, yana turli masalalar yuzasidan fikr almashib turdik. O'shanda akademiyaga o'zbek tilida ko'p jildli "Islom ensiklopediyasi"ni tayyorlab, chop etish

vazifasi yuklangan, bu o'ta zalvorli, nihoyatda mas'uliyatli loyiha edi. Turkiya, Eron va yirik arab davlatlarida amalga oshirilganidek, bizda ham keng qamrovli, mukammal, xalqaro mezonlarga javob beradigan ana shunday qomusni yaratish vaqti va zarurati yetilgan edi.

Biz ensiklopediyaning mazmun-mundarijasini belgilashda jahon qomuschiligi an'alaridan, mamlakatimizda orttirilgan tajriba va mavjud manbalardan ijodiy foydalanish, ilgari nomi va faoliyati keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan siymolarga doir qimmatli ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish, islom dunyosidagi asosiy maktab-u mazhablarga hurmat ila yondashish, birlamchi manbalarga tayanish, ilmiylik, xolislik va haqqoniylikni asosiy qoida sifatida maqsad qilib qo'ygan edik. Rustam Sobirovich rektorlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq ensiklopediyaning mazmun-mundariyasi, ilmiy konsepsiyasidan tortib uni tayyorlab chop etish imkoniyatlariga qadar — barcha-barchasi bilan qiziqdi. Bu ishda uning yetuk sharqshunos ekani, davlat maslahatchisi sifatida amaldagi siyosat va diniy-ma'naviy qadriyatlarimizdan yaxshi xabardorligi qo'l keldi.

Biror ishga kirishdimi, u har qancha murakkab va og'ir bo'lmasin, yakuniga yetkazmaguncha tinchimasdi. Mas'ul lavozimlarda ishlash davomida orttirgan arboblilik tajribasidanmi yoki o'zining xarakteridan kelib chiqibmi, yuqori rahbariyat huzurida ham muhim masalalarni dadillik bilan ko'ndalang qo'ya olar edi. Natija shu bo'ldiki, "Islom ensiklopediyasi"ning ilk jildi 25 ming nusxada sifatli chop etilib, barcha o'quv yurtlari, mahalla, masjid va madrasa kutubxonalariga bepul yetkazib berildi. Ijodiy jamoa qamishdan bel bog'lab, ko'tarinki ruh bilan keyingi jildlarni tayyorlashga kirishdi.

Darvoqe, Rustam akaga xos qattiqqoʻllik, choʻrt-kesarlik, gohida esa keskinlikka monand talabchanlik ayrimlarga yoqmagan boʻlishi mumkin. Rahbar mudom ogʻzidan bol tomib tursa, har doim qoʻl ostidagilarning boshini silasa, bunday munosabatni suiisteʼmol qiluvchilar ham topiladi. Hoynahoy, R. Qosimov ham xizmat taqozosi va ish samarasi vajidan qattiqqoʻl uslubni tanlagan boʻlsa kerak. Qolaversa, unga xos boʻlgan masalani hal qilishdagi dadillik, masʼuliyatdan qochmaslik, har qanday muammoni ortiqcha rasmiyatchiliksiz oʻz oʻrnida tezkor hal qilish boshqa mayda-chuyda jihatlardan ustun tuyulardi menga. Uning lugʻatida “Mayli, koʻrib chiqamiz”, “Bu masalani oʻrganish kerak”, “Masʼullarga topshiriq beraman” degan soʻzlar deyarli uchramas, ishni hech ham paysalga solmas edi. Oʻsha zahotiyoq qoʻyilgan muammo yechimiga kirishib ketar, ish yuzasidan oʻzi ham bevosita aloqaga chiqaverar edi. Ishning koʻzini bilgan, mushkul-murakkab yumushlarni ham dadil-dangal hal qiladigan rahbarlar boshqalarga ham gʻayrat-shijoatini yuqtirishi tabiiy. Rustam Qosimov ana shunday ishboshilardan edi.

Umr vafo qilganida Rustam Sobirovich yana koʻpdan koʻp xayrli ishlarni amalga oshirishi mumkin edi. Afsuski, hayotning past-balandini koʻrib, issiq-sovuqda obdan toblanib, avji balogʻat, kamolot fasliga qadam qoʻygan bir pallada oramizdan ketdi. Nachora, barchamiz Allohning bandalarimiz, hukmi ilohiyga boʻysunmaslikdan boshqa ilojimiz yoʻq. Doʻst-u yor, hamkasb-u hammaslak, shogird-u safdoshlarning koʻngliga taskin beradigan jihat shuki, Rustam Qosimov yetuk arbob va olim sifatida oʻzidan maktab qoldirib ketdi.

Hayot davom etadi. Yillar oʻtadi, milliy olim va rahbarlarimizning yangi avlodi yetishib chiqadi. Ammo

Rustam Sobirovichning yorqin siymosi, ayniqsa, mustaqillikni ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy mustahkamlash borasida qilgan ulkan xizmatlari davrdosh, davradoshlar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Koʻpchilik qatori men ham bunga aminman.



Muhammadjon Quronov,
pedagogika fanlari doktori,
professor

ORZULAR AMALGA OSHMOQDA

Biz, odatda, o‘zaro qarama-qarshi deb hisoblaydigan ba’zi xislatlarning bir kishi siymosida jam bo‘lishiga unchalik ishonmaymiz. Aytaylik, bir odam ham o‘ta mehribon, ham qattiqqo‘l bo‘lishi mumkinmi? Mumkin ekan. Men aynan shunday insonni bilar edim, yo‘q, nainki bilar edim, balki u bilan ko‘p yillar davomida hamkor-hamfikir, hammaslak bo‘lib ishlaganman. U kishining ism-familiyasi Rustam Sobirovich Qosimov edi.

Men qachon hazrat Alisher Navoiyning:

Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil, —

degan hikmatini o‘qisam, aynan Rustam Sobirovichni ko‘z oldimga keltiraman.

Darhaqiqat, u kishi buyuk shoir o‘gitlariga mos tarzda hayot kechirdi: ajoyib fazilatlar, go‘zal xulqi, el-yurtimizga sadoqati, mehnatkashligi, Vatanimiz ravnaqi yo‘lidagi samarali faoliyati bilan ko‘pchilikka o‘rnak va namuna ko‘rsatib yashadi.

Domla bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida tanishganmiz. Shundan so‘ng, mana, bir yigit umrichalik vaqt o‘tibdi. Biroq o‘sha tanishuv xuddi kechagidek yodimda qolgan: qaddi-qomati tik, sinovchan nigohlaridan qat’iyat, yuzlaridan allaqanday nur, yoshlikka xos g‘ay-

rat-u shijoat yog‘ilib turgan bir yigit qo‘limni mahkam siqdi:

— Salomatmisiz?..

Birinchi taassurotda gap ko‘p. Tanishdik va bu odam to umrining oxiriga qadar o‘sha-o‘sha viqor, salobat, o‘tkir nigohlari bilan xotiramga muhrlandi.

Rustam Qosimov Akademiyaning ilmiy kengashlarida dadil, konstruktiv chiqishlar qilar, birorta fikri odamda e’tiroz paydo qilmas edi.

Keyinchalik men domla bilan ko‘p yillar davomida birga ishladim. U kishi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri lavozimida ishlagan payti men o‘rinbosari, Bosh vazir o‘rinbosari bo‘lgan kezlari men Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi rahbari sifatida hamkorlik qildik.

Viloyat, tumanlarimizni oylab kezdik. 30 ga yaqin prorektor, rektor, vazir o‘rinbosarlari, mas’ullardan iborat sayyor ishchi guruh tuzilib, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni qishloqma-qishloq, uyma-uy yurib, o‘rgandik. Rustam Sobirovich — rahbar, men — shtab boshlig‘i edim.

Ushbu bitiklarni qog‘ozga tushirayotib, o‘sha suronli yillar shiddati, g‘ayrati, mashaqqatli mehnat zavqini qaytadan his etyapman.

Biz o‘sha vaqtlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri bo‘lgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning bevosita rahbarligida ishladik. Endi bilsam, aholi muammolarini uyma-uy yurib o‘rganib, dardiga darmon bo‘lish, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerakligi, mahallabay, xonadonbay, maqsad-manzilli ishlash g‘oyalari o‘sha yillari ijtimoiy eksperimentdan o‘tgan ekan.

Taniqli olimlar Sadriddin Turobjonov, Shuhrat Sirojiddinov, Abduxalil Mavkulov, Mansur Bekmurodov,

Otabek Bozorov va boshqalar bilan ko'rishib qolsak, "O'chmas u kunlar shuhrati!" deb, Rustam Sobirovich bilan birga qilingan ishlarni zavq bilan eslashamiz. Har bir hududni eng chekka qishloqlarigacha borib o'rganardik. Ish tongda boshlanib, tunda tugar, hamma charchar, lekin xursand edi. Har bir hudud o'rganilgach, alohida-alohida "Yo'l xaritasi" tuzilar, Bosh vazir tomonidan kerakli mablag'lar topib berilib, ijrosi ta'minlanar edi. Bu g'oyalar bugun keng ko'lamda amalga oshib, o'zining totli mevalarini berib, xalqimizni rozi qilmoqda.

Rustam Sobirovich davlat ishida qattiqqo'l, murosasiz, agarda ish yuzasidan tergas, noshud ijrochilarni muzlatib qo'yadigan talabchan rahbar edi. Chunki zimmasidagi burch shuni taqozo qilar edi. O'ziga yuklatilgan vazifani vaqtida, pishiq-puxta, ixlos bilan bajarganlarni rag'batlantirishni ham o'rniga qo'yar edi.

Men u kishida ko'rgan bir noyob fazilatni aytay. Ko'pchilik bilmas kerak, domla 4-5 ta xorijiy tilda bemalol so'zlasha olar, mohir tashkilotchi va diplomat bo'lish bilan birga, san'atsevar, o'zbek adabiyoti, she'riyatining muxlisi, hassos, qalbi nozik inson edi. (Rahmatlining o'zi ham ana shu "hassos" so'zini ko'p ishlatar edi.)

U kishi mening forsiydan xabardorligim, aruz vaznida she'r mashq qilishimni, ularning ba'zilar qo'shiq bo'lganini bilar edi. Bir kuni mavridi kelib, o'sha she'rlarimdan birini o'qidim:

*Hovlimizda ushbu kun, to'yi talbon¹, otamiz.
Yaxshilarning o'g'liga qaynota bo'lgan otamiz.
"Otdan o'g'il qolar", deb, qizlarini ranjitib,
Qiz uzatganda ko'zi yoshlarga to'lgan otamiz.*

¹ Samarqandda to'ydan uch kun o'tgach, qiz otasinikiga mehmon bo'lib keladi. Qudalar, qarindoshlar mehmon bo'ladi. Buni "talbon" ("charlar") deyishadi.

*Jon qizim, jonim qizim,
Jonimga darmonim qizim.
Otasining erkasi-yu
Endi mehmonim, qizim.*

She'rni o'qib bo'lib, Rustam Sobirovichga qaradim. U kishi hayajonli kayfiyatda o'tirardi. Men uning shunchalar nozik qalb sohibi ekanini bilmas ekanman. Keyinchalik ham bot-bot "Muhammadjon aka, "Jon qizim"ni o'qib bering", der edi...

Domla bir muddat O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasida ishlagan kezlari ham tez-tez ko'rishib, suhbatlashib turardik.

O'shanda ham oilaviy ajrimlar dolzarb muammo edi. Garchi bu masala u kishining faoliyati doirasiga bevosita kirmasa-da, beparvo qarab turmas edi. "Muhammadjon aka, nimadir qilishimiz kerak. Siz milliy g'oya markazi rahbarisiz. Milliy g'oyamiz yoshlarni oilani qadrlashga, qo'sha qarishga, halol-pok yashashga chaqirishi kerak emasmi?" — der edi jonkuyarlik bilan. Shu-shu, Rustam akaning tashabbusi bilan "Oilam baxtli bo'lsin", desangiz..." degan kitobim dunyoga keldi.

Kitob endi turmush qurayotgan yoki yosh kelin-kuyovlar, yosh ota-onalar uchun yaqin maslahatchi-qo'llanma bo'lib qoldi. Rustam Sobirovich kitobga "Jon qizim" she'rini kiritishimni tavsiya qildilar. Kiritdik. Chunki unda:

*Otalik pandim eshit, qilma faromush hech qachon,
Endi senga ikki ota, ikki ona mehribon.
Qaynotangni ota de, qaynonangni — onajon,
Rozi bo'lsa shavharing, men roziman ikki jahon, —*

degan satrlar bor edi. Chamamda, Rustam aka she'riy misralar yoshlar uchun quruq pand-u nasihatdan ko'ra ko'proq ta'sir etar, deb umid qilgandir, bilmadim.

Xalqimizga muhabbat, millat oldidagi farzandlik burchi, davlat va jamoat arbobi sifatidagi mas'ullik hissi Rustam Sobirovichni bir zum ham tark etmadi.

U kishi juda e'tiborli edi. Viloyatlarga borganimizda oddiy odamlar, yoshlarga ularning ismini aytib, hazil-lashib, hol-ahvol so'rab, gohida jo'rttaga nishonga, ya'ni "pushka"ga olib, hayajonli vaziyatlar yaratishga ham usta edi.

Haqiqiy vatanparvar, xalqparvar, namunali davlat xizmatchisi sifatida "Davlat topshirig'i — bu rizq", der edi. Bu gapdan keyin ko'p topshiriq olaverganidan ichida "uff", deb turgan ayrim ijrochilar ham ancha yumshar, ixlos bilan ishga kirishib ketar edi.

Rustam Sobirovich yosh davlat xizmatchilari uchun haqiqiy namuna edi. Nisbatan qiyinroq, murakkab topshiriqlarni obrazli fikrlar bilan tushuntirar edi.

Bugungi yoshlar biladimi-yo'qmi, domla tom ma'nodagi ziyoli inson, yetuk sharqshunos va iqtisodchi olim edi. U kishi arab mamlakatlari tarixi, Yaponiya iqtisodiy taraqqiyotini yaxshi bilar edi. Ayniqsa, eski, feodal Yaponiyaning Yangi Yaponiyaga aylantirgan Meydzi reformasi haqida gapirishni xush ko'rardi. "Yapon mo'jizasi"ning g'oyaviy, mafkuraviy, tarbiyaviy omillarini qiyosiy tahlil qilish, mos keladigan usul-uslublarni o'zimizga moslashtirib, foydalanish kerakligini ko'p ta'kidlardir.

Biz buning foydali ekanligini nazariy jihatdan bilar edik. Lekin 2024-yilning iyun oyida yapon milliy mafkurasini, milliy tarbiyasini o'rganish maqsadida Yaponiya bo'ylab tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyamiz davomida buni o'z ko'zimiz bilan ko'rdik.

Haqiqatan ham, "Yapon mo'jizasi" — kuchli iqtisodiyot va kuchli ma'naviyat birlashuvidan dunyoga kelgan ekan. Muxtasar aytganda, "Yapon mo'jizasi"ni yaratish milliy g'oyadan boshlangan. Ya'ni 1955-yili hukumat kunchiqar yurti yuksaltirishi mumkin bo'lgan 22 ta fazilatni alohida ajratib oladi. So'ngra maxsus milliy yo'riqnoma ishlab chiqilib, hayotga joriy etiladi.

Tarixan qisqa muddatda — 1972-yilda "Yapon mo'jizasi" sodir bo'lgan. O'sha mo'jizaga asos bo'lgan 22 fazilatni tarbiyalash hozir ham davom etmoqda.

Azizlar, yaxshi ko'rgan odamingiz dunyodan o'tsa, o'sha kuniyoq ming bir fazilati bilan ong-u shuuringizda qayta namoyon bo'lar ekan. Afsus bilan o'zinga o'zim "Nega "Yapon mo'jizasi" haqida domladan ko'proq bilim olib qolmadik?" — deymen.

Ayni vaqtda Yangi O'zbekistondagi islohotlar ba'zi jihatlari bilan aynan "Yapon mo'jizasi"ni eslatayotir. Demak, Rustam Sobirovichning, barchamizning orzularimiz amalga oshmoqda.



Shuhrat Sirojiddinov,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti rektori

OKSFORD QOCHIB KETMAS...

2003-yilning sentabr oyi edi. Bir ish bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga yo'lim tushdi. Kiraverishda Rustam Sobirovichga duch keldim...

Men u kishini talabalik davrimdan tanir edim. Biz Toshkent davlat (hozirgi O'zbekiston Milliy) universitetining sharqshunoslik fakultetiga o'qishga kirgan yillar Rustam aka Xorijiy sharq xalqlari tarixi kafedrasida ish boshlagan yosh o'qituvchi edi, bir-ikki yil oldin universitetni tugatib, chet elda amaliyot o'tab kelgan, talabalar orasida hurmati baland edi.

Yillar o'tdi. Rustam aka, rasmiy tavsifnomalarda aytilganidek, "mansab pillapoyalaridan asta-sekin ko'tarilib bordi", davlatimiz, hukumatimiz ishonchini qozonib, turli mas'ul lavozimlarda xizmat qildi.

Shuni ham aytib o'tishim lozim, u kishi bilan salom-aligimiz bo'lsa-da, munosabatlarimiz shunchaki tanish odamlarning munosabatidan farq qilmas edi. Rustam Sobirovichni bir ziyoli inson, davlat va jamoat arbobi sifatida hurmat qilar edim.

1998-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining xalqaro munosabatlar fakultetiga yo'llanma asosida o'qishga kirdim. Bilsam, fakultetimiz dekani Rustam Qosimov ekan. Afsuski, menga bu dargohda ko'p o'qish

nasib etmadi. Oradan uch oy o'tib, Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi raisining o'rinbosari — Samarqand bo'limi rahbari lavozimiga tayinlanib, qadrdon shahrimizga borib ishlashimga to'g'ri keldi.

Shu-shu, Rustam aka bilan besh yil davomida ko'rishmagan edik va mana bugunga nasib etgan ekan, uchrashib turibmiz.

Eski qadrdonlardek so'rashdik. Qisqa suhbatimizdan ma'lum bo'ldiki, Rustam Sobirovich yaqinda shu universitetga rektor etib tayinlanibdi. Men kuni kecha Buyuk Britaniyadan, Oksforddagi Islom tadqiqotlari markazidan qaytganimni, u yerda bir yil ilmiy tadqiqot olib borganim va tez orada yana shu markazga ishga ketishimni aytdim.

— Juda yaxshi, bu yerda ishingiz bitgandan keyin yonimga kirib o'ting, gap bor, — dedi u rektorat binosiga ishora qilib.

Bosh irg'adim-u, ichkariga kirdim. Ishim bitgach, rektor qabulxonasiga bordim. Rustam aka dangalchi odam edi, gapni aylantirib o'tirmas, darhol maqsadga ko'cha qolardi, bu gal ham shunday bo'ldi: "Shuhratjon, sizning maqolalaringizni o'qib turaman. Yaxshigina adabiyotshunos, eng muhimi, navoiyshunos bo'lib tanil-yapsiz. Birga ishlasak, nima deysiz? Jahon madaniyati va falsafa kafedrasini sizga topshirsam, ko'tarib berardingiz-da, ukajon".

Kutilmagan taklifdan quvonishimniyam, quvonmaslikniyam bilmay boshim qotib qoldi. Jomadonni tayyorlab chet elga ishga ketayotgan odamman, axir, bunisi qandog' bo'ldi endi...

"Qo'limda uch yillik shartnomam bor. Oksfordda meni kutishyapti", deganimni bilaman, Rustam Sobirovichning birdan qovog'i solindi.

— Hammangiz qochaversangiz, davlatni kim oyoqqa turg'izadi? Milliy-diniy qadriyatlarni tiklash, yoshlar orasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini yaxshilash kun tartibiga asosiy masala etib qo'yilgan, shuni tushunasizmi? Bu vazifani bajarish qo'lidan keladigan kadrlar oshib-toshib yotganida, men bu gaplarni, balki, gapirib o'tirmasdim. Bilaman, sen vatanparvar yigitsan, — deya o'sha, bundan yigirma yillar avvalgi "Rustam akamiz" bo'lib yaqin olib gapira boshladi domla, — ayni paytda davlat senga o'xshagan tushungan odamlarga, ilmiy, ziyoli kadrlarga muhojir, nahotki, shuni anglamasang... Oksford qochib ketmas, lekin mana bu ishlar qochib ketishi mumkin.

Rustam Sobirovich biroz norozi ohangda, ammo kuyunchaklik bilan gapirar ekan, borgan sari bu samimiy so'zlarga taslim bo'layotganimni his eta boshladim. Chindan ham, bu gaplarda aslo mubolag'a yoki yolg'on yo'q edi. Domla el-yurt taqdiri, ma'naviyat, milliy va diniy qadriyatlar bilan bog'liq o'tkir va dolzarb muammolar xususida yurak-yurakdan tashvishlanib so'zlardi.

Bu xavotirlar menga ham tanish, ayni shu muammolar meni ham o'ylantirar edi. Bo'ldi, dedim o'zimga o'zim, men davlatga kerak ekanmanmi, qolganim bo'lsin!

Rustam aka mening qarorimdan g'oyat mamnun bo'ldi. Shu kundan boshlab u kishi bilan yo'llarimiz tutashdi...

Rustam Sobirovich temir intizomni yaxshi ko'rar, mas'ullik bobida atrofida qilargalarga, shogird-u xodimlariga ibrat namunasi edi. O'zi ham qattiq mehnat qilar, boshqalarni ham ishlatar edi. U kishi uchun "dam olish kuni" degan tushunchaning o'zi yo'q edi, chamamda.

2006-yil Rustam Qosimov O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vaziri bo'lib ishlayotgan davrda universitetlarning yotoqxonalarini navbatma-navbat tekshirib yurardi. Belgilangan aniq vaqtda rektor va prorektorlarni to'plab,

dolzarb muammolar bo'yicha yig'ilish o'tkazishni kanda qilmasdi. Haqiqiy rahbar, fidoyi va mas'uliyatli inson sifatida zimmasidagi vazifa va vakolatni vijdonan, halol ado etishni o'zining burchi deb biladigan inson edi.

O'sha davrlarda mamlakatda hukm surgan og'ir ijtimoiy muhit, talabalarni turli diniy-ekstremistik yoki ma'naviy axloqsizlik ta'siridan asrash, barchani ham mavjud tahdidlarga qarshi doimo sergak turib, yoshlar orasida tushuntirish ishlarini muntazam olib borish, sog'lom muhitni shakllantirish uchun jonbozlik ko'rsatishga undardi. Vaziyatni keng tafakkur bilan chuqur va tub-tubigacha tahlil qilar, "Biz har bir masalani hujayrasigacha ko'rib chiqishimiz shart", degan fikrni qayta-qayta takrorlar edi. Bu hayotbaxsh o'g'it hozirgacha qulog'im ostida jaranglab turadi.

Men Rustam Sobirovich bilan ko'p yillar hamkorlik qildim. U kishidagi vazminlik, har qanday murakkab va og'ir vaziyatda ham sovuqqonlik va mas'uliyat bilan qaror qabul qilish, qizg'in bahs-munozaralarda teran bilim va nazokatini namoyon etishi menda havas uyg'otar edi. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha birinchi prorektor vazifasida ishlaganimda va keyinchalik boshqa oliy ta'lim muassasalarida ishlagan davrlarimda ham va ochig'i, hozir ham Rustam akaning oqilona maslahatlari kundalik faoliyatimda asqotib kelmoqda.

Rustam Sobirovich o'zining butun ongli hayotini davlat va xalq xizmatiga, ayniqsa, ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashga fidoyilik bilan bag'ishladi. Ayni mana shunday ezgu fazilatlar, go'zal xulq sohibi sifatida ko'pchilikning qalbida yorqin xotira qoldirgan ustozimizni Alloh taolo rahmat qilgan bo'lsin.



Shovosil Ziyodov,
tarix fanlari doktori,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro
ilmiy tadqiqot markazi direktori

DONO USTOZ, MEHRIBON MURABBIY

Davlat va jamoat arbobi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, ustoz Rustam Sobirovich Qosimov bilan 1993-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida arab filologiyasi bo'limida o'qib yurgan kezlarim tanishganman. O'shanda Rustam Sobirovich tarix fakulteti dekani edilar. U kishining dars berish uslubi boshqa ustozlarnikidan ajralib turardi. Qaysi mavzuda o'tmasin, birinchi navbatda, manbalarga e'tibor qaratar, shuning uchun talabalar u kishining ma'ruzalarini ishtiyoq va qiziqish bilan tinglar edi.

Shundan so'ng ancha vaqtgacha ko'rishmadik...

Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim bo'lib ishlab yurganimda, 2007-yil "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan Bosh vazir o'rinbosari boshchiligidagi katta guruh tuzilib, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlariga safarga borganimizda, Rustam Sobirovich bilan yana uchrashdik. Guruhimizda Abdujabbor Abduvohidov, Shuhrat Yovqochev, Baxtiyor Bobojonov, Abduvoit Ochilidiyev kabi ilm darg'alari ham bor edi. Farg'onada tasodifan mehmonxonada ko'rishib qoldik. Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim bo'lib

ishlayoganimni aytdim, xursand bo'lib, ilmiy ishlarimga omad tiladilar.

Keyin taqdir bizni 2016-yilda yana uchrashtirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida dastlab Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 2016-yil oktabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan 43-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqida so'z ochdi.

O'shanda davlatimiz rahbari Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada kengaytirish masalasiga urg'u berib, qator tashabbuslarni ilgari surdi. Ana shunday ezgu tashabbuslardan biri "Yurtimizda nafaqat islom madaniyati, balki umumbashariy sivilizatsiya rivojiga benazir hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ko'p qirrali diniy-ma'naviy merosini o'rganishga ixtisoslashgan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etishdan iborat" bo'ldi.

Mazkur anjumanning o'zida davlatimiz rahbari Markazning Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi yonida bunyod etilishi mantiqiy ish bo'lishini aytib, bu muassasa aynan shu yerda joylashishining bir qator sabab va omillarini sanab o'tdi.

Avvalo, bu — Samarqandning islom madaniyati durdonalaridan biri sifatida dunyo sivilizatsiyasidagi mumtoz o'rni. Shuningdek, eng buyuk musulmon mutafakkirlardan biri, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriyning tabarruk maqbarasi joylashgan ushbu mintaqaga xos bo'lgan alohida ma'naviy-ruhiy muhit.

Bu tashabbus Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar tomonidan yakdillik bilan qo'llab-quvvatlandi, Tashkilot Bosh kotibiyati ham katta xayrixohlik bildirdi. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi sessiyasi ishtirokchilarining aksariyati O'zbe-

kiston rahbarining taklifi g'oyat dolzarb va muhim ekanini ta'kidladi. Bu loyihaning amalga oshishi Sharq allomalarining tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishda O'zbekistonning IHTga a'zo davlatlar va uning huzuridagi tuzilmalar bilan faol hamkorligiga, tashkilot qamragan ulkan mintaqadagi ilmiy hamjamiyatlarda o'rtasidagi aloqalar rivojlanishiga xizmat qilishini qayd etdi. Qator delegatlar Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish va turli xorijiy hamkorlar bilan aloqa o'rnatishda yordam ko'rsatishga qat'iy tayyorligini bildirdi.

Buning natijasi o'laroq, sessiyada O'zbekiston tomonidan berilgan taklifga binoan, **“Imom Buxoriy xalqaro tadqiqotlar markazini tashkil etish to'g'risida”**gi maxsus rezolutsiya qabul qilindi.

Alhol, ishlar boshlanib ketdi va ko'p o'tmay, qator mutaxassislar safida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga chaqirildim. Bu majlis Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish masalasiga bag'ishlangan edi. Yig'ilishda raislik qilgan Rustam Sobirovich oldimizga shunday markazlar faoliyatini o'rganish, ular bilan atroflicha tanishish vazifasini qo'ydilar. Bir guruh mutaxassislar — Bahrom Abduhalimov (Fanlar akademiyasi), Otabek Akbarov (Tashqi ishlar vazirligi), Davron Qalandarov (Adliya vazirligi) bilan Turkiyaga xizmat safariga yuborildik. U yerda Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq qilish markazi — IRSIKAning o'sha vaqtdagi rahbariyati, ustoz professorlar Xolid Eren va Ashirbek Mo'minov bilan uchrashib, Markaz konsepsiyasi va maqsadlari haqida fikr almashdik, maslahatlar oldik.

Safar natijasi bo'yicha xulosa, taklif va g'oyalarni Rustam Sobirovichga taqdim etdik. Keyin Markaz loyihasi borasida Samarqanddagi Imom Buxoriy maj-

muasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda qator davlat va jamoat arboblari — muftiy Usmonxon Alimov, Rustam Qosimov, Ubaydulla Uvatov, Ravshan Abdullayev kabi olimlar, viloyat hokimi va qator mas'ul mutasaddi shaxslar davrasida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining birlamchi loyihasi taqdim etildi. Bir kun avval, taqdimotni tashkil etish jarayonida ustoz Rustam Sobirovich bilan ancha tayyorgarlik ko'rdik, hatto vaqt allamahol bo'lganini ham bilmay qolibmiz. Shunga qaramay, u kishi katta mas'uliyat bilan har bir masalani iker-chikirigacha e'tibor berib, eng mayda detallarni ham ko'zdan qochirmay, har bir jihatni qunt bilan tushuntirdilar.

Shundan so'ng, 2017-yil 27-mart kuni Prezidentimizning **“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi qarori qabul qilindi. Ko'p o'tmasdan, Imom Buxoriy majmuasi yonida qurilish ishlari boshlanib ketdi. Bunyodkorlik ibtidosi Markazning ichki mazmunini boyitish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqishni jadallashtirishni taqozo etardi. Rustam Sobirovich bu ishni siyosiy fanlar doktori, professor Zohidullo Munavvarov ikkimizga topshirdilar. Ustoz Zohidullo aka bilan qariyb 20 kun davomida birga ishlab, nihoyat, konsepsiya loyihasini tayyorladik. Markaz binosi ham qisqa muddatda qurib bitkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 11-yanvardagi Samarqand viloyatiga tashrifi asnosida milliy va zamonaviy me'morlik an'analarini o'zida mujassam etgan muhtasham inshoot foydalanishga topshirildi. Bu yerda tadqiqotchilar uchun barcha qulayliklar yaratilgan edi. Keng va yorug' xonalar barcha zarur texnik jihozlar, elektr va kommunikatsiya

vositalari, mebel va boshqa ashyolar bilan ta'minlangan, yuksak did bilan o'rnatilgan bo'lib, bu ishlarni tashkil etishda bevosita Rustam Sobirovichning ishtiroki salmoqli bo'lgan edi.

Alloma bobokalonlarni e'zozlash azaliy milliy qadriyatimiz hisoblanadi. Modomiki, buyuk ajdodlarimiz bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilgan, ularning dahosidan butun insoniyat, ayniqsa, bugungi insonlar keng foydalanayotgan ekan, bunday benazir mutafakkirlar bilan nafaqat faxrlanish, balki ularga munosib avlod bo'lishga intilish har birimizning muqaddas farzandlik burchimizdir. Buning uchun, eng avval, ularning maqsad-muddaolarini, kashfiyotlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini chuqur anglab yetishimiz va ularni zamonaviy talablar nuqtayi nazaridan rivojlantirishimiz, yangi-yangi kashfiyotlarni amalga oshirishimiz va ulug' bobokalonlar dahosini butun dunyo bo'ylab targ'ib va tashviq qilishimiz lozim.

Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining tashkil etilishi, bir tomondan, yurtimizda islomshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar yanada kengayishiga xizmat qiladigan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jahondagi turdosh muassasalarning olimlari bilan o'zaro, mintaqaviy va xalqaro miqyosda hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish, birgalikda ilmiy izlanishlar olib borish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish, sohaga oid xalqaro simpozium, seminar, ko'rgazma va boshqa anjumanlarni tashkil etish, shuningdek, xorijdagi tadqiqot jarayonlari bilan tanishish va o'zbek islomshunoslarining izlanishlarini jahon ilmiy maydoniga olib chiqishga yo'l ochadi, deb hisoblaymiz.

Davlat va jamoat arbobi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Rustam Sobirovich Qosimov hayot bo'lgan-

larida, shu kunlarda 70 yoshlarini nishonlab, Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyoti va Uchinchi Renessansni ro'yobga chiqarishga salmoqli hissa qo'shgan bo'lar edilar. U kishi boshlagan ezgu ishlarni sadoqatli shogirdlari muvaffaqiyat bilan davom ettirayotgani bizga taskin-tasalli bo'lmoqda.



Sadriddin Turobjonov,
texnika fanlari doktori,
professor, akademik,
ToshDTU rektori

FOZIL INSON HAQIDA SO‘Z

Davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sobiq maslahatchisi, olim va pedagog Rustam Sobirovich Qosimovni men o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtasida yaqindan taniganman.

Hozirgi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti qoshida ustozimiz Oqil Umrzoqovich Salimov tomonidan tashkil etilgan Malayziya davlatining iqtisodiy menejment fakultetiga 1994-yili yosh olim Rustam Qosimov dekan lavozimiga tayinlangan edi. Shu vaqtdan boshlab menga u kishi bilan birgalikda ishlash baxti nasib etgan.

Rustam Sobirovichni yaxshi bilgan inson sifatida ishonch bilan aytamanki, u o‘z hayotini faqat ezgulikka sarfladi. Chunki ezgulik inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi, Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo‘ladi. Ezgulik axloqiy barkamollik negizidir. U oliyjanoblik, mehr-oqibat, samimiyluk, saxiyluk, beg‘araz tuyg‘ularda o‘z ifodasini topadi. Umuman olganda, bu tuyg‘u ijtimoiy, shaxsiy xulq-atvor va xatti-harakatni ma‘naviy jihatdan baholashning muhim mezonidir.

Rustam Sobirovichning umrini hayot falsafasi nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, u kishi butun ongli hayotini ilm-

fanga, ta‘lim-tarbiyaga bag‘ishladi, ushbu sohalarga rahbarlik qilish bilan birga, mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlar tarbiyasiga, ularning yuksak ma‘naviyatli, vatanparvar insonlar bo‘lib kamol topishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi.

Men Rustam Sobirovichni xotirlar ekanman, ustozimiz, akademik Oqil Salimovning bir gapi yodimga keldi. U kishi shunday yozadilar: “Ma‘rifatli oilalarda kitobga e‘tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Inson o‘zining fikrlash qobiliyati, ma‘naviy dunyosi bilan tirik. Har kuni ota yoki onalardan biri bog‘cha yoshidagi farzandlariga yarim soat vaqt ajratib, unga biron kitobdan nimadir o‘qib bersa, bayramlarda kitob sovg‘a qilsa, o‘sha bolada o‘z-o‘zidan tafakkur qaymog‘i bo‘lgan asarlarga mehr uyg‘onadi”.

Rustam Sobirovichning ziyoli, kitobxon oilada tarbiya topgani u kishining muomalasidan, yuksak madaniyati, keng tafakkuridan bilinib turar edi. Bu oilani olimlar oilasi, desak, xato bo‘lmaydi, chunki otasi Qosimov Sobir Qosimovich, akasi Sodiq Sobirovich, opasi Ma‘rifat Sobirovna, singlisi Dilorom Sobirovna ham fan doktorlari, elimiz tanigan olimlardir.

Rustam Sobirovichning davlat va jamoat arbobi, zamonamizning yetuk iqtisodchi olimi sifatida shakllanishiga, avvalambor, o‘zining iqtidori, intiluvchanligi sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, oila muhiti ham beqiyos ta‘sir ko‘rsatgan edi.

Agar kimdir kelajakda mustaqil O‘zbekiston ta‘lim tizimi tarixini o‘rgansa, unda albatta Rustam Qosimov shaxsiga alohida to‘xtalib o‘tishi aniq, deb o‘ylayman. Zero, Rustam Sobirovich istiqlolning dastlabki yillaridanoq yurtimiz miqyosida ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida zamon

talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishlariga bevosita rahbarlik qildi. Bu borada u o'zining bilimi, shaxsiy tajribasigagina tayanib qolmasdan, jahon tajribasidan samarali foydalanishga ham e'tibor qaratdi.

Katta tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan R. S. Qosimov har jihatdan ibratli umr kechirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida kafedra mudiri, fakultet dekani, Bank-moliya akademiyasi rektori, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari va vazir, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, Prezident maslahatchisi kabi mas'ul vazifa va lavozimlarda ishlagani — u kishining tarjimai holini bezab turgan shunchaki oddiy ma'lumotlar emas. Bu ma'lumotlar ortida chekilgan qanchadan qancha mashaqqatlar, zahmatlar, bedor tunlar bor.

Tabiatan kuyunchak, fidoyi bu inson zimmasidagi vazifalarni hech qachon qo'l uchida bajarmagan, chunki u haqiqiy vatanparvar shaxs edi. Qaysi lavozimda ishlamasin, hamisha o'z ishiga chuqur mas'uliyat bilan yondashgan, natijaga erishish uchun intilgan. Uning tabiatidagi bu xususiyat tabiiy ravishda talabchanlik va qattiqqo'llikni taqozo etar edi. Qo'l ostidagilardan ham ortiqcha narsa talab qilmas, shunchaki o'z vazifasini to'g'ri va sifatli ado etishni so'rar edi.

Bor kuch-g'ayratini yurt taraqqiyotiga, millat ravnaqiga safarbar etgan Rustam Sobirovich Qosimov nafaqat yurtimizda, balki qo'shni davlatlarda ham yuksak hurmat va e'zozga sazovor bo'lgan atoqli shaxslardan biri edi. Uning samarali faoliyati chinakam ibrat maktabidir.

Darhaqiqat, Rustam Sobirovichning fazilatlari haqida uzoq to'xtalish mumkin, zero, u kishida barcha

yaxshi xislatlar mujassam edi. Kamtarin, mehribon, xushmuomala, tom ma'nodagi ziyoli, fozil inson Rustam Sobirovich Qosimovning yorqin xotirasini doimo ehtirom bilan yod etamiz.



Baxtiyor Mengliyev,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

CHINAKAM USTOZLIK QILGAN EDILAR

Har qanday muassasaning muvaffaqiyati, ravnaqi va barqaror ishlashi ko'p jihatdan rahbar va tashkilotchilarga bog'liq. Yaxshi rahbar nafaqat ma'muriy boshqaruv bilan shug'ullanadi, balki jamoa oldiga aniq maqsadlar qo'yib, unga erishish uchun, avvalo, o'zi o'rnak va namuna ko'rsatadi, qo'l ostidagilarga ilhom bag'ishlaydi.

Ilmiy va ta'lim muassasalarida bunday shaxslarning roli yanada muhim, chunki ular faqat tashkilot faoliyatini boshqarish bilan cheklanib qolmay, jamoaning intellektual rivojlanishiga ham imkoniyat yaratib beradi.

Rahbarlik va ilmiy yetakchilik orasida nozik, ammo juda muhim bog'liqlik mavjud. Oddiy ma'mur tartib va intizomni ta'minlashi mumkin, biroq haqiqiy yetakchi kelajak avlodlar uchun yo'nalish belgilaydi, ularga tizimli va izchil fikrlash asoslarini o'rgatadi, o'z bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etishga undaydi. Rustam Sobirovich Qosimov aynan shunday insonlardan edi.

U kishi mamlakatimizda ta'lim va fan rivojiga katta hissa qo'shgan rahbarlardan biri sifatida o'ziga xos iz qoldirdi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilganda uning ishini samarali yo'lga qo'yish, ilmiy yondashuv va metodologik tamoyillarni to'g'ri belgilashda Rustam Sobirovichning hissasi beqiyos bo'ldi.

O'qituvchi va olim faqat o'z bilimini tarqatish bilan cheklanmasligi kerak. U insonlarda ilimga, haqiqatni izlash va yangilik yaratishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'ota olishi lozim. Rustam aka aynan shunday yetakchilardan edi.

Men u kishi bilan universitet tashkil etilganda yaqindan ishlash sharafiga muyassar bo'ldim. Domla rahbar va o'qituvchilarni tanlov asosida saralab olishda mas'ullardan biri edi, biz — yangi universitet a'zolari, oldimizdagi vazifalarni tushunishimiz uchun ustozdan ko'p narsa o'rgandik. Rustam Sobirovich nihoyatda madaniyatli, jiddiy va qattiqqo'l inson edi. Uning o'ziga xos qat'iyati, har bir ishni mukammallik bilan bajarishga intilishi boshqalardan ajralib turardi.

Rahbar sifatida metodologiya va metodikaning muhimligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham universitetda ishlarni samarali olib borish, o'quv jarayonini tashkil etish uchun "Tarmoqli jadval" metodini joriy qildi. Bu metod bilan ilgari mutlaqo tanish emas edim.

"Tarmoqli jadval" usuli tashkiliy, o'quv-uslubiy ishlarga tizimli yondashish imkonini yaratdi. Bu usul rejalashtirish va bajarish bosqichlarini aniq belgilashga, vaqtni samarali taqsimlash va natijalarga erishishga yordam beradi. Ko'plar (ayniqsa, innovatsiyalarni yoqtirmaydigan, "eski hammom, eski tos" bilan ishlashni yoqtiradigan kishilar)ning bu usuldan ensasi qotar edi. Men esa yangi dekan sifatida bu metodning mohiyati va ahamiyatini tushunib oldim va o'z faoliyatimga tatbiq eta boshladim. Rustam Sobirovich bu boradagi qiziqishimni tezda anglab yetdi va shundan so'ng tez-tez menga murojaat qilar, maslahatlar berar edi.

Ustoz o'rgatgan tarmoqli jadval metodi keyin ham menga tinchlik bermay qo'ydi va ilmiy faoliyatimga katta

ta'sir ko'rsatdi. PhD va Dsc dissertatsiyalarini bajartirish uchun ikki xil tarmoqli jadval tuzib, shogirdlarimga tavsiya qildim. Rustam Sobirovich kabi ularga bu metod bilan ishlashni erinmay o'rgatdim.

“Tarmoqli jadval” (“Серевой график”) — vazifalar-ning tartibsiz oqimini tizimga aylantiradigan, maqsad sari ishonch bilan harakat qilish imkonini beradigan vosita. Odatda, u qurilish jarayonida qo'llanadi (buni ilk marta Qosimov domladan eshitgan edim). Shuning uchun jadvalga rioya qilinmagan holatlarda qurilishdagi ishlar o'lda-jo'lda qolib, tugallanmay, “tuya go'shti yeb” yotadi. Qurilishda tarmoqli jadval ish bosqichlari o'rtasidagi munosabatlarni kuzatish va loyihaning umumiy davomiyligini belgilaydigan muhim zanjirni aniqlashda qo'l keladi. Dissertatsiyani bajarishda u xuddi shunday — soat mexanizmidex ishlaydi.

“Tarmoqli jadval”da tadqiqotni bajarish ishlari yillar, choraklar, oylar, haftalar va kunlar kesimida taqsimlab chiqiladi:

1. *Yillar bo'yicha:* butun o'qish davri uchun belgilangan vazifalarni yillarga bo'lib taqsimlashga, ma'lumotlarni to'plash, materiallarni tahlil qilish, boblar-ni yozish kabi asosiy bosqichlarni aniqlashga yordam beradi.

2. *Choraklar bo'yicha:* bunda 1 yillik ish to'rtga bo'lib chiqiladi.

3. *Oylar bo'yicha:* har chorak ichida bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni oylar kesimida batafsil ko'rsatishga imkon beradi. Misol uchun, bir oyda siz ma'lum bir adabiyotlarni o'rganish, tajribalar o'tkazish yoki muayyan bo'limlarni yozishni rejalashtirishingiz mumkin.

4. *Haftalar bo'yicha:* har oylik ishni kichikroq (4 haftalik) bosqichlarga bo'lib, haftalar uchun vazifalarni belgilab olasiz.

5. *Kunlar bo'yicha:* ishni to'g'ri rejalashtirish uchun har kuni bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni taqsimlab, jadvalni kun darajasiga qadar batafsil bayon etasiz.

Dissertatsiya ishini bajarish uchun tarmoqli jadvalning afzalliklari quyidagilar:

vizualizatsiya: jadval sizga butun ish hajmini tasavvur qilish, bosqichlar o'rtasidagi munosabatni ko'rib turish va ularning bir-biriga qanday ta'sir qilishini tushunish imkonini beradi;

nazorat: jadval yordamida doimo yo'lingizning qay-rida ekaningizni, qaysi vazifalar allaqachon bajarilganini va qaysi biri bajarilishi kerakligini bilib turasiz;

vaqtni boshqarish: jadval vaqtingizni optimallashtirishga, vazifalar bo'yicha taqsimlash va kechiktirishning oldini olishga yordam beradi;

mas'uliyat: kutilmagan holatlarda ham belgilangan ishni bajarish mas'uliyatini eslatib turadi.

“Tarmoqli jadval”dan foydalanib dissertatsiya ishi xaotik oqimdan tuzilgan tizimli loyihaga aylantiriladi, bu nafaqat samarali ishlash, balki jarayondan zavqlanish imkonini ham beradi.

Xullas, metodni qo'llash natijalari juda yaxshi bo'ldi. Shogirdlarim o'z tadqiqotlari ustida aniq yondashuv asosida ishlay boshladi. Har bir bosqich oldindan rejalashtirilgani sababli natijaga tez erishish mumkin bo'ldi. Bu esa ilmiy muhitda g'oyat katta yutuq sanaladi.

Ilmiy jamoa ichida bu uslubning samarali ishla-yotganini ko'rgan hamkasblarim hayrat, havas, ayrimlari

esa hasad bilan kuzata boshlashdi (lekin afsuski, o'rganishmadi). Biroq muhim jihat shundaki, bu metod haqiqatan ham natija berar edi. "Sershogird Mengliyev"ning siri — mana shunda, ya'ni Rustam Sobirovich o'rgatgan tamoyilni amaliyotda ongli va maqsadli qo'llashda edi.

Rustam Qosimov keyinchalik O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasida rektor sifatida faoliyat yuritdilar. Bu davrda ham domlanning boshqaruv uslubi, ilmiy yondashuvi hamda intellektual salohiyati ko'plab insonlarga ta'sir o'tkazganini eshitar edim. Bir kuni u kishining huzurlariga atay borib, o'rganganlarim uchun minnatdorlik bildirishga qaror qildim. Meni qabul qildilar. Kirish suhbatidan — universitetni tashkil etish haqidagi xotiralarimizni o'rtoqlashganimizdan keyin "Siz menga bir masalada katta ustozlik qilgansiz, o'gitlaringiz asosida katta natijalarga erishyapman, shuning uchun minnatdorlik izhor etishga keldim", deganimda, u kishi jilmayib: "Rostdan ham shundaymi?" deb biroz hayron bo'ldilar... So'ng bu borada ancha suhbatlashdik.

Uchrashuv men uchun juda ahamiyatli bo'ldi. Zero, ilmiy yetakchilik va ustozlik inson hayotida o'chmas iz qoldiradi. Haqiqatan ham, ustoz o'zining tashkilotchilik faoliyati bilan ko'plab insonlar hayotiga yo'nalish bergan oliyjanob inson edi.

Ha, men bu fikrni qayta-qayta ta'kidlashdan charchamayman: rahbarlik faqat tashkilotni boshqarish emas, balki ilmiy va intellektual muhitni shakllantirish, avlodlarga yo'l ko'rsatish, yangi g'oyalarni ilgari surish hamdir. Rustam Sobirovich Qosimov ana shunday yetakchilardan edi. Uning metodik yondashuvlari, jumladan, ilmiy faoliyatimda katta rol o'ynagan "tarmoqli jadval" usuli men va shogirdlarim uchun muhim ilmiy tamoyilga aylandi. U

kishining qattiqqo'lligi, jiddiyligi va har bir narsaga falsafiy yondashuvi ilmiy rivojlanishimda muhim o'rin tutdi.

Haqiqiy ustozlar o'z ta'siri bilan shogirdlari hayotida chuqur iz qoldiradi. Rustam Sobirovich aynan shunday insonlardan edi. U kishiga Allohdan rahmat tilayman.

Oxiratingiz obod bo'lsin, ulug' Ustoz!



Zohidjon Islomov,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektori, filologiya
fanlari doktori, professor*

SO'NGGI DAMLARIGA QADAR...

Quvonch-u shodlik, tashvish-u g'am odamzodning doimiy yo'ldoshi. Ammo har kim ham ularni birdek qabul qilmaydi. Masalan, boshiga biron tashvish tushganda darhol o'zini yo'qotib qo'yadiganlar ham bor. Lekin tafakkuri keng, iymon-e'tiqodi mustahkam kishilar yaxshilikni ham, sinovli damlarni ham taqdirdan deb bilib, har qanday mushkul vaziyatda to'g'ri yo'l tuta oladilar, tushkunlikka tushmaydilar. Men o'z aql-u salohiyati, bilimiga tayanib yashaydigan bunday insonlarga havasim keladi.

Taniqli sharqshunos olim, davlat arbobi, diplomat, ustoz Rustam Sobirovich Qosimov ana shunday shaxslardan biri edi. U kishini ilk bor Toshkent davlat (hozirgi O'zbekiston Milliy) universitetining sharqshunoslik fakultetida uchratganman. Biz 1974-yili arab filologiyasi mutaxassisligi bo'yicha o'qishga qabul qilinganimizda Rustam aka shu yo'nalishda 3-kurs talabasi edilar.

Esimda, talabalikda ham u kishi juda serg'ayrat, a'lochi, tashkilotchi edi. O'zi, umuman, arab filologiyasi guruhi boshqa yo'nalish talabalaridan uyushqoqligi, hamjihatligi bilan ajralib turar edi.

Rustam aka bilan ikkinchi kursda Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumaniga paxta terimiga borganimizda yaqindan tanishganman. Paxta terimida Toshkent davlat universiteti fakultetlari o'zaro musobaqalashar, g'oliblik uchun barcha

kurs talabalari astoydil harakat qilar edi. Bu qizg'in jarayonning boshida katta kurs talabalari turar edi. Rustam aka fakultetimizning eng oldi, yetakchi talabasi sifatida bizni g'oliblikka boshlaganlari esimda.

Inson ham ilmga chanqoq, ham mehnatkash bo'lsa, qayerda bo'lmasin, albatta o'z o'rnini topadi. Nafaqat fakultet, balki butun universitetning eng ilg'or talabalaridan bo'lgan Rustam Qosimov o'zining harakatchanligi, faolligi tufayli 1976-yili Iroq davlatiga stajirovkaga yuborilgan, bir necha yil o'sha yerda ishlab malaka oshirib qaytgan edi.

U kishi uzoq yillar ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanib, oliy ta'lim muassasalarida turli vazifalarda faoliyat olib bordi. Xususan, aspiranturani tugatib, 1984-yili "Iroq Respublikasining tashqi siyosati va arab-isroil muammosi" mavzusida nomzodlik, 1998-yili "Iqtisodiy tizimlarning transformatsiyasi sharoitida milliy taraqqiyot modellarining shakllanishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Rustam Sobirovich O'zbekiston xalqaro islom akademiyasiga rektor etib tayinlanganida men ilmiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimida ishlar edim. Domla ishga kelgan kundan boshlab akademiyaning barcha yo'nalishlardagi faoliyatini yuksaltirish, xalqaro nufuzini oshirishga alohida e'tibor qaratdi. Prezidentimiz ushbu dargohga alohida e'tibor qaratayotgani, bu yerda ta'lim olib chiqadigan mutaxassislardan el-yurtimiz, davlatimizning umidi katta ekanini aytib, shunga yarasha mehnat qilishimiz zarurligini ta'kidladi. Bu chaqiriq bizga o'zgacha kuch-g'ayrat bag'ishladi.

Ma'lumki, xalqaro Times Higher Education (THE) agentligining "Impact Rankings" reytingida oliy ta'lim muassasalarining faoliyati BMTning Barqaror rivojlanish

maqsadlariga muvofiqligi asosida baholab boriladi. Rustam Sobirovich rahbarligi ostida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2021-yil mazkur reytingda jahonning eng yaxshi 1000 ta oliy ta'lim muassasasi qatoridan o'rin olishga muvaffaq bo'ldi.

Bu yutuq jamoamizga katta xursandchilik bag'ishladi, keyingi vazifalarni amalga oshirish uchun ilhom berdi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda diniy-ma'rifiy tashkilotlar uchun ilmiy kadrlar tayyorlash ishiga katta e'tibor qaratilmoqda, xususan, soha bo'yicha maqsadli doktorantura tashkil etildi. Nisbatan qisqa muddat ichida 20 ga yaqin tadqiqotchi islomshunoslik mutaxassisligi bo'yicha dissertatsiya yozib, muvaffaqiyatli himoya qildi.

Rustam Qosimovning Islom akademiyasiga rahbarligi pandemiya davriga to'g'ri keldi. Ma'lumki, o'sha kunlarda odamlarning nafaqat sog'lig'i, balki irodasi, matonati, sabri, iymon-e'tiqodi ham sinovdan o'tdi.

Rahmatli Rustam aka tabiatan kuyunchak inson bo'lgani uchun hamisha jamoa a'zolarining sog'lig'i bilan qiziqib turar, qo'lidan kelgan yordamini ayamasi edi. Xususan, o'sha qiyin damlarda koronavirus bilan og'rikan bir qancha xodim, professor-o'qituvchilarning kasalxonaga joylashib, shifo topishiga ko'maklashgani hanuz yodimizda.

Ustoz ilmparvar shaxs sifatida boshqa oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar taqdiriga ham befarq qaramas, ularning yutuqlari haqida eshitib qolsa, chin dildan quvonib, e'tirof etar edi. O'z o'rnida biz ham buni o'zimiz uchun navbatdagi da'vat sifatida qabul qilar, talabalari-mizni yanada ko'proq o'qish, izlanishga chorlar edik.

2021-yilning fevral oyi oxirlarida Startup loyihalar tanlovining respublika bosqichi o'tkazildi. Unda Xalqaro islom akademiyasining mumtoz sharq filologiyasi fakulteti

talabasi "Milliy qo'g'irchoqlarni innovatsion usulda ishlab chiqarish" mavzusidagi loyihasi bilan ishtirok etishi kutilayotgan edi. Buni ustozga SMS orqali ma'lum qilganimizda, u kishi bemor holida ham bu voqeani e'tiborsiz qoldirmadi va menga talabaga zarur yordamni berish kerakligini ta'kidlab, xabar yozdi.

2021-yil 9-aprel kuni akademiya pandemiya ke-yingi ilk offlayn darslar boshlanishi kerak edi. Bu paytda ustoz kasalxonada edilar. Shunday bo'lsa ham, menga: "9-aprelda boshlayveringlar", "Qat'iy intizom ta'minlan-sin, davomat 100 foiz bo'lishi shart. Barcha yo'nalishlar istisnosiz", deb yozib yubordilar. O'qish boshlandi.

Ertasi kuni, ya'ni 10-aprelda akademiya kengashi yig'ilishi bo'lishi kerak edi. Ustoz menga: "Ertaga Ilmiy kengashni o'zingiz rais bo'lib o'tkazing", "Saylovga oid hujjatlarni yurist va boshqalar bilan puxta ko'rib chiqinglar", deb yozdilar. Men: "Xo'p bo'ladi", dedim va sog'liqlarini so'radim. U kishi: "Ancha yaxshiman, shukur", deb javob jo'natdilar.

Kengash majlisini o'tkazishimiz bilan soat 18:42 da domla "Kengash yaxshi o'tdimi?" deb yozdilar. Men ularga batafsil hisobot yubordim. Bu bizning Rustam Sobirovich bilan oxirgi yozishmamiz bo'ldi. Buni qarangki, u kishi haqiqiy vatanparvar, fidoyi inson sifati-da umrining so'nggi damlariga qadar o'zining shaxsiy manfaatlarini o'ylamasdan, ilm-fan, ta'lim haqida qay-g'urib yashadilar.

Men Rustam Sobirovich Qosimovni ham do'st, ham ustoz, ham rahbar sifatida qadrlar edim. Xizmat jarayonida, yoshlar bilan suhbatlarda u kishini hamisha namuna qilib ko'rsataman.

Yaratgan egam ustozning qilgan xayrli amallari, savobli ishlari ajrini bersin.

Jannat Ismoilova,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi, tarix
fanlari doktori, professor,
O'zbekiston tarixi davlat
muzeyi direktori

OLIIYJANOB QALB SOHIBI

Insonlarga bo'lgan munosabat yillar davomida shakllanib boradi. Har kim qilgan ezgu ishlari, ilm-u ma'rifati, ma'naviy olami bilan atrofdagilar mehrini qozonishi mumkin.

Rahmatli Rustam Sobirovich Qosimovni tanigan vaqtimdan boshlab, u kishi haqidagi fikrlarim yillar davomida faqat ijobiy tomonga o'sib bordi. Yosh, navqiron Rustam akamiz to xalqqa tanilib, ilm-fan va davlat arbobi sifatida nom qozongan kezlarida ham o'sha-o'sha ziyoli, oliyjanob, yuksak madaniyatli insonligicha qoldi.

Bugun o'ylayman, demak, hamma narsa odamning o'ziga bog'liq ekan-da. O'z qadrini bilgan, bu dunyoda hamma narsa o'tkinchi ekanini anglagan kishi hech qachon o'zligini yo'qotmaydi.

Tarjimayi hollarini o'qib ko'rsam, Rustam Sobirovich bir inson hayoti davomida erishishi mumkin bo'lgan juda ko'p yutuqlarni qo'lga kiritgan ekan. Universitetda dars berib, ustozlik rutbasiga erishgan, xorijiy mamlakatlarda tarjimonlik qilgan, vazir, Bosh vazir o'rinbosari, Prezident maslahatchisi, rektor lavozimlarida ishlagan. Albatta, bu mas'uliyatli vazifa va lavozimlarda u kishi bor bilimi, tajribasini ayamasdan, el-yurtimizga sidqidildan

xizmat qilgan edi. Shu o'rinda men, soha vakili sifatida, O'zbekistonda yangi muzeylar barpo etish va ularni mazmunli ekspozitsiyalar bilan boyitish, xususan, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyini tashkil etish, Islom sivilizatsiyasi markazi konsepsiyasini yaratishda Rustam Sobirovichning hissasi katta bo'lganini e'tirof etishni lozim deb hisoblayman.

Ammo Rustam Qosimovni — Rustam Qosimov qilgan omil bu faqat professional faoliyati emas, avvalo, oliyjanob insoniy xislatlari edi.

2017-yil hayotimda eng quvonchli va unutilmas voqealardan biri yuz berdi. Mustaqillik bayrami arafasida Prezidentimiz farmoniga ko'ra, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlandim. O'sha kunlar muzeyimizda bir guruh olimlar bilan birgalikda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi konsepsiyasi ustida ishlayotgan edik. Hammalari meni tabriklashdi. Rahmatli ustozimiz, mashhur sharqshunos olim Ubaydulla Uvatov ham shu yerda edilar, meni chin dildan qutladilar.

Shaxsan davlat rahbari topshiriqlari asosida ishlab chiqilayotgan konsepsiya har jihatdan puxta bo'lishi kerak edi. Shu bois bir necha kun davomida ustoz va hamkasblar bilan hamjihat bo'lib mehnat qildik.

Ish bahonasida ilm-fan namoyandalari bir-birlarining oilaviy hayotlaridan ham yaqindan voqif bo'lishdi. Bir suhbatda Ubaydulla Uvatov domlaning ayollari xasta ekanini eshitib qoldim.

Albatta, ilm ahli orasida zahmatkash va fidoyi insonlar ko'p. Lekin Ubaydulla akaga o'xshagan butun umrini O'rta asr allomalari, Imom Buxoriy faoliyatini tadqiq etishga bag'ishlagan olimlarimiz sanoqlidir.

Ertasiga jarayondan xabar olgani kelgan Rustam Sobirovichga bu haqda ma'lum qilganimda, u kishi bir

lahza ham o'ylab o'tirmasdan, domlaga albatta yordam berajaklarini aytdilar va so'zlarining ustidan chiqdilar.

Ilm-fan ahli, taniqli insonlargina emas, oddiy yurtdoshlarimiz orasida ham Rustam Sobirovichdan yaxshilik ko'rganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bir qarashda arzimadek ko'ringan, ammo inson hayoti, taqdiri bilan bog'liq — kimnidir ishga yoki shifoxonaga joylashtirish, ilmiy, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi yoki davolanishiga sharoit yaratib berish singari xayrli ishlar rahmatli Rustam akaning ezgu amallar daftaridan munosib o'rin egallaganiga shubha yo'q.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, yetuk olim, kamtarin va samimiy inson Rustam Qosimovning ezgu ishlari barchamiz uchun o'rnak namunasidir.



Sohibjon Alijonov,
jurnalist

BIR YAXSHILIK TARIXI

Yaxshilik yurakka muhrlanarkan, yillar o'tsa-da, yoddan chiqmaydi. Hayotimda ko'p yaxshi odamlarga duch kelganman, ko'p yaxshiliklar ko'rganman. Ulardan biri rahmatli Rustam Qosimov edi.

Ochig'i, Rustam aka haqida har kim har xil gapiradi, lekin u kishining menga, to'g'rirog'i, aziz bir odamimga qilgan yaxshiligi hali-hamon esimda.

O'shanda 2004-yilning dekabr oyi, Talabalar shaharchasida "Ma'naviyat markazi"ning ochilishiga jadal taraddud bo'layotgan edi. Ayniqsa, ochilish marosimiga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov kelishi kutilayotgani sababli tayyorgarlik ishlariga katta kuch, ko'pchilik jalb qilingan edi. Xizmat taqozosiga ko'ra men ham ularning safida edim. Qiladigan ishimiz — yangi markazning jihozlanishiga, tashrif dasturining ko'ngildagidek tuzilishiga ko'maklashamiz, kerak joyida yo'l-yo'riq ko'rsatamiz.

Ishboshimiz, o'sha paytda Bosh vazir o'rinbosari bo'lgan Rustam Qosimov, deyarli har kuni o'sha yerda. Ertalab bir, kechki payt bir u kishining boshchiligida qisqa yig'ilish bo'ladi. Qilingan ishlarning saragi sarakka, puchagi puchakka ajratiladi, yangi topshiriqlar beriladi.

Shunday yig'ilishlarning birida qo'l telefonim jiringlab qoldi, qarasam, qishloqdan ayam telefon qilyaptilar. Olay desam, buyoqda Rustam aka gapirib turibdilar. Xijolat bo'lib, asta ko'zim bilan imo qilib, tashqariga chiqishga izn so'radim. Bosh irg'ab, ruxsat berdilar.

Chiqib gaplashsam, ayam ovozida tashvish, noxush xabar aytdilar: “Sohibjon, dadangning anchagina mazasi bo‘lmay qoldi. Oshqozon yarasi ochilib ketibdi, qon to‘x-tamaypti. Hozir kasalxonadamiz, do‘xtirlar, bo‘lmaydi, deyishyapti.

Men Toshkentga, o‘g‘limning oldiga olib boraylik, u biror chorasini topar desam, yetkazib bora olmaysizlar, deyishyapti”, dedilar yig‘i aralash.

Ayam gapiryaptilar-u oyoq-qo‘lim muzlab, boshim g‘uvullab boryapti. Amallab o‘zimni qo‘lga oldim-da, “Tez yo‘lga chiqinglar, ungacha men kasalxonani hal qilib qo‘yaman”, dedim. Lekin, ochig‘i, qayerga olib borishni, qaysi kasalxonaga joylashni bilmayman.

Shu yerda bir narsani aytay, u paytda nomi ulug‘ idorada ishlasak ham, “supramiz ancha quruq”, qo‘l kalta, uncha-muncha amaldor gapimizni olavermas edi. Boshim qotganining sababi ham shundan. Xudo bir yo‘lga boshlar, degan o‘yda ichkariga kirib, joyimga o‘tirdim.

Kimlar nimalarni gapirayotgani qulog‘imga kirmaydi, xayolim joyida emas. O‘n-o‘n besh daqiqa o‘tib, ayam yana telefon qildilar. Yana imo-ishora bilan ruxsat olib, tashqariga chiqdim. Ayam yo‘lga chiqishayotganini aytib, qayerga boraylik, uygami yo to‘g‘ri kasalxonagami, deb so‘radilar. Uyga kelaveringlar, dedim. Chunki, o‘yim oxiriga yetmagan, qaysi kasalxonaga borishimiz haliyam noaniq edi.

Yana ichkariga kirsam, majlis tugab, Rustam aka uch-to‘rt kishi bilan gaplashib turgan ekanlar. Menga ko‘zi tushib, “Ha, Sohibjon, nima gap? Nega bezovta bo‘lib qoldingiz?”, deb so‘radilar.

Rang-ro‘yimdan noxushlik bo‘lganini sezgan ekanlar. Garchi u kishi Bosh vazir o‘rinbosari, men oddiy xodim bo‘lsam ham, hozir tortinchoqlikning o‘rni emas, gap

otamning hayoti ustida edi. Shunday-shunday vaziyat, aytdim. “Xo‘sh, qayerga olib bormoqchisiz?”, dedilar. “Statsionar”ga olib borsammikan, deb turibman”, dedim (ishxonamiz hukumat shifoxonasi, oddiy tilda “statsionar”ga birlashtirilgan edi). “Bo‘lmaydi”, dedilar qat‘iylik bilan.

“Gapingizga qaraganda, dadangizni tez, operativ davolash kerak. Statsionarda unday imkoniyat yo‘q. Ularni “Tez tibbiy”ga olib borasiz”, dedilar.

Ochig‘i, Chilonzorda shunday Markaz borligini bilardim-u, lekin shu paytgacha ishim tushmagan edi. Xayolimdan “Qanday bo‘ladi, kimga uchrayman?”, degan savollar kechdi. Ikkilanayotganimni sezgan Rustam aka shartta telefonini oldi-da, o‘sha paytdagi Sog‘liqni saqlash vazirining raqamlarini terdi.

Vazir telefonni olgach, mendan dadamning ism-familiyasi, qachon yetib kelishlarini so‘rab oldi-da, unga “Falon vaqti shunday-shunday kasalni olib borishadi, nazoratga olinglar”, deb topshiriq berdilar. Oradan uch-to‘rt soat o‘tib, uydagilar yetib kelishdi. Dadamning ahvoli haqiqatan ancha og‘ir edi. “Tez tibbiy”ga “uchib” bordik. Baraka topishsin, doktorlar kutib turishgan ekan. Darrov reanimatsiyaga olib, dori-darmonni kuchaytirishdi. O‘n kun deganda oyoqqa qo‘yishdi. O‘n birinchi kuni, aniq esimda, 31-dekabrda uyga olib ketdim, yangi yilni birga kutib oldik.

Shunday qilib, boshida doktorlar “Toshkentga yetib bora olmaydi”, degan dadam yana 11 yil yashadilar va oshqozoni qaytib bezovta qilmadi.

(Muallifning “Bizni qaritilmas yillar, zamonlar...” kitobidan olindi)



Naim Hasanov,
sharqshunos

OLIMLIG-U ODAMIYLIKDA PESHQADAM

1972-yil 18-avgust hayotimdagi eng baxtli kunlardan biri bo'lib qolgan. O'sha kuni men Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)ning sharqshunoslik fakultetiga o'qishga kirish baxtiga muvaffaq bo'lganman.

O'qish boshlangach, bor-yo'g'i uch kun o'tib, o'sha vaqtdagi tartib-qoidaga asosan fakultet rahbariyati 1-kurs talabalarini meva-sabzavot terimiga safarbar etdi. Toshkent viloyatining Qibray tumaniga yo'l oldik. Shu yerda kursdoshlarim, jumladan, Rustam Qosimov bilan yaqindan tanishdim. Qalblarimiz chin do'stlik rishtalari ila bog'landi.

O'rta bo'yli, istarasi issiq, sochlari qalin, kirishimli, so'zga usta bu bola hazilkashligi bilan hammaning e'tiborini o'ziga tortar edi.

Sentabr oxirida o'qish boshlangach, biz Eron-afg'on tillari, Hind tili, Sharq davlatlari tarixi kabi turli kafedralarga taqsimlandik. Taqdir taqozosi bilan Rustam ikkalamiz Arab filologiyasi kafedrasining ikkinchi guruhiga tushdik. Bizdan tashqari guruhimizda yaqin do'stlarim — Muhiddin Nizomov, Abdunabi G'afforov, andijonlik Abdug'affor Toshmatov, Shoista Yusupova, rahmatli Solih aka Islomov va Abror Rahimovlar o'qir edi.

Talabalik davrimizda biz rahmatli ustozimiz Akbar aka Umarovdan arab tili saboqlarini oldik. Akbar aka bu tilni mukammal bilar, arab shevalari bo'yicha yirik mutaxassis edi. Olgan chuqur bilimlarimiz tufayli Rustam, Muhiddin,

Abdunabi, Abdug'affor va men turli arab davlatlari (Misr, Iroq, Suriya, Yaman, Jazoir)da ko'p yillar davomida tarjimon sifatida muvaffaqiyatli ishlab keldik.

Kursimizdagi yigit-qizlarning aksariyati o'qishni yaxshi ko'radigan, a'lo baholarga o'qiydigan talabalar edi. Ularning ichida Rustamjon bilimga chanqoqligi, qiziquvchanligi, fakultet va universitetning ijtimoiy hayotida faolligi bilan alohida ajralib turardi.

Biz gohida bir inson haqida dil so'zlarini aytar ekanmiz, "Falonchibek mohir tashkilotchi bo'lib yetishdi", deymiz va shu tariqa uning bu fazilatini e'tirof etgan bo'lamiz.

Menimcha, hech kim tashkilotchi bo'lib yetishmaydi, bu xislat odamda tug'ma bo'ladi.

Rustamjon yoshligidan ana shunday ajoyib sifatga ega edi. Universitet, fakultet hayotida qanday faol, tashabbuskor bo'lganini aytdim. Do'stimning bu xislati biz, kursdoshlari, og'aynilari davrasida ham asqotar edi. Bo'sh qoldik deguncha do'stlarni yig'ib, kutilmagan tadbirlarni uyushtirib yuborardi.

1975-yilning fevral oyida oilamizda kutilmagan fojia ro'y berdi. 10-sinfda o'qiydigan 17 yoshli singlim to'satdan vafot etdi. Shu og'ir kunlarda yonimda eng yaqin do'stlarim yelkadosh bo'lib turishdi. Ayniqsa, Rustam, Muhiddin va Abdug'affor barcha ishlarini chetga surib, hatto o'qishdan ham ruxsat so'rab, qishning ayozli sovug'iga qaramasdan, barcha ma'raka tadbirlarida yonimda bo'lishdi.

Mehnat qilgan, o'z oldiga aniq maqsadlarni qo'yib, intilgan odam hayotda albatta ko'p marralarni zabt etishi mumkinligini Rustamjon misolida ko'rdim.

Do'stim nihoyatda tirishqoqligi, doimiy izlanishlari tufayli dastlab nomzodlik, keyin doktorlik dissertatsiyasini

yoqlab, avval dotsent, so'ngra professor unvonlariga musharraf bo'ldi. Uning eng yaxshi xususiyatlaridan biri — qandaydir ishni boshladimi, uni puxta, bekam-u ko'st bajarar va albatta oxirigacha yetkazar edi.

Qardoshimning yana bir jihatini aytmasam bo'lmaydi. Bu — hozirgi ayrim yoshlarga o'rnak bo'ladigan hodisa. Ya'ni, ko'p ko'ramiz, birorta chet tilini chala-yarim o'rganib olganlar darhol ona tilini buzib gapirishga o'tadi. Iloji bo'lsa, o'z tilida gaplashmaslikka harakat qiladi. Bu juda xunuk odatdir.

Rustam Qosimov rus maktabini bitirganiga, keyinchalik arab, ingliz tillarini ham puxta o'rganganiga qaramasdan, o'zbek tilida chertib-chertib, bexato va ravon gapirar edi. Nutqida, agar juda zarur bo'lib qolmasa, xorijiy so'zlarni deyarli ishlatmasdi.

U hayoti davomida yuqori lavozimlarda ishladi, yoshlarga saboq berdi, olimlik rutbasiga erishdi. Yuksak darajadagi xalqaro anjumanlarda vatanimiz nomidan qatnashib, o'zbek, ingliz, arab va rus tillarida ma'ruzalar qildi.

Bularning barchasiga u o'ziga ato etilgan iste'dod va salohiyat, ota-onasining tarbiyasi, duolari bilan erishdi.

Do'stimning ota-onasiga bo'lgan munosabatiga havas qilar edik. Chinakam g'amxo'r, mehribon, qobil farzand edi.

Esimda, qayerda ishlashi, davlat va hukumat vazifalari bilan nechog'lik mashg'ul ekaniga qaramasdan, hamisha vaqt topib, birrov bo'lsa ham muhtarama onasini albatta ziyorat qilib, duolarini olib, keyin ishga ketar edi. Xizmat safarlaridan qaytganda esa aeroportdan to'g'ri mushfiq volidasining huzuriga borib, hol-ahvol so'rab, so'ng uyiga yo'l olardi.

Rustam Sobirovich Qosimov odamiylikni, do'stlikni hayot qoidasiga aylantirgan, yaqinlarining, jo'ra-yo'ldosh-

larining qadriga yetadigan, insonlarga qo'lidan kelgan yordamini ayamaydigan ajoyib shaxs edi.

Nomi hamisha e'zoz va ehtirom bilan tilga olinadigan do'stimizni Yaratgan rahmatiga olib, barcha ezgu amallarini o'ziga hamroh aylasin. Omin.



A'zamxon Karimov,
Rustam Qosimovning bolalik do'sti

YAXSHIDAN BOG' QOLDI

Bolalik va o'smirlik yillarida orttirgan eng katta boyling — haqiqiy do'stlaring bo'lar ekan.

“Uzma do'stlik torini, saqlash qiyin, do'st bo'lish oson, uni asrash qiyin”, deganlaridek, biz Rustamjon bilan bolalikda do'stlashgan bo'lsak, butun umr o'sha qadrdonlik, aka-ukachilik rishtalarini asrab-avaylab yashadik.

Do'stimning noyob xislatlari bor edi. U tug'ma jonkuyar odam edi. Biror kishining muammosi haqida eshitib qolsa, albatta uning tashvishini yengillatishga harakat qilar, o'zi ham suhbatini soz, kishilar qalbiga yo'l topa olish qobiliyati kuchli edi.

Ilm, shubhasiz, insonni yuksaltiradi. To'rt kishi suhbatlashib turgan bo'lsa, o'zini tutishi, gap-so'zlari, chehrasidan qaysi biri ilmliroq ekanini sezish mumkin. Chunki olimning yuzida o'zgacha nur balqib turadi.

Rahmatli Rustamjonning chehrasida ana shunday munavvarlik bor edi. U hayotida nimagaki erishgan bo'lsa, ilm-ma'rifati, yuksak insoniy fazilatlarini tufayli erishdi, deb o'ylayman.

Bugun do'stimni xotirlayotib, yoshlik yillarimiz, ikki o'spirin oshna goh ularnikida, goh biznikida yotib qolib, yozning iliq oqshomlarida so'rada osmonga termilgan, kelajak haqida surgan xayollarimiz yodimga tushmoqda.

Vaqt-soati kelib, bu beg'ubor orzu-niyatlarimizga erishish yo'lida oliygohlarga yo'l oldik.

Rustamjon Toshkent davlat universitetining sharq-shunoslik fakultetiga, men Toshkent xalq xo'jaligi institutiga o'qishga kirdik.

Qadrdonim universitetni tamomlab, mehnat faoliyatini Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligining Toshkent suv xo'jaligi institutida boshlab, keyinchalik bir necha yil davomida xorijiy mamlakatlarda arab tili tarjimoni bo'lib xizmat qildi.

U paytlarda hozirgidek mobil telefonlar yo'q, shu bois ikki do'st bir-birimizga xat yozishib turar edik. Rustamjonning maktublari ikki-uch varaqdan kam bo'lmas, unda albatta o'zi, ish faoliyati, chet eldagi hayoti haqida qiziqarli ma'lumotlar bo'lar edi. Men ham javoban o'zim, shahrimiz, oshna-og'aynilar haqida yozib yuborar edim.

Bir safar javob xatlarimda doim bir xil narsalar haqida yozayotganimni payqab qoldim. Qandaydir ajabtovur gaplar bilan do'stimni quvontirgim keldi va “Mushtum” jurnalida chop etilgan latifalar, “Bir qaynovi ichidagi gaplar”dan uch-to'rt bet qilib ko'chirib, konvertga joylab jo'natib yubordim.

Oradan 15–20 kunlar o'tib, Rustamjondan xat keldi. U latifalarni maroq bilan o'qiganini yozibdi. Musofirchilikda yurgan do'stimni shu tariqa xursand qilganimdan o'zim ham sevindim.

1981-yil 21-noyabr kuni Rustamjon uylandi. To'y poytaxtning Degrez mahallasidagi ota hovlisida bo'ldi. Bu baxtiyor damlarda otalari — yirik iqtisodchi olim, Toshkent xalq xo'jaligi institutining iqtisodiy kibernetika fakulteti dekani lavozimida ishlagan Sobir Qosimov hayot edilar. U kishining oq fotihalari bilan to'y juda chiroyli va fayzli o'tdi.

Bu ajoyib kunda menga mas'uliyatli vazifa — kuyovjo'ralik topshirildi.

Shu-shu, oradan qancha yil o'tdi hamki, Rustamjon mening bu "rutbam"ni hamisha eslab-eslatib yurdi. Qayerda, qanday davrada ko'rishib qolsak, meni odamlarga: "Bu mening eng yaqin do'stim, ismlari A'zamxon, kuyovjo'ram" deb tanishtirar, oqibatli do'stim borligidan men ichimda yayrab qo'yar edim.

Do'stim bilan tez-tez uchrashib, fikr almashib turar edik. Oilaviy tadbirlarimizda ham yonma-yon turib, bir-birimizga yelkadosh bo'lar edik.

Yigitning baxti, eng avvalo, o'z oilasida, o'z xonadonidan boshlanadi degan gaplar bejiz emas. Rustamjon Qosimov havas qilsa arziydigan oila sohibi edi. Jufti haloli Dilbarxon bilan farzandlari Erkinjon, Yolqinjon, Otabek va bir qancha nabiralarini oq yuvib-oq tarab, yaxshi, o'qimishli, o'zlaridek ziyoli insonlar etib tarbiyalashdi.

Hayotda har xil insonlar bo'ladi. Ayrim kimsalar cho'ntagi ozgina pul ko'rsa yoki qandaydir amal tegsa, birdan oyog'i yerdan uzilib, odamlarni mensimay qo'yadi. Haqiqiy ma'rifatli, aqlli insonlar bunday qilmaydi. Rustamjon do'stim Xudo siylagan yigit edi. U ko'p yillar davomida el-yurtimizga sidqidildan xizmat qildi. Qaysi idora yoki tashkilotda, qanday lavozimda ishlamasin, insoniyligini yo'qotmadi.

Hamkasblari, oshna-og'aynilari va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatda o'ta e'tiborli va adolatli, xushfe'l, xushtabiat, har bir masala bo'yicha mulohaza bilan ish tutadigan, bir so'z bilan aytganda, tom ma'nodagi ziyoli, el nazariga tushgan kamtarin inson edi.

Bugun oshna-og'aynilar yig'ilib qolsak, Rustamjonning beg'ubor xislatlarini, cho'rtkesarligi, tantiligi, do'stlariga sadoqatini bot-bot esga olamiz.

Deydilarki, "Insondan bu hayotda hech bo'lmaganda uch narsadan bittasi yodgor bo'lib qolsin: birinchisi —

bog'-rog', ikkinchisi — ilm-ma'rifat, hunar va shu bilim-hunarni egallagan shogirdlar, uchinchisi — qobil farzandlar".

Shu o'rinda yana bir voqea yodimga tushdi.

Rustamjon Qosimov Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori bo'lib ishlagan kezlarida universitetga Toshkent viloyatidan yer ajratildi.

Dam olish kuni edi. Ajratilgan yerni obod qilish, bog' yaratish masalasida maslahatlashish uchun meni taklif etdi.

Fikrlashdik, qo'limdan kelgancha ko'maklashdim. Belgilangan joy go'zal, so'lim bir go'shaga aylandi. Mana o'sha Rustamjon tashkil etgan bog' hali ham yashnab turibdi. Do'stimning qobil farzandlari-yu sadoqatli shogirdlari uning ma'naviy izdoshlari o'laroq Vatanimiz, xalqimiz xizmatida qoim. Bir inson uchun bundan ortiq baxt bo'ladimi!

Ilohim, qadrdonimning oxirati obod bo'lsin.



Nodir Abdullayev,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti prorektori,
siyosiy fanlar doktori, professor

OLIMLIK — MAS’ULIYAT DEMAKDIR

*Bu — ustoz Rustam Qosimovning bizga bergan
eng qimmatli o‘gitlaridan edi...*

Odatda, ilm va ijod ahli tashkiliy ishlarga ko‘p ham hafsala qilavermaydi. Tashkilotchilik — alohida “soha” bo‘lib, u o‘z egalaridan o‘ziga xos iqtidor va energiya — kuch-quvvat talab qiladi. Binobarin, bir vaqtning o‘zida olimlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish kamdan kam odamlarga nasib etadigan noyob hodisadir.

Taniqli sharqshunos va arabshunos olim, davlat va jamoat arbobi, diplomat, mohir pedagog Rustam Sobirovich Qosimov ana shunday nodir salohiyatli insonlardan biri edi.

U kishi arab va ingliz filologiyasi, arab mamlakatlari tarixi, siyosati va din bo‘yicha chuqur bilimga ega edi. Lekin biz, shogirdlarini eng ko‘p hayratga soladigan jihat bu emasdi. Biz ustozning bilganlarini talabalarga yetkazib berish, ular qalbida ilm va tadqiqotga ishtiyoq uyg‘ota olish salohiyatiga qoyil qolar edik. Domlani bir soat sabog‘ini tinglagan eng dangasa talabani ham beixtiyor o‘qishga qiziqishi ortar edi.

Rustam Sobirovichning shogirdlariga nisbatan talabchanligi ba‘zan biroz oshib ketgandek ham tuyular, lekin vaqt o‘tgan sari, murabbiylik va mudarrislik o‘zimizning ham boshimizga tushgach, anglab yetdikki, busiz biror

natijaga erishishning iloji yo‘q ekan. Ezgu maqsad yo‘lida talabchanlik, qattiqqo‘lroq bo‘lishning ham zarari bo‘lmas ekan.

Domla Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tarix fakulteti dekani bo‘lib ishlagan kezlarida o‘zini ajoyib tashkilotchi va strateg sifatida namoyon etdi. Novator olim sifatida u kishi ilmiy jamoa va talabalar o‘rtasida fikrlar yangiligiga yo‘l ochdi.

Fakultetda tayyor qoliplar, stereotiplardan voz kechib, ta‘lim jarayonida yangicha usul va metodlarga o‘tish aynan Rustam Qosimov davrida yuz berdi. Ustoz bizni ma‘lumotlarni ko‘r-ko‘rona qabul qilmaslikka, har bir masalaga tanqidiy va tahliliy yondashishga da‘vat etardi.

An‘anaviy ma‘ruzalar o‘rniga u zot ko‘pincha talabalar bilan munozara tashkil etar, biz bilan birga arab davlatlari tarixi, ichki va tashqi siyosatiga oid muammolarni muhokama qilardi.

Bu qimmatli saboqlar natijasi o‘laroq, biz mustaqil fikr, shaxsiy nuqtayi nazar bo‘lajak olim uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini anglab yetdik. Bahsga kirishish madaniyati, munozaralarda bironi tinglay olish, biznikidan tubdan farq qilsa-da, raqib fikrini hamisha hurmat qilish nima ekanini o‘rgandik.

Akademik bilimlardan tashqari, ustoz bizga hayot fanidan ham saboq berar edi, zero, u kishining oliy-janoblighi, yuksak qadriyatlarga sodiqlighi, to‘g‘rilighi biz uchun namuna bo‘lib xizmat qilgan. Ustozning ibratli umr yo‘llariga boqib, olimlik nafaqat keng bilim va dunyoqarashga ega bo‘lish, balki yuksak axloq, insoniy fazilatlar sohibi bo‘lmoq, jamiyat oldida mas’uliyat ham ekanini anglaganmiz.

Rustam Sobirovichning o‘z nuqtayi nazarini qat’iy himoya qilish qobiliyati menda alohida taassurot qoldirgan.

Bizga doimo o'z fikrimizni bildirishdan qo'rqmaslikni o'rgatar, konstruktiv muloqot olib borishda boshqalar fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhimligini ta'kidlardi. Bu ko'nikmalar ilmiy faoliyatda, umuman hayotda muhim ahamiyatga ega ekanini aytib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak.

Rustam Sobirovich uzoq yillar mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatgani, bo'sh vaqti kam bo'lganiga qaramasdan, albatta shogirdlari uchun vaqt topardi. Ayniqsa, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlashga harakat qilardi. U kishining eshigi biz uchun doimo ochiq edi.

Ilmiy rahbarimiz ilm-fan va madaniyat sohalarida xalqaro aloqalarni rivojlantirish, bu borada yuqori malakali kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shgan edi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasini mudiri, fakultet dekani lavozimida ishlagan yillarda Fransiya, Niderlandiya, Malayziya va Koreya Respublikasining davlat boshqaruvi bo'yicha kadrlar tayyorlash tajribasi yurtimizda ham joriy etildi. Tinglovchilar va o'qituvchilar almashinuvi Akademiyadagi ta'lim dasturlarining ajralmas qismiga aylandi.

Rustam Sobirovich o'zining doktorlik dissertatsiyasini iqtisodiy rivojlanish modellari bo'yicha himoya qilgani va bu sohada ekspert ekanligi bois ham o'z shogirdlarida iqtisodiy diplomatiya, innovatsion rivojlanish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, xalqaro muzokaralar, strategik rejalashtirish borasida bilim va malakalarni shakllantirishga intilardi. Shu bois bizlarni doimo chet ellik olimlarning ma'ruzalarini tinglash, asarlarini o'rganishga da'vat etardi. E'tiborli tomoni shundaki, ustoz bu tavsiya va da'vatlar bilan cheklanib qolmas, vaqti kelganda, bu borada bizni imtihon ham qilib turar edi.

Rustam Sobirovich odamlar bilan ishlashni bilardi. Har bir xodimning qobiliyatini aniq baholay olar, ularni to'g'ri yo'naltirar, o'zi boshqarayotgan jamoada sog'lom muhit yarata olardi. U vazifalarni taqsimlashda har bir xodimning imkoniyatlarini inobatga olar, ularning salohiyatini to'liq ochishga intilardi. Rustam Sobirovichning tashkilotchilik mahorati, ayniqsa, murakkab vaziyatlarda yanada yorqin namoyon bo'lardi. U har qanday muammoni tahlil qilib, eng maqbul yechimni topar, bunda jamoaning har bir a'zosining fikrini inobatga olardi.

Shogirdlaridan biri sifatida Rustam Sobirovich ongimizga singdirgan saboq va qadriyatlarga tez-tez murojaat qilib turaman.

Bugun ustozning shogirdlari O'zbekistonning turli nufuzli muassasalarida faoliyat yuritmoqda, shuningdek, ko'plab xorijiy davlatlar va tashkilotlarda yurtimiz manfaatlarini muvaffaqiyatli himoya qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytmoqchimanki, Rustam Sobirovich shogirdlariga bilim berish bilan birga, ularning shaxsiyatlarini tarbiyalashga ham alohida e'tibor qaratardi. U kishining sermazmun faoliyati, ibratli hayoti biz shogirdlari uchun chinakam olim va pedagog qanday bo'lishi kerakligini eslatib turadi.



Davronbek Maqsudov,

*Din ishlari bo'yicha qo'mita
raisining birinchi o'rinbosari,
tarix fanlari doktori, professor*

JONKUYAR RAHBAR TIMSOLI

Taniqli olim, mohir siyosatchi Rustam Qosimov haqida ilgari ko'p eshitgan bo'lsam-da, u kishini ilk bor 2001-yil, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari lavozimida ishlagan kezlari ko'rganman. O'sha paytlar men Toshkent islom universitetida yoshlar yetakchisi bo'lganim bois domla o'tkazgan yig'ilishlarda muntazam ishtirok etar edim. Gap-so'zlaridan nihoyatda qat'iyatli, talabchan, tartib-intizom va har bir ishni o'z vaqtida bajarishga jiddiy e'tibor qaratadigan inson ekanini payqaganman.

Oradan bir necha yil o'tib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi rektori etib tayinlandilar. Men esa bu paytda Islom akademiyasining Islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO kafedrasini mudiri edim.

Bir kuni Akademiyada kafedra mudiri bo'lib ishlayotgan Nigora opa Umarova telefon qilib, tinglovchilarga diniy bag'rikenglik mavzusida ma'ruza o'qib berishimni so'radi.

Dabdurustdan tushgan bu taklifdan hayron bo'ldim, meni kim tavsiya qilgan bo'lishi mumkin? Biroq buni so'rab-surishtirib o'tirishning mavridi emas edi, roziligimni bildirdim va dars kuni qachon bo'lishini aniqlab

oldim. Nigora opa suhbat orasida "Rustam Sobirovichning o'zlari ham darsga kiradilar", dedi.

Taomili shunaqa, bu: "Endi, ma'ruzaga yana ham puxtaroq hozirlik ko'rasiz-da" degani.

Shukurki, hammasi yaxshi kechdi. Belgilangan kunda ma'ruza o'qib berdim. Tinglovchilarga bag'rikenglikning mohiyati, uning nima sababdan muhim ekanligini xalqaro tajriba va mashhurlar hayotidan misollar asosida tushuntirishga harakat qildim. Savol-javoblar bo'ldi. Nigora opa ham darsning boshidan oxirigacha ishtirok etdi.

Dars tugagach, Nigora opa oldimga kelib, meni rektor so'ragani, shu bois ketib qolmasligimni tayinladi. Birozdan so'ng Rustam Sobirovich huzuriga birga kirdik.

Ustoz ishlarim qandayligi bilan qiziqdi, sohaga doir savollar berdi, takliflarini bildirdi. Xususan, Toshkent shahridagi maktablarda ma'rifiy suhbatlar o'tkazishni tavsiya qildi.

Samimiy xayrlashdik. Akademiyadan chiqib ketayotib, bu aynan men anchadan beri kutib yurgan muloqot bo'lganini his etdim. Senga xayrixoh, hammaslak, fikrdosh insonlar bilan dildan gaplashish qanday yaxshi.

Ammo bir savol o'shanda ochiqsigicha qoldi: nega mendek yosh bir mutaxassisni shunday katta va nufuzli dargohga ma'ruza o'qish uchun chaqirishdi ekan? Keyin bilsam, Qosimov domlaning uslubi shunday — kadrlarni o'rganib yurar ekanlar.

"O'rganishlar" yana davom etdi: 2018-yil Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida kompleks rivojlantirish masalalari bo'yicha ishchi guruhga jalb etildim va Rustam Sobirovich boshchiligidagi guruhda to'qqiz kun davomida faoliyat olib bordim. U kishi diniy-ma'rifiy sohani yanada rivojlantirish, mutaassiblashuvning oldini olishga doir takliflar so'rar va berilgan javoblarni diqqat bilan tinglar

edi. Muloqot davomida fikrlarimni quvvatlash uchun tarixiy voqealar, xalqaro tajribadan misollar keltirar edim. Ayniqsa, hazrati Alining o'z davrida paydo bo'lgan terrorchi va mutaassib kayfiyatdagi "xorijiy"lar bilan kurashda dastlab Abdulloh ibn Abbosdek buyuk sahobani ular bilan muloqotga yuborgani, natijada ko'pchilik to'g'ri yo'lga qaytgani, qolganlar esa qo'lga qurol olgach, ular bilan jang bo'lib o'tganini aytib o'tdim. O'shanda ustoz barcha gaplarimni diqqat bilan tinglagan, bu esa mening o'zimga bo'lgan ishonchni yanada orttirgan edi.

Ishchi guruh tomonidan Andijonning Paxtaobod, Farg'onaning Rishton, Namanganning Kosonsoy tumanlarida ijtimoiy sohani rivojlantirishga ko'maklashildi, ta'lim muassasalari va diniy tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va mutaxassislar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi, diniy dunyoqarashi salbiy tomonga o'zgargan ayrim shaxslar bilan suhbatlar o'tkazildi, ko'pchiligining ongida sog'lom fikr shakllanishiga erishildi.

Salkam bir oylik xizmat safari davomida o'zim uchun ham bir dunyo tajriba to'plashga muvaffaq bo'ldim.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori lavozimida ishlagan paytlarida Rustam aka bilan yaqindan tanishish va birga ishlash baxtiga muyassar bo'ldim.

Ustoz doim "Davronjon" deb murojaat qilar, bundan faxrlanar edim. Ba'zan men shug'ullanayotgan masalalarga doir taklif va tavsiyalarimni eshitish maqsadida o'z xonalariga chaqirib, fikr-mulohazalarimni bafurja tinglar edilar. Jonkuyar rahbar sifatida barcha xodimlarni doim harakatga undardilar. Qaysi sohada faoliyat yuritishingdan qat'i nazar, o'z ishingga hamisha mas'uliyat bilan qara, kuch va bilimingni ayama, derdilar. Domla Qosimovning sa'y-harakatlari, fidoyiligi bilan akademiyada o'quv-ilmiy jarayonlar, ma'naviy muhit yanada jonlandi.

O'z ustida ishlaydigan, yangilikka intiluvchan, vatanparvar xodim va talabalarni bee'tibor qoldirmas edilar. Ularni hamisha moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borardilar. Ustoz tashabbusi bilan yangi-yangi ilmiy loyihalar, o'quv faoliyatini takomillashtirishga oid qator ishlar amalga oshirildi.

Akademiyaga jamoasi bilan bo'ladigan uchrashuvlarda ta'lim samaradorligini yanada oshirish, malakali kadrlarni tarbiyalash bo'yicha muhim vazifalar berar, barchani hamjihatlikda ish olib borishga chaqirar edilar.

Rustam Qosimov rektorlik bilan bir vaqtda Prezident maslahatchisi lavozimida faoliyat olib borgan u kishining o'ta mas'uliyatli, yuksak aql-idrok sohibi ekanligini ko'rsatadi. Diniy-ma'rifiy sohani rivojlantirish yo'lidagi eng katta xizmatlaridan biri — Imom Moturidiy ilmiy tadqiqot markazi faoliyatini yo'lga qo'yishda alohida jonbozlik ko'rsatganlari bo'ldi.

Markazni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyatda sog'lom diniy-ma'rifiy muhitni ta'minlash, aqidaviy adashishlarning oldini olish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom e'tiqodni shakllantirish edi va bu borada aniq vazifalar belgilab berildi. Markaz rahbarligiga mening nomzodimni munosib deb topishgani zimmamdagi mas'uliyat tuyg'usini yanada oshirdi. Bu orada ustozning qo'llab-quvvatlashi bilan ko'p yillik izlanish va mehnat samarasi bo'lgan yutuqqa erishdim — tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldim.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ilm-fan fidoyisi bo'lgan bu insonning Akademiyada dissertatsiya himoyalarning tizimli asosda yo'lga qo'yilishida hissasi juda katta bo'ldi. Shu sababli Islom akademiyasi ilmiy salohiyatda yuqori natijalarni qo'lga kiritdi.

Rustam Sobirovich bugun oramizda bo‘lmasa-da, ilg‘or fikrlari, xayrli ishlari biz shogirdlari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘tganlar haqida so‘z ketsa, “O‘tganlaringizning yaxshiliklarini eslanglar...” degan hadisi sharif yodimga tushadi. Darhaqiqat, Rustam Sobirovichning eslashga arziydigan yaxshiliklari ko‘p edi va ulardan ibrat olish biz — shogirdlarning burchimizdir.



Otabek Hasanov,
*Respublika Ma'naviyat va
 ma'rifat markazi rahbari,
 siyosiy fanlar doktori*

HAR BIR SO‘ZI SABOQ, HAR BIR HARAKATI DASTUR EDI

Rustam Sobirovich Qosimov haqida so‘z borsa, suyuqli adibimiz O‘tkir Hoshimovning quyidagi gaplari yodimga tushadi. Yozuvchi maktabi yonidagi charxpalakni eslab yozadi: “Charxpalak kaftida suv ko‘tarib, yuqoriga olib chiqadi... tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... Charxpalak ham bundan ranjimaydi. Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi...”

So‘ng... bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo‘msar ekanman.

Suv — suv emas, men ekanman! Charxpalak — charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan!

Meni — bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan charxpalak — ustozlarim zahmatini oqlay oldimmikan? Bilmadim...”

Men 2017–2020-yillar ustoz Rustam Qosimov rahbarligidagi Davlat boshqaruv akademiyasida dekan bo‘lib ishlaganman. O‘sha paytda oldimizga yangilanayotgan O‘zbekistonning zamonaviy fikr va g‘oyalarga ega, bilimli, vatanparvar kadrlarini tayyorlash vazifasi qo‘yilgan edi. Bu juda katta mas’uliyat va mashaqqat talab etardi.

Davlatimiz rahbarining o‘sha paytlar “Seni nima o‘ylantiradi, deb so‘rashsa, hech ikkilanmasdan, kadrlar masalasi, deb javob beraman”, deya ta’kidlagani ham

ilmi va malakali, Vatanimiz va xalqimizga sadoqatli, mehnatsevar, fidoyi mutaxassislarni topib, joy-joyiga qo'yish mamlakat, xalq taqdiriga daxldor qanchalik muhim vazifa ekanini ko'rsatib turardi.

Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan mamlakatimizda yangi avlod kadrlarini tayyorlashdek mas'uliyatli ish aynan Rustam Qosimovdek zukko va ma'rifatli zot zimmasiga yuklatilgani bejiz emas edi.

Ko'p yillar davomida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, vazir o'rinbosari, Bosh vazirning fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat masalalari bo'yicha o'rinbosari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori kabi mas'ul lavozimlarda xizmat qilgan insonning bu boradagi tajribasiga Prezident ham, hukumat rahbarlari ham ishonardi va bu yuksak ishonch oqlanganini keyinchalik hayotning o'zi ko'rsatdi.

O'sha yillari Rustam Sobirovich, mashhur adib ta'biri bilan aytganda, haqiqiy charxpalak vazifasini o'tab, yuzlab boshqaruv kadrlarini tayyorlashga ulkan hissa qo'shdi.

Agar kimdir mendan sening baxting, omading nimada, deb so'rasa, hech ikkilanmay, mening baxtim — hayotimda ko'p ulug' insonlarga duch kelganim, ulardan saboq olib yashayotganim, deb javob beraman.

Ana shunday insonlardan biri Rustam Qosimov edi. U kishi bilan birga ishlagan kezlirim men nainki, rahbarlik mezon va mahorati, jamoa bilan, odamlar bilan ishlash, muloqot qilish madaniyati, eng asosiysi, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilish nima ekanini anglab yetdim.

Hech esimdan chiqmaydi, ishga kirish uchun suhbatga tuni bilan tayyorlanganman, o'qiganlarimni takrorlab, ingliz tilidan, qonun hujjatlaridan savol-javob bo'lishini o'ylab, shunga yarasha hozirlik ko'rganman.

Suhbat esa butkul boshqacha ruh va mazmunda kechgan.

Salom-alikdan so'ng ustoz jiddiylik bilan so'raganlar: "Qayerdansen?"

"Olmaliqdanman", — deb shoshib javob berganman.

"Xo'sh, yaxshi, Olmaliq tarixini bilasanmi?"

Mana shu yerda mening, avvalo, o'z ona shahrim, viloyatim, Vatanim tarixini sevishim, undan faxrlanishim qo'l kelgan. Mana shu muhabbat meni tarixni chuqurroq o'rganishimga sabab bo'lgan, jumladan, Olmaliq tarixini ham...

"Ha", deganman ichimda quvonib va o'qiganlarim, otamdan eshitganlarim asosida javob berganman. Shundan so'ng mahallam tarixi, muzeylar, muqaddas qadamjolar haqida so'raganlar.

Bu suhbat hayotimda yangi sahifa ochdi: ishga qabul qilindim. Keyinchalik birga ishlab, yaqindan bildimki, Rustam Sobirovich nihoyatda millatparvar, yurtsevar inson ekan. U kishining ko'pgina hayotiy o'g'itlari hamon yodimda: "Hech qachon unutma, o'z tarixini yaxshi bilgan odam, avvalo, yurtini yaxshi ko'radi, vatanni qadrlaydi, xalqqa xizmat qiladi. Har qanday bilim vatanparvarlik bilan bog'lansagina, rivojlanishga xizmat qiladi";

"Kayfiyating o'ta ko'tarinki yoki tushkun holatda bo'lsang, hech kimga hech narsani va'da qilma, qarorlarni faqat aql va tafakkur bilan qabul qil";

"Prezidentimiz davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak, demoqda. Akademiya bitiruvchilari mana shu talabga eng birinchi bo'lib "labbay" deb javob berishlari kerak";

"Akademiya bitiruvchilari, har bir bo'lajak rahbar-xodim, albatta, o'zbek mumtoz adabiyotining eng nodir namunalari o'qigan bo'lishi shart";

“Bilimli kadr — bu hali yaxshi kadr degani emas. Yaxshi kadr bo‘lishi uchun u tarbiyali, millatparvar, yurtparvar ham bo‘lishi kerak”.

Bu kabi hikmatli so‘zlar jonkuyar ustozning biz, yosh xodimlarga uqtirgan eng qimmatli pand-u nasihatlaridan bir shingil, xolos. Aslida, domla bilan birga kechgan yillarimning har bir kuni saboq, har soati tajriba bilan boyib boraverganini bugun anglab yetapman.

Ba‘zan o‘ylab qolaman, kimdir ma‘lum bir davrni tilga olib, men o‘sha yillari ustozlardan saboq olganman, deydi. Nazarimda, ustozlar sabog‘i yillar bilan emas, balki biz — shogirdlar qilgan ishlarning salmog‘i va samarasi bilan o‘lchanadi. Chunki, har bir ezgu amalimiz, harakatimiz, qabul qilgan qarorimiz ortida ulardan olgan hayot darsimiz natijasi ko‘rinib turadi.

Rustam Sobirovichning bugungi ko‘pchilik yosh rahbar-u mutaxassislar, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqqa haddan ziyod berilib ketgan o‘g‘il-qizlarimizga o‘rnak bo‘ladigan bir ajoyib fazilati bor edi. Doimiy band bo‘lishiga qaramasdan, u kishi mutolaaga albatta vaqt topardi. Har kuni kamida yuzlab sahifa kitob o‘qishdan tashqari, vaqtli matbuot nashrlari (ular orasida xorijda chop etiladigan gazeta va jurnallar ham bo‘lardi), ilmiy maqolalar, yangiliklar bilan tanishib borishni o‘zlariga muntazam odat qilib olgan edilar.

Ha, ustozlarning har bir so‘zi — xazina, har bir harakati biz uchun maktabdir. Bugun o‘ylab qarasam, Rustam Sobirovich o‘zlarining ezgu amallari, oliyjanob shaxsiyati bilan bizga mana shunday ibrat namunasini ko‘rsatib ketgan ekanlar.

Ruhlari shod, oxiratlari obod bo‘lsin.



Qahramon Quronboyev,
O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi,
siyosiy fanlar doktori

MEHRIDARYO ZOT

Taqdir gohida sizni shunday odamlar bilan uchrastiradiki, ularning aytgan birgina so‘zi yoki bajargan amali umr bo‘yi yo‘ldoshingiz bo‘ladi. Bunday insonlarning o‘gitlari, amalga oshirgan ezgu ishlari sizni ham yaxshilikka chorlab, hayot yo‘llaringizni mayoq kabi yoritib turadi. Ulardek bo‘lishni xohlaysiz, shunday ajoyib kishilarga taqlid qilishdan uyalmaysiz.

O‘zingiz havas qilgan, ustozim, murabbiyim deb e‘zozlaydigan bunday insonlar qalbingizning eng chuqur joyidan o‘rin oladilar. Ularni yo‘qotganingizda, hayotingizda bir kemptiklik paydo bo‘lganini his etasiz, eslaganda ajib xotiralardan ko‘nglingiz yorishadi, haqlariga duolar qilasiz.

Xalqimizning yetuk farzandi, taniqli davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sobiq maslahatchisi, yoshlarning mehribon ustози Rustam Sobirovich Qosimov ana shunday fidoyi, kamtarin va samimiy inson edi. Agar u kishi bugun hayot bo‘lganda qutlug‘ 70 yoshni qarshi olayotgan bo‘lar edi.

Butun umrini ilm-u ma‘rifatga, el-yurt xizmatiga bag‘ishlagan, halol mehnati, aql-u zakovati bilan obro‘-e‘tibor qozongan bu inson hayoti ko‘pchilik uchun chinakam ibrat maktabi edi.

Ustoz mehnat faoliyati davomida oliy ta‘lim muassasalarida talabalarga saboq berdi, ilmiy izlanishlar olib borib, iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi va dotsent

unvoniga sazovor bo'ldi. Bir necha yil davomida xorijiy Sharq mamlakatlarida tarjimon bo'lib xizmat qildi.

Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillarida katta tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan Rustam Qosimov Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari kabi mas'uliyatli vazifalarda sidqidildan, sadoqat bilan mehnat qildi.

Tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, har sohada el-yurtimiz manfaatini ko'zlab olib borgan faoliyati, boy bilim va tajribasi, insoniy fazilatlarini, Vatanimizga beqiyos muhabbati bilan haqli ravishda xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi.

Ko'plab ezgu ishlarni amalga oshirdi, xalq koriga yaraydigan kadrlarni tarbiyaladi. Bugun u kishining shogirdlari mamlakatimizdagi turli soha va tarmoqlarda fidoyilik bilan xizmat qilmoqda.

Rustam Sobirovichning tashkilotchilik mahorati, odamlar bilan ishlash tajribasi O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining boshqaruv tizimida ishlagan kezlari ancha qo'l keldi.

Jamiyatimizda fuqarolik institutlarining o'rni va nufuzini oshirish borasida jonbozlik ko'rsatdi.

Prezidentning Jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchisi va ayni vaqtda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori lavozimlarida samarali faoliyat olib borib, yurtimizda millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, diniy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirishda o'zining boy bilim, tajriba va yuksak salohiyatini safarbar etdi.

Mahalla institutining o'rni va nufuzini oshirish, nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlarni har tomonlama

qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim davlat dasturlarini amalga oshirishga katta hissa qo'shdi.

Rustam Qosimov shunday inson ediki — u kishi bilan suhbatlashganingiz sari samimiyati, el-yurt uchun jonini ham fido qilishga tayyor ekanligi sizni ohanraboday o'ziga tortib turardi.

2007–2012-yillarda respublika hududlarini birgalikda aylanib, odamlar bilan muloqot qilish, chekka-chekka qishloqlardagi vaziyat va muammoli masalalarni o'rganish, ularga qanday yechim topish borasida ustozdan ko'p narsalarni o'rganganmiz.

U kishi rahbarlik lavozimlarida ishlasa-da, ustozlik, pedagoglik zehniylari ko'proq ustun kelar — shunchaki topshiriq yoki vazifa berib qolmasdan, ularni bajarish yo'llarini ko'rsatar, kerakli saboqlarni berar edi.

Ustoz inson qadrini bilar, odamlarning dard-u tashvishlariga sherik bo'la olardi. Rahbar sifatida qo'l ostidagi har bir xodimning fe'l-atvori, ruhiyatiga qarab muomala qilar, juda e'tiborli inson edi. Sidqidildan qilingan mehnatni jamoaviy yig'ilishlarda e'tirof etar, "Boringizga shukur!", "Yashang, agar siz bo'lmaningizda..." deya, albatta xodimlarning o'ziga ham shaxsan murojaat qilib, rahmatini bildirib qo'yar edi.

Bu bag'rikeng inson qayerda ishlamasin, bitta shiorga amal qilgan: odamlardan mehrni qizg'anmaslik kerak. Binobarin, bunga o'zim ko'p bora guvoh bo'lganman.

Ba'zan odamning kuch-g'ayrati, xatti-harakatlari va faolligiga qarab, necha yoshga kirganini taxmin qilib bo'lmaydi. Ustoz tug'ilgan yiliga nisbatan ancha yosh ko'rinar edi. Buning sababi — qalbi tozaligi, samimiyligi, insoniyligi, adolatparvarligi va to'g'riligida edi, desam mubolag'a bo'lmas.

Biz, shogirdlari ustozimiz bilan faxrlanamiz. U kishi bizga nafaqat ilm yo'lida yoki kasbiy faoliyatda ustozlik qildi, balki ajoyib fazilatlari bilan barchamizga o'rnak bo'ldi. Domlaning butun hayoti, faoliyati biz uchun katta maktab edi. Bu maktabdan saboq olganlarning birortasi hayotda kam bo'lmadi, jamiyatning turli jabhalarida o'z o'rnini topdi.

Barchamiz uchun qadrli bu insondan yaxshi nom va nurli xotiralar qoldi.

Hayot charxpalagi aylangan sari bu xotira yanada tiniqlashib, teranlashib boraveradi.



Nodir Jumayev,
*Oliy Majlis Qonunchilik
 palatasining Fan, ta'lim, madaniyat,
 sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi,
 iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

YONIQ QALB VA TAFAKKUR SOHIBI

Har bir zamonning haqiqatgo'y ovozi va o'z haqiqat jarchisi bo'ladi. Bu ovoz shunchaki bayon etmaydi, u fursatni yo'qotmaslikka, adolatli qaror qabul qilishga, Vatanga yoniq qalb va tafakkur bilan xizmat qilishga chorlaydi. Bunday ovoz zamirida xalqning dardi, millatning orzusi, fidoyi zotlarning so'nmas nafasi yotadi. Ustoz Rustam Sobirovich Qosimov ana shunday haqiqat ovoziga aylangan inson edi.

U kishining butun umr yo'li — bu haqiqatni izlash, unga oshufta bo'lib yashash, unga sadoqat bilan xizmat qilish timsolidir. U kishi shogirdlariga doimo bir gapni takrorlardi: *“Chala haqiqat yolg'on bilan barobar”*. Oddiy, ammo nihoyatda teran fikr. Bu ustoz uchun hayot mezon, ma'naviy o'lchov, davlat va jamiyatni boshqarishda, insonlar taqdirini hal qilishda yo'l ko'rsatuvchi tamoyil edi.

Rustam aka bu g'oyani shunchaki targ'ib qilmagan, balki o'z hayoti, faoliyati, odobi, suhbat, hatto sukuti bilan amalda isbotlagan edi. U kishining har bir harakati, qarori, nutqi ortida qalbning pokligi, mas'uliyatning yuksakligi sezilib turardi.

Domlaning sokin ovozi, vazmin nigohlari, arab yoki ingliz tilida keltirgan chiroyli bir maqol yoki iqtibosi bilan

ba'zan butun boshli mushkul masala hal bo'lib ketardi. Ayniqsa, xalqaro uchrashuvlarda u kishi chinakam o'zbek ziyolisining madaniyatini, intellektual salohiyati, baland saviyasini yaqqol namoyon etardi.

Ziyolilar oilasida dunyoga kelgan Rustam akaning hayoti istiqlool tarixi bilan chambarchas bog'liq. Ustozning tug'ilgan kuni Mustaqillik bayrami arafasiga to'g'ri kelgani ham timsoliy bir haqiqat — u kishi mustaqillikni faqat bayram emas, balki butun umrining asosiy mohiyati sifatida qabul qilgan edi. Shu bois tavallud ayyomi ko'pincha xizmat safarlarida, bayramga tayyorgarlik ishlarida, maydonlarda o'tib ketar, lekin biror shikoyat yoki e'tiroz bildirmasdi. Chunki u hayotni Vatan xizmatiga bag'ishlashni shonli burch deb bilgan inson edi.

Rustam aka shunchaki rahbar emas — ustoz edi. U kishi ilm va ma'naviyatga bo'lgan hurmatni shunchaki da'vat emas, hayotiy mezonga aylantira olgan shaxs edi. Qanchadan qancha shogirdlar qalbiga iymon, ilhom, ishonch, halollik urug'ini sochdi. Bunday insonlarning darslari faqat auditoriyalarda emas, hayotning o'zida, mas'uliyatli daqiqalarda, hal qiluvchi suhbatlar chog'ida, oddiy insoniy muomalalarda bo'lib o'tadi.

Har bir odam hayotida unga beqiyos ta'sir ko'rsatadigan bir siymo bo'ladi. U har kuni yoningizda bo'lmasligi mumkin, ammo qachonki hayotiy yoki ish yuzasidan bironta zarur qaror qabul qilmoqchi bo'lsangiz, o'sha insonni eslaysiz, u kishi nima degan bo'lardi, deb o'ylab ko'rasiz. Mening hayotimdagi ana shunday betakror inson Rustam Sobirovich Qosimovdir.

U kishi gapirganda — “siyosatchi” emas, avvalo, zimmasida el ishonchi bo'lgan inson sifatida so'zlar edi. Siyosiy nutqlarida “davlat manfaati” deyish bilan birga, “odamlar dardi”ni ham unutmadi. Ana shu narsa men

uchun siyosatning haqiqiy maktabini anglatdi. Keyinroq xalq vakili sifatida men ham minbarlarga chiqqanimda, birinchi navbatda *“Rustam aka bu masalaga qanday yondashardi?”* deb o'zimga savol berardim. Chunki, ustozning har bir masalaga tizimli, tanqidiy, tahliliy va mas'uliyat bilan yondashishi mening ham ong-u tafakkurimga ijobiy ta'sir o'tkazgan.

Kechagidek yodimda. Men ilk bor ustoz Rustam Qosimov bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti prorektori sifatida faoliyat yuritgan davrimda birga ishlash sharafiga muyassar bo'lganman. Bu birgalikdagi faoliyat men uchun oddiy xizmat emas, balki ustoz qiyofasini jonli dars sifatida anglash maktabi bo'ldi.

Rustam aka har bir ishga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashar, halollikni shaxsiy fazilat sifatida emas, balki davlatchilik tuyg'usi deb bilar edi. U kishidagi to'g'rilik, mehrga yo'g'rilgan qattiqqo'llik, talabchanlik atrofidagilarga ham albatta ijobiy ta'sir etmasdan qolmas edi. Aynan ana shunday yuksak talabchanlik muhiti mening hayotimda tub burilish yasadi. Keyinchalik, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputat bo'lib saylanganimda ham, parlamentda xalq vakili degan ulkan mas'uliyatni zimmamga olganimda ham Rustam akaning yurish-turishi, fikrlari menga ko'makdosh bo'ldi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori sifatida faoliyat yuritganimda ham ustoz o'g'itlari menga asqotdi. U kishi menga rahbarlikni o'rgatmagan, balki rahbarlik mas'uliyatidan saboq bergan edi. Ustozni yoshlar orasida ko'p ko'rganman: *“Talabaga nazar tashlash — bu faqat uni tekshirish, nazorat qilish degani emas, avvalo, ularga ishonch berishdir”*, derdi.

Talabalar bilan soʻzlashganda, ularning koʻzlariga qarardi. *“Koʻzida nur boʻlsa, millat kelajagi yorugʻ boʻladi”*, degan soʻzlari hali ham yodimda.

Ustoz har bir shogirdi qalbida bir savol uygʻotishni xohlardi: *“Men xalqim uchun nima qila olaman?”*. Bu savolni u avvalo oʻziga berar, bunga joʻyali javob topish uchun harakat qilardi.

Koʻpchilik hali ham u kishining: *“Agar ijozat etsangiz...”* deb boshlanadigan murosali, lekin qatʼiyatli ohangini eslaydi. U kishining gapirishi, tinglashi, nuqtayi nazarni muhokama qilishi — bularning barchasi chinakam davlat arbobi uchun zarur boʻlgan madaniyat, tafakkur va vazminlik namunasi edi.

Domla shovqinli daʼvatlardan yiroq, biroq har bir jumlasini yuraklarda aks sado beruvchi shaxs edi. Ayni shunday zotlar tarixda qoladi. Har qanday chin inson singari Rustam aka ham baʼzi ogʻir sinovlardan oʻtgan, biroq hech qachon sinmagan. U kishi mard edi — bejiz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: *“Biz Vatanga sadoqatli, fidoyi, aqlli, millatimizning yetuk ziyolisidan judo boʻldik”*, — deb uni yuksak ehtirom bilan yod etmaganlar.

Ustoz bilan birinchi marta suhbatlashganimda hayratda qolgan edim: qanday qilib inson bunchalik vazmin va ayni vaqtda bunchalik dadil boʻla olishi mumkin? U kishining har bir xatti-harakati nafaqat madaniyat, balki insoniy hurmat-ehtirom namunasi edi.

Kechagidek yodimda, ustoz meni dissertatsiya himoyamda qoʻllab-quvvatlab turdi. Lekin hech qachon *“mening shogirdim”* deb aytmadi. Aksincha, *“Bu kishi jamiyatimizga kerakli inson”*, deb tanishtirdi. Bu men uchun eng yuksak mukofot edi.

2021-yilning ogʻir tonglaridan birida tarqalgan xabar yuraklarni zir titratdi: Rustam Sobirovich Qosimov

olamdan oʻtdi. Men *“vafot etdi”* degan soʻzga ishonmadim. Chunki bunday insonlar hayotdan ketmaydi — ular minnatdor qalblarda hamisha yashaydi.

Bugun biz Rustam Qosimovni nafaqat tarixiy hujjatlar va xotiralar bilan, balki u kishining yuraklarimizda davom etayotgan hayoti, mardona, halollikka sodiq siymosi orqali yod etamiz. *“Chala haqiqat yolgʻon bilan barobar”* degan hikmat endi biz uchun ham haqiqatga yetaklovchi mezon boʻlib qoldi.

Ha, bunday insonlarni eslasang — koʻngil yorishadi. Shu bois, u kishining nomi, ruhi, ishi davom etadi. Davlat va jamiyat yodida, shogirdlar, safdoshlar, oila aʼzolari, xalqimiz xotirasida doimo yashaydi.



Otabek Bozorov,
falsafa fanlari bo'yicha
PhD

TUNGI QO'NG'IROQ

2011-yili Toshkentdagi oliy ta'lim muassasalarining biridan “propiska” muammosi sabab bo'shatildim. Qishlog'imga borib, uch-to'rt oy yashab, yana Toshkenti azimga qaytishga majbur bo'ldim (turmush o'rtog'im o'sha vaqtda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida aspiranturada o'qir edi). Kelib, ish qidirishga tushdim. Yaxshi insonlarning maslahati va ko'magi bilan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy kengashiga avval ikki oy volontyor sifatida, keyinchalik 0,5 stavka bosh mutaxassislikka qabul qilindim.

2012-yil yanvar oyining qaysidir kuni rahbarimiz huzuriga chaqirib, “Birinci qavatda shtab tashkil qilingan, o'sha yerda xat-hujjatga qarashib, yordam berib turasiz”, dedi. Topshiriqni bajarishga kirishdim. Markaziy kengashning birinci qavatida bir rais o'rinbosarining xonasi shtab qilingan ekan. Kirdim. Juda ko'pchilik ishlab o'tiribdi. Ular ishchi guruh a'zolari ekan.

Vazirlar Mahkamasining 8-sonli bayoni asosida tashkil etilgan Respublika monitoring guruhining ro'yxatiga ko'zim tushdi. Tanish familiya: “R. S. Qosimov — Respublika monitoring guruhi rahbari”. Ochig'i, biroz hadik paydo bo'ldi. Har holda, Bosh vazir o'rinbosari bo'lgan, qattiqqo'lligi bilan tanilgan odamning oldida ishlash emas, turishning o'zi hayajonli edi men uchun.

Birinci kuni ko'rishmadik. Lekin ertasiga ertalab shtab yig'ilishi bo'lishini aytib qolishdi. “Qosimov o'tkazar ekan”, degan mish-mishdan xabar topdim. Men ham yig'ilishga kirdim. Davraning to'ridagi joy bo'sh edi. Bu joyga Rustam Sobirovich kelib o'tirdilar. Davrada o'tirganlarga birma-bir qarab chiqdilar. So'ngra menga qarab “Uzr, siz kim bo'lasiz?” dedilar. O'zimni tanishtirdim. Mezbon bo'lganim bois shtabdagi tashkiliy-maishiy (kanselariya mollari bilan ta'minlash, kompyuter va printerlarni sozlatish va boshqa) masalalarga qarab turish bo'yicha vazifa yuklandi.

Keyinchalik menga yuklangan vazifadan tashqari qo'shimcha xat-hujjatlarga yordam berib turishga ham jalb etildim. Shunda o'zim kutmagan ajoyib holatlarga guvoh bo'ldim. Men ishlab o'tirgan vaqtda Rustam Sobirovich turli tashkilotlardan kelgan rahbar-xodimlar bilan suhbatlashib turardi. Doim ularga qiziqroq gap gapirmoqchi bo'lsalar, biz kabi yosh va oddiy xodimlarni ham chaqirib olib, davrani kengaytirib, keyin gapirar edilar. Bu meni bir tomondan hayajonlantirsa, ikkinchi tomondan katta motivatsiya berar edi.

Rustam Sobirovichdagi salobat, tadbirkorlik, hozir-javoblik, zukkolik, madaniyat, qat'iyatlilik va prinsipiallikka qoyil qolardim. Masalan, bir kuni shtab faoliyati haqida hisobot qilish kerak bo'lib qoldi. Soat kechki 8–9 lar atrofida topshiriq beryaptilar: “Ma'lumot ertalab soat sakkizda qo'limda bo'lishi kerak. Kechasi soat nechada tamomlashingizdan qat'i nazar, menga qo'ng'iroq qilib aytib qo'yinglar!”

Vazifa tungi soat 03:30 da tayyor bo'ldi. Tasavvur qiling, bu qish vaqtida yarim tun. Ana shu vaqtda rahbar odamga emas, oddiy fuqaroga telefon qilish — ham odobsizlik, ham noqulay bo'lgan ish. Lekin men topshiriq

olganman. Bajarmasam, nima bo'lishini tasavvur ham etolmayman, bilmayman ham. Tavakkal telefon qildim. Ikkinchi gudok chala qoldi. Javob bo'ldi: "Allo, da!"

— Assalomu alaykum, Rustam Sobirovich, uzr, bezovta qildim, — dedim o'zimni dadil tutib.

— Va alaykum assalom, ha, bolam, — dedilar domla.

— Hisobotni yakunlab aytib qo'y, degan edingiz. Tugatgandim, shuni aytay deb telefon qilyapman.

— Yaxshi. Ikki nusxa qog'ozga chiqarib, dam olaveringlar. Ertalab soat sakkizda menga berasizlar.

— Xo'p bo'ladi, tushunarli, — dedim-u ancha yengil tortdim.

O'sha kecha uyga ketmadik. Ertalab soat 7:50 da shtabga Rustam Sobirovich kirib keldilar va salomlashgandan keyin, "Bering hisobotni" deb qo'l uzatdilar. Hayratda qoldim. Aytilgan vaqtdan 10 daqiqa oldin yetib kelgan edilar.

Ana shu tanishuv sababli shtab rahbari — pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Quronovga shogird tushdim. Ustozimiz meni o'zlariga yordamchi qilib oldilar va Rustam Sobirovich bilan boradigan xizmat safarlariga olib ketadigan bo'ldilar. Shu-shu, Qosimov domla bilan tez-tez ko'rishadigan, ayrim vazifa va topshiriqlarni birgalikda bajaradigan bo'lib qoldik.

Qachon ko'rishsak, domla ilmiy ish qilishga undar, yordam berishga tayyor ekanini aytar edi. Tan olishim kerak, Rustam Sobirovichdan hayotda ham, davlat ishini tashkillashtirish hamda turli marosim va yig'ilishlarni o'tkazishda juda ko'p narsa o'rganganman.

Hududlarga katta-katta davlat tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish uchun birga borar edik. Ana shu jarayonda odamlarni tinglash, ular bilan muomala va muloqot qilish madaniyatini o'rganar edik.

Rustam Sobirovich jonkuyar va fidoyi, shu bilan birga, saxovatpesha inson ekanliklarini ko'p bor kuzatganman.

Masalan, ba'zan tushlik yoki yo'l haqiga ham pulim tugab, noqulay vaziyatlarga tushib qolardim. Lekin bu haqda biror marta hech kimga nolimaganman. Shunday bo'lsa ham, ustozimiz sezib yurar ekanlar. Monitoring guruhining hududlarga chiqib ketishi oldidan tayyorgarlik bo'layotgan kunlarning birida kechasi bilan 14 ta hudud bo'yicha alohida-alohida ma'lumot tayyorlab, tongda topshirdik.

Shunda Rustam Sobirovich qo'limizga pul tutqazdilar. O'sha vaqtda oyligimning yarmi edi u pul. Olishga tortindim. "Olavergin, boshqa ish bor, aytaman," deb ko'ndirdilar. O'shanda kichkina bir ishimga berilgan bu rag'bat uchun juda xursand bo'lgan edim. Bunday holatlar esa ko'p bo'lgan.

Keyinchalik ustoz bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida (hozirgi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) qisqa muddat bo'lsa-da, bir jamoada ishlash baxti nasib etdi. Bu davrda ham tartib-intizomga rioya qilishni, ilmiy jamoalar va talabalar bilan ish olib borish mas'uliyatini o'rgandim.

Rustam Sobirovich hech qaysi muammoga birovniki deb qaramas edi. Qaysi sohada va kimga tegishli bo'lmasin, uni hal qilish uchun jon kuydirar, jo'yali maslahati va qo'lidan kelgan amaliy yordamini ayamas edi. Xodimlarga topshiriq berganda ham "Mening ishim yo'q, qanday qilsang ham bajarasan!" qabilida emas, balki masalaning aniq yechimini ko'rsatib berishga intilar edi.

Rahbarlik vakolatidan foydalanib, xodimlarni o'z oldiga, xonasiga chaqirishi mumkin bo'lsa-da, ularning vaqtini o'g'irlamaslik va qo'llab-quvvatlash maqsadida xodimning xonasiga kirib, hol-ahvol so'rab, topshiriq berib ketar edi.

Domla isrofgarchilikni, ortiqcha xarajatni sira yoqtirmasdi. Bir kuni topshirig'iga ko'ra ma'ruza tayyorlab, qoralama nusxasini ko'rsatib olish uchun oppoq qog'ozga chiqarib, oldilariga olib kirdim. Rosa gap eshitdim. Qog'ozni ko'rsatib, "Bu nima?" dedilar. "Ma'ruzangiz, ustoz", dedim. "Men orqasini ko'rsatyapman," dedilar. Tushunmasdan, jim turdim. "Shuni biror-bir ishlatilgan qog'ozning orqasiga chiqarsang bo'lmasmidi?! Axir, bu qoralama-ku! Davlatning puliga kelgan ekan, deb ishlatib, isrof qilish kerakmi, bolam!" deb tanbeh berdilar. Shundan keyin biror marta toza qog'ozni behuda ishlatmaydigan bo'ldim.

Pandemiya e'lon qilingan kunning ertasiga talabalarni o'z uylariga — viloyatlarga yuborish bo'yicha transport qidirib, avtobus izlab rosa qiynaldik. U vaqtda Rustam Sobirovich vazir emas, balki boshqa idorada va boshqa lavozimda edi. Telefon qilib, talabalarni qayerdan kuzatayotganimizni so'radilar va yetib keldilar.

Vaziyatni ko'rib, birdaniga turli tashkilotlarga, transport berishi mumkin bo'lgan joylarga qo'ng'iroq qilib, avtobus va mikroavtobuslarni so'radilar. Hech qancha vaqt o'tmay, muammolarimiz yechim topdi va xursand bo'lib qoldik. Qolaversa, qanchadan qancha talabani manziliga, ota-onasi bag'riga sog'-omon, bepul yetib olishini ta'minlab, savobga ham ega bo'ldilar.

Rahmatli ustozimiz ma'naviyatni, adabiyotni, shoir va yozuvchilar, umuman, ziyolilarni yaxshi ko'rar, imkon boricha ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qilar edilar. Men tarbiya bo'yicha ilmiy ish qilayotganimni aytganimda ham ko'pdan ko'p takliflar bildirdilar. Hatto ba'zi tarbiyashunos, adabiyotshunos va tarixchi olimlarni hurmat bilan bir piyola choyga taklif etib, ularning suhbatini tinglab turishlarini o'zlari menga ibrat tariqasida so'zlab bergan edilar.

"Ilmli, ma'naviyatli odamlar bilan suhbatlashib tursangiz, bilim va tajribangiz ziyoda bo'ladi", derdilar mashhur hadisga ishora qilib.

Tarbiyaviy ishlar bo'yicha juda ko'p munozaralar uyushtirib, o'zlariga ma'qul bo'lgan har qanday innovatsion usullarni ommalashtirishga intilar edilar. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga mas'ul bo'lgan xodimlarni doimo izlanishga, yangilik va tashabbuskorlikka chorlar, ularning muammosini yechib, ishini yurgizib yuborishga chin dildan harakat qilar edilar.

2016-yilning oxirlarida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha hujjat loyihasini tayyorlash maqsadida juda katta guruh tuzilib, turli yo'nalishlarda kichik guruhlar tashkil etildi.

Ularning biriga kamina kotib sifatida kiritilgan edim.

Ishimiz yakunlanib, takliflarimizni olib kirdik. O'shanda fakultetlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jamoatchilik asosida olib borilayotgani, bu esa kutilgan natijani bermayotgani aniqlandi.

Shu munosabat bilan tayyorlangan hujjat loyihasi Vazirlar Mahkamasida uch-to'rt marta mas'ul rahbarlar ishtirokida jiddiy muhokama qilindi. Iqtisodchilar va moliyachilar tomonidan qarshiliklarga uchradi. Ammo har safar Rustam Sobirovich qat'iy turib, masalaning moliyaviy jihati emas, ertangi kundagi ijtimoiy-ma'naviy samarasi muhimroq ekanini tushuntirib, ushbu hujjatning qabul qilinishiga erishdilar.

Natijada oliygohlardagi ma'naviyat uchun mas'ul xodimlarning oylik maoshlari oshirilib, psixolog va tarbiyachi-pedagog lavozimlari ham joriy etildi.

Muxtasar aytganda, davlat xizmatchisi bo'lish, mas'uliyat va fidoyilik bilan ishlash, har qanday ishni vijdonan bajarish, barcha vazifalarni mamlakatning istiqboli uchun

oz bo'lsa-da hissa qo'shishdek ezgu maqsad bilan amalga oshirish zarurligini Rustam Sobirovich Qosimovdan o'rganganman, desam, xato qilmagan bo'laman.

Shu ma'noda, ustozning oldida doimo qarzдорlik hissini tuyaman. Yaqinda Xudoning inoyati o'laroq, ota-onam muborak Haj ziyoratiga borib-kelish baxtiga muyassar bo'lishdi.

Shunda ulardan muqaddas maskanda turib rahmatli ustozim Rustam akaning haqlariga duo qilishlarini iltimos qildim.

Ruhingiz shod, oxiratingiz obod, joyingiz jannatda bo'lsin, aziz ustoz!



Saidkamol Abdurazzoqov,
Rustam Qosimovning shogirdi

TALABCHANLIK ORTIDAGI MEHR

1994-yil O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ingliz tili yo'nalishiga o'qishga kirdim.

Ochig'ini aytsam, o'sha paytlarda ushbu dargohdagi ta'lim jarayoniga ko'p-da havas qilib bo'lmasdi. Kuchli domlalar ham bor edi-yu, biroq pedagogik jamoa asosan endigina institutni tamomlagan, yosh o'qituvchilardan iborat edi. Talabalikka katta ishtiyoq va bir olam orzu-niyatlar bilan qadam qo'ygan biz kabi maksimalistlar bu holatdan qoniqmas edik.

Yoshlikda odam yangilikka o'ch bo'ladi. Bizning ham mudom qulog'imiz ding, o'zimizga tegishli biror xabar yoki yangilikni o'tkazib yubormasdik. Birinchi kursni tamomlash arafasida yuragimizni hapriqtiradigan shunday gap oralab qoldi: Toshkentda malayziyaliklar institut ochibdi, darslar xorijlik o'qituvchilar tomonidan ingliz tilida o'tilar ekan! Surishtirib bilsak, institut emas, Toshkent davlat texnika universitetida Malayziya davlati bilan hamkorlikda yangi — biznesni boshqaruv fakulteti ochilgan ekan.

Hozir bu oddiy holdek tuyulishi mumkin. Lekin o'shanda u xuddi hozir O'zbekistonda Harvard universiteti fakultet ochibdi, degandek gap edi. Barcha ta'lim ingliz tilida bo'lgan birinchi fakultet!

Ko'plab kursdoshlarimiz bilan birga o'qishni yangi joyga ko'chirdik. "Ko'chirdik" deya birgina so'z bilan

osongina ifodalayapman-u, bu soʻz ortida chekilgan mashaqqatlar, eshitilgan tanbeh-u taʼna-dashnomlarni eslasam, bugun ham yuragim orqaga tortib ketadi. Albatta, hozirgi tajribam, dunyoqarashim bilan baholaganda, u bir arzimmas voqea.

Xullas, biz, Jahon tillari universitetining bir guruh talabalari yangi fakultetga koʻchib oʻtdik. Bu yerda men ushbu fakultet asoschilaridan biri, dekan Qosimov Rustam Sobirovichga ilk bor duch keldim.

Yangi taʼlim tizimiga osonroq kirishib ketishimiz uchun Moslashuv haftasi degan dastur boshlandi. Talabalarning malayziyalik muallimlar, yangi tizim bilan, qolaversa, oʻzaro tanishuv haftasi. Afsuski, menga bu sehrli va jozibali haftadan bahra olish nasib etmadi. Chunki, Jahon tillari universitetidan biznesni boshqaruv fakulteti ikkinchi kursiga naq 53 kishi oʻtgan edik. Yuz nafar talabani 53 tasi Jahon tillari universitetidan. Rustam Sobirovich bu talabalarning hujjatlarini koʻchirish boʻyicha barcha “yugur-yugur”larni menga, atigi oʻn yetti yashar gʻoʻrgina talabaga yukladilar. Vaholanki, oramizda universitetning ikkinchi va uchinchi kurslaridan oʻtgan yoshi kattaroq va ancha tajribaliroq aka-opalarimiz ham bor edi. Biroq dekanga, bizni shu dargohga olib kelgan insonga yoʻq deb boʻladimi?

Sarson-sargardonchilik boshlandi. Oʻqishga qabul jarayoni ketayotgan qizgʻin pallalar emasmi, OʻzDJTU rahbariyati qabulxonasiga yaqinlashish juda qiyin, u yerda hech kimning bosh qashishga vaqti yoʻq edi. Amallab, rahbariyatga uchrashganimda ham rosa dakki eshitdim: “Universitetni tashlab kollejga ketyapsizlar, shuni bil-yapsizlarmi?..”.

Men goh tiqilinch avtobusga ilinib, goh jaziramalarda piyoda qolib, terga pishib hujjat qoʻltiqlab yurganimda

yangi kursdoshlarim maza qilib Moslashish haftasini oʻtkazar, buni oʻylaganim sari, ich-ichimdan xoʻrligim kelardi. Ammo Rustam Sobirovichdek insonning aynan menga boʻlgan ishonchini eslaganim zahoti, barcha azoblarim tumandek tarqab ketardi.

Yana rektoratga qarab yuguraman.

“Domlajon, iltimos, ruxsat bera qoling...”

Nihoyat, rahbariyatdan ruxsat tegadi. Oʻqishni rasman koʻchirib olamiz. Biroq quvonchim uzoqqa choʻzilmaydi. Moslashuv haftasining oxirida malayziyalik domlalar **“Saidkamol Abdurazzoqov Moslashuv haftasiga kelmadi”** deb “chiroyli” xulosa yozib berishadi. Buni koʻrgan Rustam Sobirovichning yuziga tabassum yoyiladi. “Qoʻyaveringlar, — deydi xorijlik hamkasblariga. — Abdurazzoqov boʻlmaganda, shuncha talaba bu yerda oʻqimayotgan boʻlardi. Qaytanga bu yigitga rahmat deyishimiz kerak”.

Oʻsha yetti kun — yangi kursdoshlarim uchun moslashish, men uchun esa hayot qozonida qaynab-pishish, toblanish haftasi boʻlgan.

Buning uchun men Qosimov domladan bir umr minnat-dorman. Rustam Sobirovich bu ishlari bilan menga nafaqat ishonch bildirgan, balki 17 yashar yigitni katta hayotga qadam qoʻyishiga narvon tutgan ekanlar, endi bilsam.

Domla juda qattiqqoʻl, talabchan, ammo adolatli inson edilar. Nomzodlik dissertatsiyalari filologiyadan, doktorlik ishlari iqtisodiyotdan boʻlgani boismi, ilm doirasi ham, dunyoqarashi ham nihoyatda keng edi.

U kishida men hurmat qilgan yana bir fazilat (bu xislat oʻzimga ham begona emas) — kuchli millatparvarlik tuygʻusi edi.

Esimda, oʻqishga ancha kirishib ketgan paytlarimiz, Malayziya va malayziyaliklar biz yosh tolibi ilmlarga

salkam ma'budlardek ko'rina boshlagan. Bu narsa bizning gap-so'zlarimiz, qadam olishimizdan sezilgan shekilli, buni donishmand murabbiy, inson ruhiyatining bilimdoni sifatida Rustam Sobirovich juda chiroyli tarzda muolaja qilganlar.

U kishi o'ziga xos muloyim, ammo qat'iy ohangda, O'zbekistonning dunyodagi hech qaysi davlatdan kam joyi yo'qligi, bizning tariximiz ham, kelajagimiz ham buyukligi, mamlakatimiz ulkan potensialga ega ekanini uqtirganlar.

— Senlar boshqalarning oldida o'zlaringni bundog' yo'qotib qo'yimalaring, — deganlar va Vatan istiqboli aynan bizdek ilmi, iste'dodli yoshlar qo'lida bo'lib, hozir ham, kelgusida ham eng yuqori marralarga erishish imkoniga ega ekanimizni tushuntirganlar.

Ustoz tom ma'nodagi ziyoli inson edi. Nutqlari ravon, jumllarida qaytariq — tautologiya yo'q, xitoblari nafaqat quloqqa, balki inson qalbiga yetib borardi. Shu xislatlarini o'zlashtirishga ko'p harakat qilganman, bunga qanchalik erishdim, bilmayman, ammo so'zlayotganimda, gohi ustozimning nafasini sezib qolaman va bundan faxrlanib ketaman. Axir, kim ham o'zi hurmat qilgan insonga o'xshagisi kelmaydi, deysiz...

O'ziga yarasha talabchan va qattiqqo'l bo'lganlari uchunmi, tabassum qilsalar, qarshisidagi insonlar qalbiga o'zgacha ilqlik yugurardi. Chunki u kishining ta'sir doirasi shu qadar keng ediki, kayfiyatlari boshqalarga tez yuqardi.

Fidoyi edilar. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya masalasida u kishi uchun ikkinchi darajali ish yo'q edi.

Biz, talabalar yaxshi bilardik, oldimizga qo'yilayotgan talab qanchalik og'ir ko'rinmasin, bu adolatli va aynan bizning foydamizga qaratilgan.

To'rtinchi kurs edik, bir kuni Rustam Sobirovich meni koridorda ko'rib qoldilar.

— Seni xursand qilaymi? — dedilar kulimsirab. — Boshqa joyga ishga o'tyapman, endi bemalolroq yashaysizlar...

Bu gapni hech kutmaganim uchun nima deyishni bilmay kalovlanib qoldim.

Menimcha, aynan shu lahzalarda ustozning qadrini yaxshiroq anglab yetgandirman. Qattiqqo'l bo'lsa-da, hamisha biz, talabalar manfaati uchun qayg'uradigan, otalarcha mehribon insondan ayrilish nima ekanini boshidan o'tkazganlar yaxshi bilsa kerak.

Beixtiyor u kishiga ergashib xonalariga kirdim.

— Ustoz, hammasi uchun tashakkur, — deya oldim, xolos. Nimadir bo'g'zimga tiqilgandek bo'ldi. O'zimni tutdim.

— Nega turib qolding, kel, o'tir, — dedilar qarshilari-dagi kursiga ishora qilib. Sekin borib o'tirdim. Jilmaydilar.

Avvallari hech bunaqa bo'lmagan, biror vazifa bilan kirsam, bir, uzog'i bilan ikki daqiqada qaytib chiqar edim. Bu gal besh daqiqacha qolib ketdim. Lekin ana shu fursat hayotimdagi eng unutilmas damlardan bo'lib qoldi.

Donishmand ustozim besh daqiqa ichida menga uchta maslahat berganlar. Shulardan bittasiga qo'shilmaganman. Lekin yillar o'tib, domla yuz foiz haq ekanliklari o'z isbotini topgan. Nima ekanligini aytmayman. Bu mening sirim bo'lib qolsin. Hozir esa rosa afsuslanaman. Nimaga bor-yo'g'i besh daqiqa qoldim, ko'proq o'tirib, ko'proq o'gitlarini olsam bo'lasmidi. Axir, meni haydab chiqarmasdilar-ku?.. Ha, mayli, deyman bugun o'zimga o'zim. Shunisiga ham shukr!..

O'qishni ham bitirdik. Kursdoshlar hammamiz har yerga tarqalib ketdik. Rustam Sobirovich bilan ko'rish-

masak ham ora-sira ular haqida eshitib qolamiz. Matbuot va televideniya ko'rinish bersalar xursand bo'lamiz. Muvaffaqiyatlaridan suyunamiz.

2003-yil Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga rektor bo'lganlarida menga ustozimiz bilan qisqa vaqt birga ishlash nasib qildi. Lekin ko'p o'tmasdan, xorijga ketadigan bo'ldim. Rustam Sobirovich meni qaytardilar, karyeramni O'zbekistonda davom ettirishim kerakligini maslahat berdilar. Biroq men qaror qabul qilib bo'lgan edim...

2023-yil yozda kursdoshlar bilan o'qishni bitirganimizning 25 yilligini nishonlash uchun yig'ildik. Ko'pchilik jam bo'ldi. Kimdir tadbirkor, birov moliyachi, yana kimdir bankir, kimdir amaldor bo'lib ketibdi. Malayziyadan muallimlarimizni, mahalliy o'qituvchilarmizni taklif etdik. Ajoyib uchrashuv bo'ldi. O'tgan davrlarni eslashdik. Hatto kap-katta erkaklar ham ko'zlarini namlab olishdi. Rustam Sobirovichning o'rnini yaqqol bilindi. Shu kunlarga yetishishimizda domlarning xizmatlari katta ekanini har birimiz yurakdan his etib turardik...

Ruhingiz shod bo'lsin, aziz ustoz, siz hamisha qalbimizdasiz!



Dilbar Tillayeva,
Rustam Qosimovning umr yo'ldoshi,
shifokor

HAYOT DAVOM ETMOQDA, AMMO...

Biz uchun qadrlil va jonimizdek aziz bo'lgan inson xotirasi qalbimizda doimo saqlanib qoladi.

Albatta, hayot davom etmoqda. Faqat u kishisiz... Bu – endi butunlay boshqa dunyo, lekin unda hamon mehr-muhabbat bor, sog'inch va iztirob bor...

Yo'qotish azobi og'ir. Bu shunday mushkul dardki, uni na tuzatib, na so'z bilan ifodalab bo'ladi.

Sadoqatli umr yo'ldoshim, farzandlarimning aziz otasi endi jisman yonimizda yo'q. Biroq uning borligi, ruhan va ma'nan biz bilan birga ekanini hamisha, hamma joyda his qilamiz: u qalbimizda, o'y-xayollarimizda, xotiralarimizda yashashda davom etmoqda.

U kishi bolalar, nabiralar va qarindoshlar uchun chinakam namuna, mustahkam tayanch va suyanch edi.

U o'z yaqinlariga hurmat va e'tibori, mehrini so'z bilan emas, balki ko'pincha nigohlari, samimiy xatti-harakatlari bilan ifoda etar edi.

U qalbi katta inson edi. Uning yorqin siymosida juda ko'p narsa mujassam edi: donishmandlik va zakovat, ayni paytda ajoyib yumor tuyg'usi, muxtasar aytganda, har taraflama barkamol inson edi. O'ziga murojaat qilgan kishilardan zarur maslahat va yordamini ayamas, qo'lidan kelgancha qo'llab-quvvatlardi.

Farzandlarimizning hammasini yaxshi ko'rar, har biriga mehri bo'lakcha edi. Biroq ortiqcha erkalatmas, ularning

haqiqiy mard, irodali insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini orzu qilardilar va shunga yarasha tarbiya bergan edi. Lekin “danagidan mag‘zi shirin” deganlaridek, nabiralarga kelganda, qalbi daryoga aylangan, ularni o‘zgacha quvonch va mehr bilan erkalab-suyardilar, doimo g‘amxo‘rlik ko‘rsatardilar edi.

Shukurki, bugun nabiralarimiz bobolariga munosib bo‘lib ulg‘ayishmoqda! Farzand-u nabiralarimning qiyofasi, xatti-harakatlari, gap-so‘zlari va odatlarida go‘yoki bobolarining siymosini ko‘rib turgandek bo‘laman. Dilbandlarimning ilk yutuq va muvaffaqiyatlaridan ko‘nglim g‘urur va sevinchga to‘ladi.

Sizning butun borlig‘ingiz bo‘lgan, sizni suyubardoqlagan va siz ham e‘zozlab-qadrlagan insoningiz haqidagi so‘nmas xotiralar hamisha barhayotdir.



Sodiqjon Qosimov,
texnika fanlari doktori, professor

QALBIMDADIR AZIZLAR YODI

Ota-onamiz — eng katta murabbiylarimiz

Biz Toshkentning Eski shahar qismida, Degrez mahallasida tug‘ilib-o‘sganmiz. Bolalik nigohlarimda Eski shahar qiyofasi butunlay boshqacha edi. To‘g‘ri, qiyin davrlar edi. Sharoit og‘ir, Ikkinchi jahon urushidan keyin butun mamlakat tiklanish davrini boshidan kechirardi. Ammo biz uchun Eski shahardan azizroq go‘sha yo‘q edi bu olamda.

Hayot ham go‘zal, munavvar edi. Ko‘pchilik qatori men ham bolaligimni sog‘inch bilan eslayman. Bu balki ota-onamiz bag‘ridagi tashvishsiz, beg‘ubor kunlarimizning har biri bayramdek o‘tgani bilan bog‘liqdir...

Ota-onamiz biz, farzandlarining beka-u ko‘st hayot kechirishimiz, ilm-ma‘rifatli, yaxshi insonlar bo‘lib ulg‘ayishimiz uchun butun borliqlari bilan harakat qilishardi. Xususan, rahmatli otam Sobir Qosimov o‘zi ham olim va pedagog, ziyoli inson bo‘lgani uchun zurriyatlarini, umuman, yosh avlodni bolaligidan ilm olishga da‘vat etardilar. Bu uning nafaqat pedagogik faoliyatida, shu bilan birga, oddiy kundalik hayotida ham namoyon bo‘lardilar.

Otamning opalari — Hamida ammamiz turmush o‘rtog‘i bilan sobiq Kalinin kolxozi markazida yashagandilar. Ularning o‘g‘illari, ya‘ni jiyanlarimiz Botir va Husan otam bilan bog‘liq yoshlik xotiralarini gapirib berishgan-

di. Xususan, otam mehmonga borganlarida jiyanlaridan o'qishlarini ko'p surishtirarkan. Ularning "yaxshi", "bo'lyapti" degan umumiy javoblariga qoniqmasdan, o'ziga xos imtihon ham qilar ekan. Shu bois ular dadam borib qolsalar, "Sobirjon tog'amiz bizdan karra jadvalini so'rab imtihon qiladi, bilmasak uyalib qolamiz" deb salom-alik qilganlaridan keyin, sekin ko'chaga qochib qolisharkan.

Ulg'aygach, bu voqealarni ham kulib, ham biroq xijolatlik bilan esga olishardi.

Otam rahmatli biz farzandlarining ham o'qishimizga alohida e'tibor qaratar, qattiq nazorat qilardi. Bolaligimizdan bizni ilmga qiziqtirar edi. Esimda, dala hovlimizdan shaharga qaytishda bir nechta transportga chiqishga to'g'ri kelar, bekatlarda uzoq kutib qolar edik. Ammo shunda ham vaqtimiz bekor o'tmasdi. Otam bizga "Sananglar-chi, tramvayda nechta odam bor?" deb, yoki ko'p qavatli uyga ishora qilib: "Qani, sanab ko'ringlar, anavi uyning derazasi nechta?" deb so'rar, biz erinmasdan aytganlarini qilar edik. Bugun o'ylasam, bu savollari bejiz emas, balki xotiramizni mustahkamlash uchun o'ziga xos mashqlar bo'lgan ekan.

Biz, farzandlarining o'qimishli insonlar bo'lib kamol topishimizda, 2025-yili, yuz yoshlarida olamdan o'tgan rahmatli onamiz Muhabbatxon ayaning ham hissalarida juda katta. U kishi, ayniqsa, otamiz vafotlaridan keyin bizning asosiy maslahatgo'yimiz, suyanchimiz bo'lib qolgan edilar.

Dunyodagi eng ezgu va yuksak ta'rif, yaxshi so'z bo'lsa, avvalo, volidayi muhtaramamiz uchun ataymiz. Jussalari kichkina, o'zlari nozik bo'lsalar-da, ruhan va ma'nau juda kuchli, irodali ayol edilar.

Hayotda nimagaki erishgan bo'lsak, biz, aka-uka, opa-singillar ota-onamizdan minnatdormiz. Ruhlarini shod bo'lsin, ilohim.

"Avval o'qi, keyin mashina haydaysan!"

1969-yil institutning 4-kursida o'qirdim. Talabalikning eng gullagan davri.

Otamning "Pobeda" mashinasi bo'lardi. O'sha paytda buzilib, uyda yotardi. Otamdan uni o'zim tuzatib, haydasam maylimi, deb so'radim. "Haydovchilikka o'qib, guvohnoma olsang, ruxsat beraman" dedilar.

Haydovchilik kursiga qatnab o'qidim. Uni tamomlab, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirdim. Guvohnomani qo'lga kiritgach, mashinani haydab institutga qatnay boshladim.

Otamning farzandlar tarbiyasidagi o'ziga xos jihatlari o'zida yana bir voqeani aytib beray.

1978-yil ukam Rustam Sobirovich chet eldan bitta avtomobilga yetadigan miqdorda pul ishlab keldi va mashina sotib olish uchun chekni qo'lga kiritdi.

Moskvadan yangi "Volga" sotib olib, uyga qaytdik. Hamma xursand. Otam ham ich-ichidan quvonganlarini sezib turardim. Ammo u kishi jiddiy inson edilar, har bir ishni puxta o'ylab qilardilar. Ularning qarori bilan yangi mashina garajga qo'yildi. Hayron bo'ldik.

— O'g'lim, — dedilar Rustamjonga, — tabriklayman, bu sening mehnatlaringni birinchi samarasi. Ilohim, yaxshi kunlaringga buyursin. Ammo hozircha ilmdan chalg'imaganing ma'qul. Menga qolsa, avval fan nomzodligini yoqla, oila qur. Ana undan keyin mashinangni bemalol haydab yuraverarsan...

Yangi mashina haydashni kim istamaydi, deysiz — endigina 23 yoshga kirgan, g'ayrati ichiga sig'may turgan Rustamjon avvaliga nima deyishni bilmay qoldi. Biroq otamizning qarori qat'iyligini ko'rgach, rozi bo'ldi. Aslida bu maslahat uning foydasi uchun aytilganini o'zi ham anglab turardi.

Padari buzrukvorimizning nasihatlariga quloq tutib, birortamiz hayotda kam bo'lmadik. Ukam Rustamjon ham o'shanda otamning gapiga kirib, faqat ilm bilan shug'ullandi, yuqori ilmiy daraja va unvonlarga erishdi.

O'zgacha fazilatlari bor edi

Aslida, barcha jigarlarimni birdek yaxshi ko'raman. Ularning har biri o'ziga xos fe'l-atvor, fazilatlarga ega. Xususan, ukam Rustam Qosimov yoshligidan nihoyatda tirishqoq, g'ayrat-shijoatli, ilmga chanqoq edi. O'zining axloq-odobi, intiluvchanligi, mehnatsevarlik, muomala madaniyati va boshqa ko'plab ibratli fazilatlari ortidan hayotda ko'p yutuqlarga erishdi, uzoq yillar turli rahbarlik lavozimlarida ishladi.

1978-yil Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)ni a'lo baholar bilan yakunladi. Arab, ingliz va rus tillarini puxta bilardi. 1978–1983-yillarda Toshkent xalq xo'jaligi instituti (hozirgi Iqtisodiyot universiteti) da o'qib, oliy ma'lumotli iqtisodchi mutaxassisligini ham egalladi. Ikkita diplomi, qomusiy bilimlari tufayli turli sohalarda ishladi, faoliyati rang-barang va keng ko'lamli bo'ldi.

1976–1978-yillarda Iroq, 1987–1990-yillarda Suriyada malaka oshirdi. O'nlab xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan anjumanlarda O'zbekiston vakili sifatida ishtirok etdi, delegatsiyalarga rahbarlik qildi, nufuzli anjumanlarda ma'ruzalar o'qidi.

Inimning jo'shqin faoliyatiga razm solib, hayotiy yutuqlaridan cheksiz quvonardim. Butun oilamiz, yaqinlari u bilan faxrlanardik.

El-yurtimizning hurmatli, mo'tabar insonlari tomonidan bitilgan, ushbu kitobdan o'rin olgan xotiralarda e'tirof

etilganidek, u qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, o'z vazifasiga hamisha katta mas'uliyat va fidoyilik bilan yondashardi. Ukam "Bu hayotda amallar ham, lavozimlar ham o'tkinchi, odamdan faqat yaxshilik qoladi" degan naqlni chuqur anglar edi. Shu boisdir, u do'stlari, hamkasblari orasida ham, keng jamoatchilik orasida ham hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan. Umrining oxiriga qadar mas'uliyatli lavozimlarda ishlagani bejiz emas, deb o'ylayman, zero, u barchaning ishonchini, mehri va ixlosini qozongan edi. O'zi ham ishonchni oqlash uchun astoydil mehnat qilardi.

Rustam Qosimov nafaqat katta arbob, ayni paytda katta qalbli inson ham edi. G'iybat, fisq-u fujur, mayda gaplarni nihoyatda yomon ko'rardi. Do'stlikning qadriga yetardi, uning uchun o'zaro hurmat, mehr-oqibat hamma narsadan ustun edi.

Oilasini behad sevar, turmush o'rtog'i, farzand-u nevaralariga juda e'tiborli edi.

Shu o'rinda Rustamjonning umr yo'ldoshi Dilbarxon kelinimizning oila mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, farzandlar tarbiyasidagi ulug' xizmatlarini e'tirof etib o'tmasam bo'lmaydi. U ma'lumoti bo'yicha shifokor, ko'p yillar davomida shifoxonada ishladi, sohasining mohir mutaxassisi sifatida hurmat qozondi. Shu bilan birga, oilada yaxshi umr yo'ldosh, farzandlarining mehribon onasi sifatida e'zoz topdi. Turmush o'rtog'iga, oilasiga g'amxo'r bu ayol har qancha hurmat va tahsinga loyiqdir.

Muqaddas qo'rg'onlarimiz — oilalarimizning totuvligini ta'minlab turadigan barcha ayollarimiz sog'-salomat bo'lsin.

Rustamjon bilan Dilbarxonning o'g'illari ham ota-onasiga munosib, bilimli, qobil farzandlar bo'lib yetishishdi.

To'ng'ich o'g'li Erkin Qosimov 1982-yilda tavallud topgan, axborot texnologiyalari muhandisi. 1983-yili

tugʻilgan ikkinchi oʻgʻli Yolqin Qosimov iqtisodchi, temiryoʻl muhandisi, tadbirkor. Kenja farzand Otabek Qosimov 1989-yil tavallud topgan, maʼlumoti boʻyicha toʻqimachilik sanoati texnologiyasi. Barchalari oilali, hayotda, jamiyatda oʻz munosib oʻrniga ega. Otasining chirogʻini yoqib oʻtirishibdi. Ilohim, boshlari omon, umrlari uzoq boʻlsin.

Inson hayoti davomida turli holatlarni boshidan kechiradi. Kutilmagan oʻzgarishlar, ayriliqlar ham taqdiriga yozilgan boʻlishi mumkin. Afsuski, oilamiz hayotida ham shunday holat yuz berdi. Ukam Rustam Qosimov ogʻir xastalikdan soʻng 2021-yil 7-may kuni 65 yoshida vafot etdi.

Albatta, inson qancha umr koʻrgani bilan emas, hayotda qanday ezgu va savobli ishlarni amalga oshirgani bilan qadrlidir. Buni muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev oʻsha ogʻir musibat kunlarida xonadonimizga tashrif buyurib, rahmatli Rustamjon haqida bizga hamdardlik soʻzlarini aytganlarida ham alohida taʼkidlagan edilar. Ukamni oʻzining eng yaqin yordamchisi, maslahatgoʻylaridan biri deya qadrlagan, xotirasiga yuksak ehtirom koʻrsatgan davlatimiz rahbariga butun oilamiz, xususan, Rustamjonning umr yoʻldoshi va farzandlari nomidan samimiy tashakkur bildiramiz.

Rustam Qosimovni izzat-ikrom bilan eslab, u haqida yaxshi fikrlar aytgan, ajoyib xotiralar yozgan, ushbu kitobning dunyoga kelishi uchun xolisona xizmat qilgan barcha insonlarga — aziz jigarimning doʻstlari va safdoshlariga, mehribon shogirdlariga chin qalbdan minnatdorlik izhor etamiz. Hammalaridan Alloh rozi boʻlsin.

Rahmatli ukamning el-yurt oldidagi kamtarona xizmatlari umr daftarining porloq sahifalari boʻlib qoladi, deb ishonaman.



MUNDARIJA

Tanzila Norboyeva

Maktab yaratgan inson..... 4

Abdulla Aripov

Sadoqatli va fidoyi 11

Shayx Abdulaziz Mansur

Hamisha yaxshilik bilan eslaymiz 16

Shayx Nuriddin Xoliqnazar

Vatan va din xizmatida 18

Mamatqul Hazratqulov

Jon doʻst 22

Xayriddin Sulton

Eslasam, koʻnglim yorishur 27

Shoazim Minovarov

Inson qalbini anglar edi..... 35

Rustam Kalonov

Yuraklarni zabt etish baxti 39

Zohidullo Munavvarov

Chin insonlik fazilati..... 42

Tursunali Qoʻziyev

Doʻst haqida soʻz 48

Abdujabbor Abduvohidov

Komillik saodati..... 59

Bahrom Abduhalimov

Oltindan qimmat lahzalar..... 62

Oʻtkir Rahmat

Ezgu soʻz va ezgu amal odami..... 67

Nurislom To‘xliyev

Olim, yetuk arbob 72

Muhammadjon Quronov

Orzular amalga oshmoqda 78

Shuhrat Sirojiddinov

Oksford qochib ketmas 84

Shovosil Ziyodov

Dono ustoz, mehribon murabbiy..... 88

Sadriddin Turobjonov

Fozil inson haqida so‘z 94

Baxtiyor Mengliyev

Chinakam ustozlik qilgan edilar 98

Zohidjon Islomov

So‘nggi damlariga qadar 104

Jannat Ismoilova

Oliyjanob qalb sohibi..... 108

Sohibjon Alijonov

Bir yaxshilik tarixi 111

Naim Hasanov

Olimlig-u odamiylikda peshqadam..... 114

A‘zamxon Karimov

Yaxshidan bog‘ qoldi..... 118

Nodir Abdullayev

Olimlik — mas‘uliyat demakdir 122

Davronbek Maqsudov

Jonkuyar rahbar timsoli..... 126

Otabek Hasanov

Har bir so‘zi saboq, har bir harakati dastur edi..... 131

Qahramon Quronboyev

Mehridaryo zot..... 135

Nodir Jumayev

Yoniq qalb va tafakkur sohibi 139

Otabek Bozorov

Tungi qo‘ng‘iroq..... 144

Saidkamol Abdurazzoqov

Talabchanlik ortidagi mehr 151

Dilbar Tillayeva

Hayot davom etmoqda, ammo... 157

Sodiqjon Qosimov

Qalbimdadir azizlar yodi..... 159

RUSTAM QOSIMOV

ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA

Ijtimoiy-siyosiy, ommabop nashr

Mas'ul muharrir:

Xayriddin Sulton

To'plab, nashrga tayyorlovchilar:

Saidxon Saidolimov, Elmurod Nishonov

Muharrirlar: *Jumanazar Meliqulov,*

Dildora Abduraimova

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Dizayner *Bobur Tuxtarov*

Texnik muharrir *Yelena Tolochko*

Musahhih *Munisa Ismoilova*

Sahifalovchi *Shahlo Zokirova*

Tasdiqnoma № 4642. 22.07.2020-y.

2025-yil 4-avgustda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.

Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 8,82+0,42 zarv. Nashriyot-hisob tabog'i 7,55 +0,42 zarv.

Adadi 3000 nusxa. Shartnoma № 24-056. Buyurtma №

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"KolorPak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100206, Toshkent shahri, Yangishahar ko'chasi, 1-A.